Important features of pedagogical improvisation are determined by the conditions of its use in the professional activity of the teacher, the structure of improvisation, the ratio of its components and stages of development, as well as the driving forces that ensure the emergence and implementation of pedagogical improvisations.





Such driving forces are the need for the teacher to carry out professional activities in constantly changing pedagogical conditions and specific contradictions between the stereotypical and improvisational characteristics of pedagogical activity. On the basis of an analysis of the important features of pedagogical improvisation, it is possible, we assume, to create a scientifically based methodology of its use in the professional activity of the teacher.

References:

1. Improvisation // Literary Encyclopedic Dictionary. Moscow: Soviet Encyclopedia, 1987. - p.121.145. Improvisation and learning to play the piano: Method, rec. / Comp. G.P.Kaganovich. Sat.1-2. - Minsk, 1997. - 86 p.
2. Kan-Kalik V.A., Nikandrov N.D. Pedagogical creativity. M.: Pedagogika, 1990. - 144 p.
3. Kharkiv, V. N. Pedagogical improvisation: theory and methodology / V. N. Kharkiv. - M., 1992. - 157s.
4. Kharkov, V.N. Improvisation... Improvisation?.. Improvisation! / V.N. Kharkiv. - M. : Magister, 1997.- 288 p.
5. Kharkin V.N. Pedagogical improvisation: Specifics and ways of preparation // Formation of the personality of the Soviet teacher: Experience and problems: Tez. dokl. and messages of the regional scientific and practical conference. Izmail, 1989. - pp.59-60.



**Research Science and
Innovation House**





SINERGETIKANI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA QO'LLASHNING
AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИНЕРГЕТИКИ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

THE IMPORTANCE OF USING SYNERGETICS IN THE EDUCATIONAL
PROCESS

Nazarova Dilfuza Xolmirza Qizi

“International school of finance technology and science”
instituti magistri,

Назарова Дилфуза Холмирза кызы
магистранка института

«Международная школа финансовых технологий и науки»

Nazarova Dilfuza Kholmirza kyzy
master's student of the Institute

"International School of Financial Technology and Science"

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinergetika ilmining yaratilish tarixi, nazariy masalalari, "Sinergetika" atamasi "birlashgan harakat energiyasi" degan ma'noni anglatadi (grek tilidan "sin" - "birlashgan", "birlashtirilgan" va "ergos" - "harakat") ma'nosida qo'llanilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida sinergetikani qo'llanilishining ilmiy tahlili, sinergetikaning muhim jihatlari, ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati, sinergetik yondashuvlar asosida ta'lim-tarbiyani tashkil etishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: sinergetika, ta'lim-tarbiya, sinergetik yondashuv, bo'lajak o'qutuvchilar, ilmiy tahlili, sinergetikaning muhim jihatlari, sinergetikadagi ochiq sistemalar, murakkab tizimlar, rivojlantirish mexanizmlari, metodik tizim

Аннотация: В данной статье изображено история создания науки синергетики, теоретические вопросы, термин «синергетика» означает «единая энергия действия» (от греческого «син» — «единый», «единый» и «эргос» — «движение»), научный анализ использования синергетики в образовательном



процессе, важные аспекты синергетики, значение синергетики в образовании, синергетика. подчеркнута значимость организации образования на основе этих подходов.

Ключевые слова: синергетика, образование, синергетический подход, будущие учителя, научный анализ, важные аспекты синергетики, открытые системы в синергетике, сложные системы, механизмы развития, методическая система.

Abstract: This article presents a scientific analysis of the training of teaching staff based on educational values, important aspects of pedagogical axiology, the dependence of the importance of pedagogical axiology in education on factors, areas of study of pedagogical values, the organization of special disciplines based on axiological approaches, mechanisms for developing personal values, human virtues, and moral views as life skills in future teachers, The methodological system and the importance of practical work are highlighted.

Key words: synergetic, education, synergetic approach, future teachers, scientific analysis, important aspects of synergetic, open systems in synergetic, complex systems, development mechanisms, methodological system

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, ularni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, xorijiy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda.

Ta'lim tizimida, xususan, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini tanqidiy tahlil qilish orqali ertangi kun talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda qator dolzarb masalalarning to'liq yechimi ishlab chiqilmoqda [1].

Ushbu jarayonda ta'lim-tarbiya tizimida nazariya va amaliyot yaxlitligi, mutaxassisliklar kesimida kadrlar tayyorlashda zamonaviy yondashuv tizimlashganligi, xususan sinergetik yondashuvni qo'llash, "fan-ta'lim-ishlab chiqarish" integratsiyani hamda ilmiy va ilmiy-pedagog, shuningdek sohalar uchun noyob kadrlarning tizimli





tayyorlanishi yoʻlga qoʻyilishi, oliy taʼlim muassasalarida ilmiy salohiyat ortishiga, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari malakali mutaxassislar bilan talab darajasida taʼminlashiga omil boʻladi [2,3].

Pirovardida Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash yoʻlga qoʻyilishiga omil boʻladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

XX asrda yangi nazariy va amaliy fanlar kashf etildi. Ular: nisbiylik nazariyasi, kvant mexanikasi, molekulyar genetika, atom va termoyadro energetikasi, reaktiv aviatsiya, kosmonavtika, mikro – megafizika, sunʼiy sentetik materiallar kimyosi, kibernetika – informatika, informatsion texnologiyalar, sinergetika.

Sinergetika XX asrning toʻrtinchi choragida koʻzga koʻrina boshladi. Sinergetikaning asoschisi Nobel mukofotining lauriyati, Belgiyalik fizik – kimyogar Ilya Prigojindir

Sinergetika atamasi qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan boʻlib, birgalik, birlashgan xolda, hamkorlik, koʻmaklashish, ishtirokchilik yoki koʻmaklashuvchi, yordam beruvchi degan maʼnolarni anglatadi. Mazkur atamaning qoʻllash izlarini isixazm – Vezantiyadagi mistik oqim faoliyatidan ham topish mumkin. U ilmiy tadqiqotlardan koʻpincha muvofiqlashtirilgan harakat, uzliksiz hamkorlik. birgalikda foydalanish, degan maʼnolarda qoʻllaniladi.

"Sinergetika" atamasi "birlashgan harakat energiyasi" degan maʼnoni anglatadi (grek tilidan "sin" - "birlashgan", "birlashtirilgan" va "ergos" - "harakat") maʼnosida qoʻllanilishi maʼlum. Shtutgart universiteti professori German Xaken tomonidan yaratilgan bu fanlararo yoʻnalish turli xil tabiatga ega boʻlgan koʻplab kichik tizimlardan (elektronlar, atomlar, molekularlar, hujayralar, neyronlar, mexanik elementlar, hayvonlar organi, odamlar, transport vositalari va hokazo) tashkil topgan tizimlarni oʻrganish va bunday kichik tizimlarning oʻzaro hamkorligi makroskopik miqyosda fazoviy, vaqt yoki fazo-vaqt tuzilmalarining paydo boʻlishiga qanday olib kelishini aniqlash bilan shugʻullanadi [7].

1973 yil nemis olimi G.Xaken oʻz –oʻzini tashkil etish muammolariga bagʻishlangan birinchi konfirensiyada nutq soʻzlagan yil sinergetikaning tugʻulgan yili xisoblanadi.





G. Xaken “Sinergetika” asarida u ko‘pgina fanlarda – astralogiyadan tortib to sotsiologiyagacha – tizim alohida qismlarning birlashishi makroskopik tuzilmalar yoki funksiyalarga olib kelinishini kuzatish mumkinligini qayd etadi.

Xaken yangi fanni nima uchun “sinergetika” deb nomlaganini quyidagicha tushuntiradi.

-birinchidan, unda “makroskopik darajada tuzilma va tegishli faoliyatni vujudga keltiradigan ko‘plab kichik tizimlarning birgalikdagi faoliyati tadqiq qilinadi”.

-ikkinchidan, tizimlarning o‘z – o‘zini tashkil etish umumiy tamoyillarini topishga u turli fanlarni jalb etadi.

Olimning fikricha, turli tabiatli tizimlarning bir xil o‘z – o‘zini tashkil etish tamoyillari mavjud, demak, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning umumiy aniqlovchilarini topish to‘g‘risida so‘z yuritish lozim. Sinergetika aynan mana shu umumiy aniqlovchilarni topishga yo‘naltirilgan.

Muhokama

Sinergetika o‘z – o‘zini tashkil etish, stixiyali, strukturogenez, chiziqsizlik, ochiq tizimlar singari asosli so‘zlar yordamida tavsiflanadi. Sinergetika ochiq, ya’ni tashqi muhit bilan modda, energiya va axborot almashuvchi tizimlarni o‘rganadi. Dunyoning sinergetik manzarasida ko‘p variantlilik va qaytarilmaslikka asoslangan shakllanish xukm suradi. Borliq va shakllanish bir tushunchaga birlashadi. Vaqt yaratadi yoki boshqacha qilib aytganda, konstruktiv funksiyani bajaradi.

Sinergetika har bir narsani sistema deb qaraydi. Sistemani ikki toifaga ajratadi:

- biri – yopiq sistema,
- ikkinchisi – ochiq sistema.

Olamdagi jonsiz sistemalar yopiq, jonli sistemalar ochiq deb xisoblanadi. O‘z – o‘zidan tashkil topish, tashkillanish, asosan, ochiq sistemaga taalluqli deyiladi.

Sinergetikada bu masala tartiblilik va tartibsizlik, chiziqlilik va chiziqsizlik, barqarorlik va beqarorlik, vaqtning orqaga qaytmasligi va qaytishi, befurkatsiya va fluktuatsiya, energiya va entropiya, sababiyat va oqibat, qonuniyat va tasodif, tabiat va jamiyat munosabatlari misollarida bayon etiladi. Sinergetikaning mazmuni shu masalalardan iborat.

“Sistema” so‘zi grekcha bo‘lib “butun”, “qo‘shma”, “birlashma”, “yig‘ma”, “uyushma” ma’nolarini anglatadi. Bu oddiy yig‘inda emas, balki o‘zaro bog‘lanishda va o‘zaro ta’sirda bo‘lgan qismlardan, elementlardan tashkil topgan majmuadir [8].



Masalan, idishdagi mevalar majmuasi yig'indisi sistema emas, lekin, ota-ona va farzandlardan tashkil topgan oila sistemadir, chunki ular orasida o'zaro ta'sir bog'lanishi bor. Odam miyasi o'zaro bog'langan milliardlab nerv xujayralaridan tashkil topgan. Bir neyron minglab boshqasi bilan bevosita aloqada.

Gegel sistema xususiyatiga alohida e'tibor bergan. Uning fikricha, olamdagi narsalar sistemalardan iborat bo'lgani uchun ularni bilish ham sistema shaklida bo'lishi kerak. Sistemani bilish uchun uning elementlarini va ular orasidagi bog'lanish xususiyatlarini bilish lozim. Bu esa dialektikaning talabidir.

Sistemani har xil jihatdan klassifikatsiya qilish mumkin.

- statik va dinamik,
- jonli va jonsiz,
- ochiq va yopiq.

Statik sistema vaqt davomida muvozanatda, dinamik sistema esa, vaqt o'tishi bilan o'zgarishda. Masalan, tosh, tog' jinsi, bino karkasi, statik sistemalardir. Tirik organizm, Quyosh sistemasi, chumolilar tudasi, asalarilar hamjixatligi dinamik sistemalardir.

Ochiq sistemani yopiq sistemadan farqi, yopiq sistemaga tashqaridan modda, energiya, informatsiya kirmaydi va undan ular chiqmaydi, deb xisoblanadi. Ochiq sistemaga ular kiradi, lekin, nima uchundir sinergetika asoschilari chiqishi haqida gapirmaydilar.

O.Tofflarning ta'kidlashicha, biologik va sotsial sistemalar ochiq sistemalardir.

Klassik fizika asosan yopiq sistemalarga e'tibor bergan. Sinergetikadagi sistemalar ochiqdir. Ochiq sistemaga – tashqaridan hamma narsa kirib kelavermaydi. Faqat faol hisoblanadigan energiya, modda va informatsiyalar kiradi.

Sinergetika tirik organizmni ochiq sistema deb xisoblaydi. Biz bu fikrga ham qo'shilamiz, ham qo'shilmaymiz. Qo'shilishimizning sababi shuki, masalan, o'simlik, hayvon va odam organizmi suv, ozuqa, energiyasiz, ya'ni tashqi muhitsiz yashay olmaydi. Shu ma'noda organizm ochiq sistema diyiladi. Quyosh sistemasi esa kosmik nurlarsiz ham mavjud bo'laveradi, ya'ni u yopiq sistema.

Tirik narsalar borki, ularning har biri ochiq sistema hisoblanadi sinergetikada. Jonli organizmning o'z –o'zidan tashkillanish sharti ham shudir. Buning o'zi kifoya emas, jonvorlar, xayvonlar, odamlar juft yashashi shart, agar zotning ham yashashini e'tiborga olsak. Bundan tashqari ular ko'pchiliksiz yashay olmaydilar. Masalan, chumolilar, asalarilar, odamlar bunga yaqqol misol.



Sinergetikadagi ochiq sistemalardan yana biri fandır. Fan ochiq sistema bo‘lib jamiyat bilan bog‘lanishdir. Fan jamiyatning talabini qondirish uchun harakat qiladi, fan esa jamiyatdan kerakli “ozuqa” oladi: olimlar xizmat qiladi, laboratoriyalar qurib beriladi, zarur sharoitlar yaratiladi.

Metafan sifatida sinergetikaning maqsadi alohida fanlarning natijalari, modellari va usullarining umumiylik darajasini, boshqa fanlarni rivojlantirish uchun foydaliligini baholash va muayyan fanning dialektini mejdissiplinar muloqotning yuqori latin tiliga tarjima qilishga imkon beradigan kommunikator rolini o‘ynash edi.

O‘z-o‘zini tashkil etish modeli sifatida sinergetika ko‘plab muammolarga noan’anaviy yondashuvlarni beradigan fikrlash strategiyalari va uslublarining yangi imkoniyatlarini olib keladi. Sinergetikada tabiiy, tabiiy jarayonlarda bo‘lgani kabi o‘z-o‘zini tashkil etish paydo bo‘lishining o‘zini o‘rganishning ko‘proq umumiy va keng muammosi qo‘yiladi.

Avvaliga ob`yektlar o‘zlarini mutlaqo mustaqil ravishda tutadilar va harakatda hech qanday o‘zaro tartiblilik kuzatilmaydi. Bunday dastlabki holatni ko‘pincha "xaos" va "tartibsizlik" tushunchalari bilan xarakterlaydilar. Keyin, tashqi vaziyatlardan kelayotgan energiya yoki ma’lumotning ba’zi bir tanqidiy qiymatlarida obyektlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik paydo bo‘ladi va ular kelishilgan, birgalikda harakatda bo‘la boshlaydilar.

Tartibsizlik tartib bilan almashadi, xaostan muayyan barqaror tuzilish paydo bo‘ladi, ya’ni avvalgi mustaqil obyektlardan elementlarga aylangan komponentlar o‘rtasida doimiy o‘zaro bog‘liqlik o‘rnatiladi. Turli sohalaridagi tadqiqotchilar va mutaxassislar sinergetikada zaif signallarni kuchli signallarga aylantirish, xaosni tartibga aylantirish, tizimlarni sifat jihatdan yangi rivojlanish darajasiga olib chiqish imkonini beradigan ilmda yangi yo‘nalishni ko‘rishdi.

Natijalar

Xulosa qilib aytganda, sinergetika - bu tashqi muhit bilan o‘zaro hamkorlik qiladigan murakkab tizimlar haqidagi ilm bo‘lib, unda turli xil elementlarning kollektiv ko‘p qisimli harakati kuzatiladi, bu tizimning qaytarilmaydigan, noliney, muvozanatsiz harakatiga, tizimning nisbatan barqaror holatlar kaskadi orqali rivojlanishiga olib keladi.

Sinergetika ilmda faoliyatning turli sohalarida darhol talabga ega bo‘lgan yo‘nalish bo‘lib chiqdi. Sinergetikada turli ilmiy yo‘nalishlardagi mutaxassislar ko‘plab yangi jihatlar va imkoniyatlarni kashf etishdi.





Sinergetika ilmining yaratilish tarixi o'zi XX asrning oxirida sinergetik jarayonga - ko'plab bilim va faoliyat sohalarida katta amaliy potensialga ega bo'lgan universal dunyoqarash ilmini yaratishga olib kelgan kuchli integratsiya jarayonining guvohidir.

Sinergetikaning ta'lim-tarbiya tizimida, tarbiya ishini rivojlantirishda qo'llanilishi quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi:

O'quv jarayonida o'z-o'zini tashkil etishga, o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirish:

Talabalarning faol ishtirokini, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishga qaratilgan ko'nikma va malakalarga ega bo'lish [6].

Sinergetik yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonini tadqiq qilish va tushunishning metodologik prinsipi bo'lib, uning ishtirokchilarining xulq-atvorining bashorat qilish mumkinligi, chiziqli emasligi, ehtimolligi va subyektivligini ko'rsatadi.

Natijada, ta'lim-tarbiya tizimida xaos paydo bo'ladi va uni yengish zaruriyati uning o'zo'zini tashkil etish va o'z-o'zini rivojlantirishning ichki manbaiga aylanadi.

Sinergetik yondashuv nuqtai nazaridan, inson tizim bilan birga rivojlanadigan vint emas, balki inqirozlarni yengish va tizimni tartibga solish, uni barqarorlashtirish qobiliyatiga ega kuchdir.

Sinergetika uchun xaos, o'z-o'zini tashkil etish, dissipativ tuzilma, attraktor, bifurkatsiya, sinergetik effekt kabi atamalar xosdir.

Ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etish uchun muhim bo'lgan sinergetikaning qoidalari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

-tizimning dinamik rivojlanishi sharti uning tuzilmasida barqaror bo'lmagan, muvozanatsiz holatlarning mavjudligi;

-tizimning rivojlanish yo'llari maydoni alternativlarni o'z ichiga oladi va tizimning ichki xususiyatlari bilan belgilanishi;

-tizimni yangi rivojlanish darajasiga o'tishi uchun kichik ta'sirlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Sinergetik boshqaruv mexanizmlari tizimning ichki xususiyatlari va zaif ta'sirlarning rezonansi prinsipiga asoslanadi.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiyaga sinergetik yondashuv pedagogik tizimlarning chiziqli emasligi, ochiqligi, o'z-o'zini tashkil etish asosida atrof-muhit sharoitlariga moslashish qobiliyati xususiyatlaridan foydalanishga asoslanadi.

Sinergetik yondashuvdan foydalanib, ta'lim-tarbiya tizimlarini modellashtirishda ularning quyidagi xususiyatlarini hisobga olish kerak.





Ta'lim-tarbiya tizimlarining chiziqli emasligi. Sinergetika nazariyasi va amaliyotida tinchlik yoki chiziqli rivojlanish holati faqatgina abstraksiya bo'lib, tizimni faqat qisqa vaqt oralig'ida qoniqarli tarzda tasvirlaydi.

Tizimlarning ko'p variantligi, alternativligi. Bir nechta bifurkatsiya nuqtalaridan o'tish natijasida sinergetik ta'lim-tarbiya tizimlarini modelirovat qilish natijasida tizimning yakuniy holati emas, balki turli ehtimolli holatlar maydoni paydo bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya tizimining sifat jihatdan sakrash qobiliyati. Tizimdagi bilim olish buzilishining (flukuatsiya) to'planishi tizimni bir darajadan ikkinchi darajaga (katastrofa) sifat jihatdan o'tishiga olib kelishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishi va shakllanishida, ijtimoiy rivojlanishning har qanday fenomenida uni amalga oshirishda ritmlar va sikllarning rolini tushunishning ahamiyati tobora aniqroq namoyon bo'ladi [5].

Bu jihatdan, ba'zi tadqiqotchilar tomonidan sinergetik siklizmning kashf etilishi alohida ahamiyatga ega, chunki bu ta'lim-tarbiya tizimini amalga oshirishning prinsip, mexanizm va xususiyatlarini chuqurroq va aniqroq ochib beradi.

V.P.Branskiyning fikricha, sinergetik siklizm nuqtai nazaridan, har qanday tizimning rivojlanishi o'ziga xos "marjon o'yini" shaklini oladi va agar an'anaviy siklizm muayyan turdagi tartiblarning almashishini (takrorlanishini) nazarda tutsa, sinergetik siklizm tartib va xaos almashishini nazarda tutadi

Aniqlik yetishmasligi: Pedagogikada nazariyachilar va amaliyotchilar tomonidan qo'llaniladigan "ta'limda sinergetik yondashuv" kabi asosiy ta'rif ham bir ma'noli emas. Bu tushuncha mahalliy holatlarda, alohida tadqiqotlarda qo'llaniladigan, boshqa yondashuvlardan farqi asoslab berilmaguncha, umumiy qabul qilingan deb hisoblanmaydi

Sinergetik yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqligi: T.S. Nazarova va V.S.Shapovalenkoning "Pedagogikadagi sinergetik sindrom" maqolasida ta'kidlanganidek, pedagogik faoliyatning o'sha yoki bu sohasida sinergetik bilimlarni qo'llash maqsadga muvofiqligida aniqlik va yetarlicha ravshanlik kiritilmagan [4].

Pedagogika ilk bor nafaqat yuqori jalb qiluvchi kuchga, balki murakkablikka ham ega bo'lgan nostandart g'oyalar bilan to'qnash keladi, bunda harakat qilish istagi va anglash zaruriyati ochiq oydin ziddiyatda bo'ladi.

Sinergetikani ta'limda qo'llashdagi pedagogik xulosalar juda ko'p va muhimdir.



Sinergetika - bu ochiq, murakkab tizimlardagi o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sirni o‘rganuvchi fan.

Ta’lim jarayoni ham ochiq tizim bo‘lgani uchun, sinergetikaning ta’limdagi qo‘llanilishi muhim natijalarga olib keladi. Shu sababli ushbu jarayonda sinergetikani qo‘llashdan kelib chiqadigan pedagogik xulosalar quyidagilar:

Tizimli yondashuv: Ta’lim-tarbiya jarayonini tizimli ravishda ko‘rish, uning barcha elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash muhim. O‘quvchilar, o‘qituvchilar, o‘quv materiallari, ta’lim muhiti va boshqa omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zaro ta’sir: Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir juda muhim. O‘quvchilarning faol ishtiroki, o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan hamkorligi ta’limning samaradorligini oshiradi.

Nochiziqlik: Ta’lim-tarbiya jarayonida kichik o‘zgarishlar ham katta natijalarga olib kelishi mumkin. O‘qituvchilar o‘zlarining xatti-harakatlarining ta’lim jarayonidagi ta’sirini anglashi kerak

O‘z-o‘zini tashkil etish: Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlari muhimdir. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini o‘rganish, mustaqil ishlash, guruhlarda hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratish kerak.

Sinxronlash: Ta’lim-tarbiya jarayonida sinxronlash muhimdir. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini anglashi, o‘qituvchilarning o‘qitish usullarini moslashtirishi va boshqa omillar sinxronlashgan bo‘lishi kerak.

Noaniqlik: Ta’lim-tarbiya jarayonida noaniqlik mavjud bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar o‘quvchilarning har xil ehtiyojlarini hisobga olib, o‘zlarining o‘qitish usullarini moslashtirishlari kerak.

Tartibsizlik: Ta’lim-tarbiya jarayonida tartibsizlik mavjud bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabatini, o‘qish usullarini va ta’limning samaradorligini o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa

Sinergetikaning ta’lim-tarbiya jarayonda qo‘llanilishi quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

Ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish:

O‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, o‘qitish usullarini takomillashtirish va ta’limning samaradorligini oshirish.

O‘quvchilarning mustaqilligini oshirish:





O'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash, o'rganish, mustaqil ishlash, guruhlarda hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratish.

Ta'lim jarayonini demokratlashtirish:

O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ta'limning sifatini oshirish:

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirish

Xulosa qilib aytganda, sinergetika ta'lim-tarbiya jarayonini chuqurroq anglashga va uning samaradorligini oshirishga yordam beradigan muhim nazariyadir.

ADABIYOTLAR:

1. Абдукаримов Б.А., Абдыпов А.М., Баубекова Г.Д. Профессиональная педагогика: Учебное пособие. – Астана: Каз АТУ, 2008. – 367 с.

2. Azimova Z.E. Tarbiyaviy ishlar tizimini integral diagnostik asosda takomillashtirish (oliy ta'lim muassasalari misolida): Ped. fanl.d-pi (DSc) diss. avtoref. –Toshkent, 2018. – B.37.

3. Jamoldinova O. Yoshlar sog'lom tupmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Avtoref. ped. fan. dok. – T., 2015.– 51 b.

4. Курдюмов С.П. Синергетика новые направления. М., 1989.

5. Muqumova D. Organization of effective activities of the manager of water and agricultural // Science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 1 January 2023 UIF2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | Scientists.uz // 37-41 p <https://doi.org/10.5281/zenodo.7534849>.

6. Мукумова Д.О. Психолого-педагогической поддержке студентов среднего профессионального образовательного учреждения // Педагогика и психология: теоретические и практические исследования конференция. <https://wordlyknowledge.uz/index.php/PPSM/article/view/2473>. 1-4 с.

7. Система гуманитарного и социально экономического знания. М., 2001.

8. Синергетическая парадигма. Многообразие поисков и подходов. М.: 2000.



1-2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida lug‘at ustida ishlash.

Masharipova Umida Abduvohidovna

**O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent davlat pedagogika universiteti, ped.f.n.,
dotsent**

Safaraliyeva Mehrangis Shamil qizi

**Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistri,
Email: mehrangissafaraliyeva2507@gmail.com**

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf 1-2-sinf o‘quvchilarda lug‘at ustida ishlash malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, mavhum tushunchalarni bildirgan so‘zlarni tushuntirish haqida ma’lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о формировании умений и навыков работы над лексикой, объяснением слов, выражающих абстрактные понятия, у учащихся 1-2 классов начальной школы.

Annotation: This article provides information on the formation of skills and abilities to work on vocabulary, explaining words that express abstract concepts in students of the 1st-2nd grade of primary school.

Tayanch iboralar: Lug‘at ustida ishlash, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar, mavhum tushuncha, tushuntirish metodikasi, obrazli tafakkur, izohli lug‘at.

Ключевые слова: Словарная работа, учащиеся младших классов, абстрактное понятие, объяснительный метод, образное мышление, объяснительная лексика.

Key words: Vocabulary work, elementary school students, abstract concept, explanatory method, figurative thinking, explanatory vocabulary.

Boshlang‘ich sinflar lug‘at ustida o‘tkaziladigan ishdagi muammoli va murakkab masalalardan biri kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga mavhum tushuncha bildiruvchi so‘zlar ma’nosini tushuntirishdir. Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida abstrakt tafakkur unchalik rivojlanmagan bo‘lib, ular, asosan, ko‘z bilan ko‘rsa bo‘ladigan, ya’ni aniq narsalarni idrok qilish qobiliyatiga ega. Mavhum ma’noli so‘zlar esa ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushlab, ya’ni sezgi a’zolari bilan sezib





bo‘lmaydigan tushunchalarni ifodalaydi, shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ularning ma‘nosini tushunishga qiynaladi. Bu esa boshlang‘ich sinflarda mavhum ma‘noli so‘zlar ma‘nosini tushuntirish metodikasini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Bizningcha, bunday usullardan biri mavhum tushunchalarni obrazlar yordamida tushuntirishdir. Chunki usuliyotchi olim Dilorom Yo‘ldosheva aytganidek: “Alifbo, xat-savod, imlo va talaffuz me‘yorlarini o‘quvchilarga muammoli, muhokama va tanqidiy usullar yordamida singdirish, ularni amalda to‘g‘ri o‘qish hamda yozish, adabiy nutq me‘yorlariga rioya qilish odatini mujassamlashtirish bir qadar murakkab. Bu 7–10 yoshli bolalarda o‘ta rivojlangan xotira, reproduksiya, psixologik-stereotip shakllanish davri yosh psixofiziologik xususiyatlariga to‘la mos kelmaydi. Shuning uchun mazkur bosqichda o‘quvchining obrazli tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan ta‘lim usullari yetakchilik qilishi lozim”.

Endi obraz tushunchasi haqida so‘z yuritimiz. Obraz semiotika sohasiga mansub tushuncha bo‘lib, ramzning bir turidir. Ramzning o‘ziga xos xususiyati quyidagilar: ramz predmetning hissiy obrazidir; u predmetning vakili (namoyandasi)dir; u qandaydir muayyan ma‘noni ifodalaydi; uning shaklining belgilanuvchi predmet bilan bevosita aloqasi yo‘q. Bu xususiyatlar obrazga ham bevosita taalluqli. Mavhum tushunchadan farqli ravishda obraz ko‘rgazmalilik xususiyatini namoyon etadi, u voqelikni mavhum mulohazalar bilan emas, balki hissiy yaxlit, bir butun takrorlanmas tarzda aks ettiradi. Boshlang‘ich sinf o‘qish va ona tili darsliklarida mavhum ma‘noli so‘zlar nihoyatda ko‘p uchraydi. Masalan, 3-sinf o‘qish kitobi darsligida quyidagi mavhum ma‘noli so‘zlarni uchratish mumkin: baxt, najot, fan, ijod, shuhrat, qudrat, iymon, istiqloq, mustaqillik, jur‘at, navqironlik, umid, vatan, armon, ozodlik va hokazo. Bu so‘zlarga izohli lug‘atga tayanib oddiygina izoh bersak, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ularning ma‘nosini aniq tushuna olmaydi. Masalan, baxt so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha izoh berilgan: Baxt 1. Kishining o‘z faoliyati natijalaridan, hayotda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetgani, orzu-umidining ushali sifatida namoyon bo‘ladigan ma‘naviy-axloqiy tushuncha. 2. Hayotdan to‘la mamnunlik va baxt holati; saodat, qut. Ko‘rinib turibdiki, ikkala ta‘rif ham abstrakt xususiyatga ega bo‘lib, bolada aniq tasavvur hosil qilmaydi. Yoki adolat so‘zini olib ko‘ramiz: Adolat – odilona ish tutish, odillik. Bu izohdan ham boshlang‘ich sinf o‘quvchisi hech narsa uqib olmasligi ayon. Xuddi shu tushunchalarni obraz yordamida tushuntirganimizda esa o‘quvchida ular haqida yaqqol tasavvur hosil



bo'ladi. Biroq ta'kidlash joizki, mavhum ma'noli so'zlarga obraz yordamida ta'rif berganimizda uning asosiy izohini ham keltirish zarur bo'ladi. Aks holda o'quvchining bu hodisa haqidagi tushunchasi chala bo'lib qoladi. Bu borada ajdodlarimiz tajribasiga suyansak, nihoyatda to'g'ri yo'l tutgan bo'lamiz. Masalan, 1-sinf o'qish kitobi darsligida Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub mavhum ma'noli so'zlarni tushuntirishning go'zal namunasi berilgan. Buyuk alloma o'quv-idrok, bilim so'zlarini quyidagicha tushuntiradi: "O'quv, idrok qorong'u tundagi mash'alaga o'xshaydi, bilim esa shu mash'aladan taralayotgan nurga o'xshaydi". Naqadar go'zal va aniq ta'rif, shunday emasmi?! Quyida bir necha mavhum ma'noli so'zning obraz vositasida izohlanishiga misol keltiramiz. Baxt so'zini quyidagicha izohlash mumkin: O'quvchilar, baxt – kishining hayotdan to'la xursandlik, mamnunlik holati. Baxt – bir qancha bo'laklardan iborat tushuncha. Baxtni bir necha yaproqli gulga o'xshatish mumkin. O'qituvchi doskaga quyidagi rasmni chizadi yoki tayyor chizilgan rasmni iladi:

O'qituvchi rasmga izoh beradi: "Mana, o'quvchilar, ko'rib turganingizdek, baxt sog'liq, ahil va mehribon oila, sadoqatli do'stlar, boylik, yurtimizning tinch va obodligi, orzu va unga erishishdan iborat ekan. Odamda shularning barchasi bo'lsa, uni baxtli odam deyish mumkin. Shulardan birortasi yetmasa, odamning baxti to'kis bo'lmaydi".

O'qituvchi o'quvchilarni faollashtirish uchun ularga: "Mana shu baxt guliga yana qanday yaproqlarni qo'shish mumkin?" – deb savol berishi va o'quvchilar bilan birga yaproqlar sonini istagancha ko'paytirishi mumkin. Savob so'zini quyidagicha izohlash mumkin: "O'quvchilar, savob – o'zgalarga beminnat qilingan xolis yordam, yaxshi ish. Savobni mevali daraxtning odamlarga meva berishiga yoki zilol chashmaning suv ulashishiga o'xshatish mumkin. Daraxt ham, chashma ham bergan mevasi, suvi uchun minnat qilmaydi. Odam ham qilgan savob ishini minnat qilmasligi kerak". Avlod so'zini o'qituvchi daraxt obrazi orqali quyidagicha izohlashi mumkin: "O'quvchilar, avlod – farzandlar, nevara, evaralar degani. Avlod so'zini ajdod so'zisiz tushunib bo'lmaydi. Ajdod – avlodga nisbatan ilgari o'tgan ota-bobolar. Avlodlar va ajdodlarni ulkan daraxtga o'xshatish mumkin. Mana, qaranglar". O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi rasmni ko'rsatadi: Ko'rib turganingizdek, daraxtning yer ostidagi ildizlari – bizning ajdodlarimiz. Ajdodlarimiz bilan aloqamiz qanchalik mustahkam bo'lsa, daraxt shunchalik kuchli bo'ladi. Chunki daraxt ildizlaridan oziqlanadi-da. Biz ota-bobolarimizni hurmat qilsak, ulardan qolgan urfodatlariga amal qilsak, ular yozgan kitoblarni o'qib-o'rgansak, ajdodlarimiz bilan aloqamizni mustahkamlagan bo'lamiz.



Daraxtning shox va butoqlari – bizning avlodlarimiz, ya’ni bolalarimiz. Daraxtning tanasi – bu “men” o‘zim. Aynan “men” orqali ajdodlar va avlodlar aloqasi amalga oshadi. Adolat so‘zini esa obraz vositasida quyidagicha tushuntirsa bo‘ladi: O‘quvchilar, adolat bu odamlarga bir xilda munosabatda bo‘lish, bironing foydasi uchun boshqa kishiga zarar yetkazmaslik. Ulug‘ bobomiz Abdulla Avloniy adolat so‘ziga: “Adolat deb boshqalarning moli va nomusini rioya qilmakni aytilur”, – deb ta’rif beradi. Buyuk alloma Jaloliddin Rumi aytganidek:

Har nekim ermish o‘zingga noravo,
Noravodir o‘zgaga ko‘rsang ravo deydi.

Demak, adolatli inson o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani o‘zgalarga ham ravo ko‘rmaydi. Chunki adolat qilmagan odam zulm qilgan bo‘ladi. Zulm qilgan odamni esa zolim deymiz. Adolat taroziga o‘xshaydi (o‘qituvchi tarozining rasmini ko‘rsatadi). Tarozining ikkala pallasiga bir xil yuk qo‘yilsa, uning ikki pallasiga teng bo‘ladi, ya’ni muvozanat saqlanadi. Bir pallasiga og‘irroq yuk qo‘yilsa, tarozining bir pallasiga baland, bir pallasiga past bo‘ladi, muvozanat buziladi, ya’ni adolatsizlik yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev 2019-yil 23-avgust xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masallariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidan parcha.
2. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Toshkent-2020.
3. Qosimova K., S.Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva X., Sariyev Sh. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent-2009.
4. Ahmedjanov M.M., To‘xtaeva Z.Sh. Didaktik vositalar majmuasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: <Fan va texnologiyalar>, 2008. -100-b.
5. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlarini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari. Pedagog. fan. dok. ... dis. - T.: TDPU, 2005. -274-b.
6. Mirqosimova M., O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini oshirish shakllantirish va takomillashtirish T. 2006; Ashrapova T.Odilova M, Ona tili metodikasi T. 1986 ;
7. Masharipova U. , Umarova M. , Baynazarova D. , Nabiyeva M. Ona tili : 4-sinf. Oqituvchilar uchun metodik qollanma - T. : Sharq 2017.
8. Fuzaliyev S, Xudoyberganova M, Yoldosheva Sh, Ona tili, 3-sinf, -T. : Oqituvchi, 2018.





9. Masharipova U. , Umarova M. , Baynazarova D. , Nabiyeva M. Ona tili : 3-sinf. Oqituvchilar uchun metodik qollanma - T, : Sharq 2016.
10. Qosimova K, Fuzaliyev S, Nematova A, Ona tili, 2-sinf, -T, : Cholpon, 2018.
11. Masharipova U. , Umarova M. , Baynazarova D. , Nabiyeva M. Ona tili : 2-sinf. Oqituvchilar uchun metodik qollanma - T, : Sharq 2015.
12. Gafforova G, Shodmonov E, Gulomova X , Ona tili, 1 - sinf, -T, : Sharq, 2019.
13. Masharipova U. , Umarova M. , Baynazarova D. , Nabiyeva M. Ona tili : 1-sinf. Oqituvchilar uchun metodik qollanma - T, : Sharq 2014.
14. Safaraliyeva Mehrangis Shamil qizi. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES, 2(12), 74–78.

Internet havolalar:

1. www.tdpu.uz
2. <https://kun.uz/uz/35715601>
3. www.Ziyonet.uz
4. www.pedagog.uz
5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8000723>

Research Science and
Innovation House





МИРОВОЙ РЫНОК УСЛУГ: СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ, ТЕНДЕНЦИИ И ОЖИДАНИЯ

Барнакулова Гульрух Алишер кизи

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация

В данной статье рассматриваются ключевые структурные изменения, происходящие на мировом рынке услуг, а также текущие тенденции и перспективы его дальнейшего развития. Особое внимание уделяется влиянию цифровизации, глобализации и инноваций на трансформацию сферы услуг. Также анализируются возможности и вызовы, с которыми сталкиваются развивающиеся страны в стремлении интегрироваться в глобальный рынок услуг.

Ключевые слова: Рынок услуг, структурные изменения, цифровая экономика, экспорт услуг, глобальные тренды, инновации, экономическое развитие.

Введение

На рубеже XXI века сектор услуг стал доминирующей составляющей глобальной экономики. Ведущие мировые державы, такие как США, Великобритания, Германия и Япония, уже давно сформировали экономику, в которой услуги занимают более 70% ВВП. Мировая торговля услугами в последние десятилетия значительно возросла благодаря развитию информационных технологий, росту мобильности рабочей силы и трансформации моделей потребления.

Согласно данным Всемирной торговой организации (ВТО), услуги составляют почти треть всей мировой торговли. В связи с этим изучение текущих изменений в структуре мирового рынка услуг становится особенно актуальным.

Анализ литературы по теме

Среди ключевых работ, освещающих трансформацию рынка услуг, выделяются труды Майкла Портера, в которых услуги рассматриваются как





важная часть цепочки добавленной стоимости. Ричард Болдуин (2016) в своей концепции "новой глобализации" подчеркивает возрастание роли услуг в мировой экономике.

Международные организации, такие как МВФ, ВТО, Всемирный банк и ЮНКТАД, в своих отчетах отмечают:

Рост цифровых услуг (онлайн-образование, облачные технологии, финтех);

Усиление роли аутсорсинга и оффшоринга;

Возникновение платформенной экономики (Uber, Airbnb, Amazon Web Services);

Участие малых и средних предприятий в трансграничной торговле услугами.

Также освещаются вопросы цифрового неравенства и вызовы, связанные с регулированием трансграничного обмена услугами.

Обсуждение

1. Структурные изменения в секторе услуг

Мировой рынок услуг эволюционирует от традиционных отраслей (туризм, транспорт, образование) к высокотехнологичным видам деятельности. Основные изменения включают:

Рост доли цифровых услуг – IT, SaaS, телемедицина, дистанционное обучение.

Интеграция с производственным сектором – производители всё чаще предлагают сопутствующие сервисы.

Автоматизация и ИИ – многие процессы в банковской, юридической и медицинской сферах становятся цифровыми.

Рост самозанятости – благодаря платформам фриланс и удалённая работа становятся глобальными.

2. Глобальные тенденции

Ускорение цифровизации (особенно после COVID-19);

Смещение центра активности в Азию и Африку;

Рост устойчивых и "зеленых" услуг;

Увеличение роли онлайн-платформ в предоставлении услуг;

Рост персонализированных и гибких решений для клиентов.

3. Перспективы для развивающихся стран



Для стран с переходной экономикой, включая Узбекистан, Казахстан, Индонезию и Вьетнам, рынок услуг может стать стратегическим направлением:

Преимущества:

Низкие издержки;

Молодое и технологически активное население;

Возможность экспортировать знания и профессиональные навыки.

Вызовы:

Недостаточно развитая цифровая инфраструктура;

Языковой барьер;

Отсутствие стандартов качества услуг;

Недостаточное регулирование электронной торговли.

Результаты

На основе проведённого анализа можно выделить следующие ключевые выводы:

Сфера услуг становится основным драйвером глобального экономического роста;

Инновационные и цифровые услуги лидируют в темпах роста;

Развивающиеся страны имеют шанс войти в мировую торговлю услугами при условии инвестиций в инфраструктуру и человеческий капитал;

Конкуренция в данной сфере усиливается, что требует гибкости и высокой адаптивности от поставщиков услуг.

Заключение

Мировой рынок услуг претерпевает значительные изменения, формируя новую архитектуру глобального разделения труда. Цифровизация, платформенные технологии и растущий спрос на персонализированные услуги трансформируют традиционные бизнес-модели.


Для развивающихся стран это не только вызов, но и окно возможностей. Формирование устойчивой и конкурентоспособной сферы услуг требует согласованных усилий государства, частного сектора и системы образования. При наличии четкой стратегии и международной кооперации, страны с формирующейся экономикой могут занять достойное место на глобальном рынке услуг.





Список использованной литературы

1. Baldwin, R. (2016). The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization. Harvard University Press.
2. Porter, M. (1985). Competitive Advantage. Free Press.
3. Всемирная торговая организация (ВТО). (2023). World Trade Statistical Review.
4. Международный валютный фонд (МВФ). (2023). World Economic Outlook.
5. Всемирный банк. (2023). Global Economic Prospects.
6. ЮНКТАД. (2023). World Investment Report.
7. OECD. (2022). Digital Economy Outlook.



**Research Science and
Innovation House**





MODELS OF EVALUATION

Student of foreign language and literature: **Rakhimova Guli**

Urgench State Pedagogical Institute: Foreign language

Email: gulirakhimovaaa@gmail.com.

Mobile: +998918691334

Abstract:

This article explores the Kirkpatrick Assessment Model as a comprehensive framework for evaluating training programs and curricula. It outlines the model's four levels—Reaction, Learning, Behavior, and Results—and discusses how each phase contributes to understanding the effectiveness of training initiatives. The article emphasizes the importance of assessing not only immediate participant feedback but also long-term behavioral changes and organizational outcomes. Practical examples, such as teacher training in technology integration, are provided to illustrate each level. Although the model is sometimes criticized for being overly simplistic, it remains a valuable tool in both educational and professional settings for improving performance and achieving measurable results.

Key words: Kirkpatrick model , curriculum evaluation, training effectiveness, behavior, results.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Kirkpatrick baholash modelini o'quv dasturlari va treninglarni baholashda qo'llaniladigan keng qamrovli yondashuv sifatida ko'rib chiqadi. Modelning to'rtta bosqichi — Reaksiya, O'rganish, Xulq-atvor va Natijalar — har biri trening samaradorligini aniqlashda qanday rol o'ynashi tushuntirilgan. Muallif nafaqat ishtirokchilarning dastlabki fikrlarini, balki ularning ishdagi xulq-atvori va tashkilotga ta'sirini ham baholash muhimligini ta'kidlaydi. Har bir bosqich bo'yicha real misollar, jumladan, o'qituvchilarga texnologiyalarni o'rgatish kursi, keltirilgan. Model soddaligi uchun tanqid qilinsa-da, u hali ham ta'lim va ish jarayonlarida samaradorlikni oshirishda foydali vosita bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: Kirkpatrick modeli, o'quv dasturi, baholash, trening samaradorligi, xulq-atvor, natijalar.





АННОТАЦИЯ

Данная статья рассматривает модель оценки Киркпатрика как комплексный подход, применяемый для оценки учебных программ и тренингов. Описаны четыре уровня модели — Реакция, Обучение, Поведение и Результаты — и их роль в определении эффективности обучения. Автор подчеркивает важность оценки не только первоначальных впечатлений участников, но и изменений в их профессиональном поведении и влияния на организацию. Для каждого уровня приведены реальные примеры, включая курс по обучению преподавателей использованию технологий. Несмотря на критику за простоту, модель остается полезным инструментом для повышения эффективности как в образовании, так и в рабочих процессах.

Ключевые слова: Модель Киркпатрика, учебная программа, оценка, эффективность тренинга, поведение, результаты.

Introduction

Evaluation is a systematic process used to determine the value, quality, or effectiveness of a program, project, individual performance, or system. It serves multiple purposes: improving processes, making informed decisions, ensuring accountability, and measuring outcomes. Over time, various models of evaluation have emerged, each grounded in different philosophical, pedagogical, or managerial assumptions.

This article investigates core evaluation models widely applied across disciplines, including education, training, public policy, and development projects. Understanding these models helps stakeholders select appropriate frameworks suited to their specific goals and contexts.

Literature Review

The literature on evaluation models is rich and diverse, reflecting different schools of thought and methodological orientations.

1. Tyler's Objective-Based Model (1949)
One of the earliest systematic evaluation models, proposed by Ralph Tyler, focuses on predefined objectives. Evaluation in this model is the process of determining the extent





to which educational goals have been achieved. It is linear, straightforward, and outcome-focused, widely used in educational settings.

2. CIPP Model (Context, Input, Process, Product) – Daniel Stufflebeam (1971)

Stufflebeam introduced a comprehensive model that assesses not only outcomes but also the broader planning and implementation process. It is decision-oriented and emphasizes continuous improvement, making it suitable for complex programs.

3. Kirkpatrick’s Four-Level Model (1959)

Kirkpatrick’s model is widely used in training and development. It assesses:

- Reaction (how participants feel),
- Learning (knowledge/skills acquired),
- Behavior (application on the job),
- Results (organizational impact).

4. Scriven’s Goal-Free Evaluation (1972)

Michael Scriven proposed evaluating a program without reference to its stated goals, focusing instead on actual outcomes. This approach helps uncover unintended consequences and offers an unbiased perspective.

5. Logic Models: Often used in program planning and evaluation, logic models illustrate the relationship between resources, activities, outputs, outcomes, and long-term impacts. They offer a visual framework for aligning evaluation with strategic objectives.

Recent literature, such as that from the American Evaluation Association and works by authors like Fitzpatrick, Sanders, and Worthen (2011), emphasizes the need for culturally responsive and participatory evaluation practices in diverse settings.

Discussion

Evaluation models vary in their approach, focus, and application. The choice of model depends on factors such as the evaluation purpose, stakeholder needs, resources, and the complexity of the subject being evaluated.

Model	Focus	Strengths	Limitations
Tyler Model	Achievement of objectives	Clear, easy to implement	Ignores unintended outcomes
CIPP Model	Comprehensive program evaluation	Useful for formative and summative use	Complex, time-consuming





Model	Focus	Strengths	Limitations
Kirkpatrick Model	Training effectiveness	Practical for corporate learning	Hard to isolate results from other factors
Goal-Free Evaluation	Actual outcomes	Unbiased, identifies hidden effects	May lack focus or stakeholder alignment
Logic Models	Strategic alignment	Visual and systematic	Needs detailed planning

Each model can be adapted and integrated depending on evaluation needs. For example, a training program could combine Kirkpatrick’s model for immediate feedback and CIPP for overall program review.

Results

The comparative analysis suggests that no single evaluation model is universally superior. Instead, effectiveness depends on how well the chosen model aligns with the purpose and scope of the evaluation. Practitioners often blend models for more comprehensive insights.

Key takeaways include:

- Objective-based models work best when goals are clear and measurable.
- Development programs benefit from process-focused models like CIPP.
- Training programs thrive under the layered analysis of Kirkpatrick’s model.
- Goal-free evaluations help surface unexpected outcomes.
- Logic models are excellent tools for mapping and communicating program theory.

Conclusion

Evaluation is not a one-size-fits-all process. The selection of an appropriate model requires an understanding of the evaluation context, objectives, and stakeholders. As evaluation continues to evolve—especially in a global, interconnected world—there is increasing demand for inclusive, flexible, and responsive approaches.

By critically analyzing and appropriately applying various evaluation models, evaluators can generate more meaningful, actionable insights that contribute to learning, accountability, and improvement across sectors.





References

1. Tyler, R. W. (1949). *Basic Principles of Curriculum and Instruction*. University of Chicago Press.
2. Stufflebeam, D. L. (1971). *The Relevance of the CIPP Evaluation Model for Educational Accountability*.
3. Kirkpatrick, D. (1959). *Evaluating Training Programs: The Four Levels*. Berrett-Koehler.
4. Scriven, M. (1972). *Evaluation: A Systematic Approach*.
5. Fitzpatrick, J. L., Sanders, J. R., & Worthen, B. R. (2011). *Program Evaluation: Alternative Approaches and Practical Guidelines* (4th ed.). Pearson Education.
6. American Evaluation Association (www.eval.org)
7. W.K. Kellogg Foundation. (2004). *Logic Model Development Guide*.

A large, light blue watermark logo is centered on the page. It features a central lightbulb icon surrounded by a circular pattern of lines, all enclosed within a complex, geometric, crystalline structure.

**Research Science and
Innovation House**





Hozirgi davrda o'qituvchi mahorati masalalari

Andijon davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti biologiya
yo'nalishi.

Xasanboyeva Gulshanoy Boburjon qizi. Ilmiy rahbar: Turdieva Shoxida.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi mahoratining o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Bugungi kunda pedagogik faoliyatda faqat bilim berish emas, balki tarbiyaviy, kommunikativ va innovatsion ko'nikmalarga ega bo'lish o'qituvchidan talab qilinmoqda. Maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, ta'lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati, shuningdek, shaxsiy fazilatlarining o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy o'qituvchining malakasini oshirish, uzluksiz o'zini rivojlantirib borish masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Maqola ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy fikrlarni o'z ichiga oladi.

Abstract: This article analyzes the role and importance of teacher skills in the modern educational process. Today, in pedagogical activity, teachers are required not only to impart knowledge, but also to possess educational, communicative and innovative skills. The article discusses the influence of a teacher's professional competence, ability to use educational technologies, as well as personal qualities on the education of students. Attention is also paid to the issues of improving the skills of a modern teacher and continuous self-development. The article contains scientific and practical ideas aimed at improving the education system.

Kalit so'zlar: O'qituvchi mahorati, zamonaviy ta'lim, pedagogik kompetensiya, kasbiy malaka, ta'lim texnologiyalari, metodik yondashuv, innovatsion usullar, pedagogik faoliyat, o'qituvchi imiji, kasbiy rivojlanish, interfaol metodlar, ta'lim sifati, o'quvchi va o'qituvchi munosabati, o'qituvchi shaxsiyati, ustozlik tajribasi.

Keywords: Teacher skills, modern education, pedagogical competence, professional qualifications, educational technologies, methodological approach, innovative methods, pedagogical activity, teacher image, professional development, interactive methods, quality of education, student-teacher relationship, teacher personality, teaching experience.





Kirish: Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi yurt taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta'limning asosiy yetakchi kuchi bo'lgan o'qituvchining roli har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda o'qituvchidan nafaqat an'anaviy bilimlarni yetkazish, balki yosh avlodni erkin fikrlashga, zamonaviy dunyoqarashga, ijtimoiy faollikka yo'naltirish kabi ko'plab murakkab vazifalarni bajarish talab etiladi. Shu jihatdan qaralganda, o'qituvchining mahorati, kasbiy kompetensiyasi, metodik bilimlari va shaxsiy fazilatlarini ta'lim sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sanaladi. Hozirgi globallashuv davrida ta'lim jarayonida yuz berayotgan yangilanishlar, raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, axborot oqimining ortib borayotgani o'qituvchidan doimiy ravishda o'z ustida ishlashni, yangi bilim va ko'nikmalarni egallab borishni taqozo qilmoqda. Har bir o'qituvchi o'zining kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallashi zarur. Bu esa nafaqat individual o'sish, balki ta'lim sifati oshirishda, yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ta'limda yuzaga kelayotgan muammolar, o'quvchilar bilan ishlashda samarali yondashuvlar, dars jarayonining qiziqarli va interfaol bo'lishi ham o'qituvchi mahoratiga bevosita bog'liq. Ana shu omillarni inobatga olgan holda, mazkur maqolada hozirgi davrda o'qituvchi mahoratini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga oid masalalar keng yoritib beriladi. Maqola orqali pedagogik mahoratning nazariy asoslari, amaliy tajribalari hamda ularni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi.

Asosiy qism: Zamonaviy ta'lim tizimi o'zgarishlarni, yangiliklarni, o'zgaruvchan talab va ehtiyojlarni talab etadi. Buning natijasida o'qituvchidan faqatgina bilim berish emas, balki murakkab pedagogik vazifalarni hal etish ham talab qilinmoqda. O'qituvchi mahorati faqat bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish bilan cheklanmaydi. O'qituvchining kasbiy yuksalishi, malakasini oshirish, yangi pedagogik usullarni o'zlashtirish va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish uning mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

1. **Pedagogik kompetensiya va uning ahamiyati:** Pedagogik kompetensiya — bu o'qituvchining ta'lim jarayonida faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar yig'indisi. Zamonaviy pedagogika faqatgina o'zgaruvchan ta'lim texnologiyalariga moslashishni emas, balki o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishni ham talab etadi. Har bir o'qituvchi o'zining kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda rivojlantirib borishi



kerak. Bu esa o'qituvchining pedagogik jarayonda qanday qilib samarali ishlashini, talabalarga qanday yondashuvni tanlashni belgilaydi. Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish nafaqat bilimlarni yangilash, balki o'qituvchining psixologik, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi.

2. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlar: Bugungi ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va roli ortib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim jarayoniga yangi metodlar, raqamli texnologiyalar va interfaol usullarni joriy etishi zarur. Darsni interfaol va qiziqarli qilish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, yangi pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash o'qituvchidan yuqori mahoratni talab qiladi. Kompyuter texnologiyalari, elektron darsliklar, onlayn platformalar va multimedia resurslaridan foydalanish dars jarayonini samarali va interaktiv qilishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qituvchidan faqat texnik ko'nikmalarni emas, balki innovatsion fikrlashni ham talab etadi.

3. O'quvchi bilan samarali muloqot: O'qituvchining mahoratiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri bu uning o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyatidir. O'qituvchi o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishda hamda ularning ruhiy holatini tushunishda katta malakaga ega bo'lishi kerak. Har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ularning shaxsiy ehtiyojlarini tushunish va ularni rag'batlantirish muhimdir. Pedagogik mahorat nafaqat bilimlarni yetkazish, balki o'quvchilarning shaxsiy taraqqiyotini qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonda o'qituvchi ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarga ega bo'lishi, muloqotda ochiq va samimiy bo'lishi zarur.

4. O'qituvchining shaxsiy fazilatlari: O'qituvchi mahoratining asosiy tarkibiy qismi uning shaxsiy fazilatlaridir. Pedagogning shaxsiy sifati, uni o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishi, o'zaro hurmat va ishonchni o'rnatishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi hamisha o'zini o'rganishga, o'z xatolaridan saboq olishga, doimiy ravishda o'z ustida ishlashga intilish lozim. U o'quvchilarga nafaqat bilim, balki hayotiy tajriba va axloqiy qoidalarni ham o'rgatishi kerak. O'qituvchining o'ziga bo'lgan ishonchi, ijobiy munosabati va ko'rsatayotgan namunali xatti-harakatlari talabalarga ta'sir ko'rsatib, ular uchun ilhom manbai bo'lishi mumkin.

5. Pedagogik rivojlanishning doimiyligi: O'qituvchining mahoratini oshirishning asosiy tamoyili — bu uning doimiy rivojlanishi va malakasini oshirishdir. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi faqatgina universitetni bitirib, diplom olish bilan kasbiy



faoliyatini to'xtatgan deb hisoblanmasligi kerak. Kasbiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari: ta'lim sohasidagi yangiliklarni kuzatish, yangi metod va texnologiyalarni o'rganish, o'qituvchilikning zamonaviy talablari haqida bilimlarni yangilashdir. Pedagogik malakani oshirish uchun turli treninglar, seminarlarga qatnashish, ilmiy izlanishlar olib borish va soha mutaxassislari bilan tajriba almashish zarur.

6. O'qituvchining malakasini oshirishning ahamiyati: Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining malakasini oshirishni tashkil etish, uning bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'qituvchi malakasini oshirishning samarali usullaridan biri – bu uzluksiz o'zini rivojlantirish va ta'lim tizimining yangi talablariga moslashishdir. Bundan tashqari, o'qituvchining malakasini oshirishda pedagogik tashkilotlar, ilmiy va amaliy seminarlar, online kurslar va metodik yordamlardan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi zamon pedagoglariga qo'yiladigan talablar

Zamonaviy ta'lim tizimi global o'zgarishlar, texnologiyalarning rivojlanishi va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq. Shu sababli, hozirgi pedagoglarga qo'yiladigan talablar ham keskin o'zgargan. Pedagoglarning o'z ustida ishlashlari, zamonaviy ta'lim metodlari va texnologiyalarini bilishlari, shuningdek, pedagogik faoliyatda o'zgarishlarga tez moslashish qobiliyati bugungi kunda muhim talablardandir. Kasbiy malaka va kompetensiya: Hozirgi pedagoglar nafaqat an'anaviy bilimlarni yetkazish, balki zamonaviy metodlarni qo'llash, bilimlarni turli interfaol usullar orqali taqdim etish, shuningdek, texnologiyalarni samarali ishlatish uchun kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishlari kerak. Bu, o'z navbatida, o'qituvchidan kasbiy bilim va ko'nikmalarning doimiy yangilanib turishini talab etadi. Pedagogik kompetensiya nafaqat bilimlarni qabul qilish, balki ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, turli o'quv texnologiyalaridan foydalanish va innovatsion pedagogik usullarni qo'llashni ham o'z ichiga oladi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish; Hozirgi pedagoglardan talab qilinayotgan eng muhim ko'nikmalardan biri – bu yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va integratsiya qilishdir. Internet, raqamli vositalar, elektron ta'lim platformalari, onlayn kurslar va boshqa interaktiv vositalardan foydalanish o'qituvchilardan doimiy ravishda o'zini rivojlantirishni talab qiladi. O'qituvchining texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyati, o'quvchilarga o'rgatish jarayonini soddalashtirish, ularning qiziqishini oshirishda va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.



Shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalar: Zamonaviy o'qituvchi shaxsiy sifatlar va ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishi kerak. O'quvchilar bilan ijobiy, samarali muloqot o'rnatish, ularning ehtiyojlarini tushunish va yordamlashish, shuningdek, o'quvchilarni jamiyatga integratsiyalashuvida ko'maklashish muhimdir. Pedagog o'zining hissiy intellekti va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o'quvchilarga nafaqat bilim, balki hayotiy ko'nikmalarni ham o'rgatishi zarur.

Pedagogik va psixologik bilimlar: Zamonaviy pedagog faqat darsning metodik jihatlari bilan cheklanmasdan, balki o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, ularning ruhiy holatini tushunish, unga moslashish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi, o'z navbatida, psixologik yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning ichki dunyosiga kirish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday psixologik bilimlar o'qituvchiga o'quvchilarning o'zgaruvchan xulq-atvoriga tezda javob berish imkoniyatini yaratadi.

Yosh avlodga tarbiyaviy yondashuv: O'qituvchilar o'z faoliyatida nafaqat ilmiy, balki tarbiyaviy maqsadlarni ham amalga oshirishlari kerak. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z fikrlarini bildirishga, jamiyatda faol bo'lishga o'rgatish bugungi pedagogning muhim vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, pedagog yosh avlodni milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar asosida tarbiyalashga e'tibor qaratishi lozim. Pedagog nafaqat ilm-fan bilan tanishtiradi, balki ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni ham o'rgatadi.

Pedagogik etika va mas'uliyat: Zamonaviy o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyatida yuqori etika va mas'uliyatni ko'rsatishi kerak. O'qituvchi o'zining barcha xatti-harakatlari bilan o'quvchilarga namuna bo'lishi, o'quvchilarga ishonchni oshirishi, ularni motivatsiya qilishi kerak. O'qituvchining mas'uliyatli, halol va adolatli bo'lishi, jamiyatda o'zining ijobiy imijini yaratishi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Doimiy malaka oshirish va o'zini rivojlantirish: Zamonaviy o'qituvchidan talab qilinadigan yana bir muhim jihat – bu doimiy ravishda malakasini oshirish va yangi bilimlarni egallashga intilishdir. Ta'lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar, o'zgaruvchan texnologiyalar va metodologiyalar o'qituvchidan o'zgarishlarga tezda moslashishni talab qiladi. O'qituvchi yangi pedagogik ilmiy ishlanmalar, metodik ko'nikmalar va o'zini rivojlantirishga doimiy ravishda intilish orqali o'z kasbiy malakasini oshirishi zarur. Shu tarzda, hozirgi zamon pedagoglariga qo'yiladigan talablar o'qituvchidan yuqori kasbiy malaka, yangiliklarga moslashish qobiliyati, ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalarni rivojlantirishni talab qiladi. Bu talablar, albatta, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va o'quvchilarning sifatli ta'lim olishlariga imkon yaratadi.



Xulosa: Hozirgi davrda o'qituvchi mahorati ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy pedagogdan nafaqat bilimlarni yetkazish, balki o'quvchilarni o'ziga xos pedagogik yondashuvlar asosida tarbiyalash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash, psixologik ko'nikmalarni rivojlantirish talab qilinadi. O'qituvchilar uchun kasbiy kompetensiya, pedagogik va psixologik bilimlar, shaxsiy fazilatlar, innovatsion pedagogik usullarni qo'llash va malaka oshirish muhim omillar sifatida qaraladi. Bugungi kunda pedagogning malakasi, uning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalari ta'limning sifatini belgilaydi. Shuningdek, o'qituvchilar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlariga mos ravishda o'z faoliyatini doimiy ravishda yangilab borishlari zarur. Ularning pedagogik etika va mas'uliyatli yondashuvi, shuningdek, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyati ta'lim jarayonini yanada samarali va sifatli qilishda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, pedagogik mahoratning doimiy rivojlanishi, o'qituvchining o'z ustida ishlashi va zamonaviy ta'lim tizimining talablariga moslashishi ta'limning sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali biz ta'lim tizimining yanada rivojlanishi va o'quvchilarning barkamol shaxslar sifatida kamol topishiga xizmat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shonov, A. (2020). Pedagogika asoslari – Toshkent: O'qituvchi.
2. Zaynalov, R. (2019). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodikasi – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim vazirligi (2021). Ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy usullari – Toshkent: Ta'lim va ilm-fan.
4. Pirova, D. (2018). Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot – Toshkent: Akademiya.
5. Kuchkarov, S. (2022). Pedagogik kompetensiya va uning ta'limdagi roli – Tashkent: Ilm-fan.
6. Xusanova, L. (2020). O'qituvchi mahorati: nazariy va amaliy jihatlar – Toshkent: Yangi avlod.
7. Qosimova, T. (2021). Pedagogik psixologiya va zamonaviy yondashuvlar – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
8. Akhmedov, N. (2023). Pedagogik metodlar va ularni qo'llashning amaliy jihatlari – Toshkent: Ta'lim nashriyoti.





Sigirquyruqdoshlar(Plantaginaceae) oilasi tavsifi va sistematikasi. Tarqalishi va ahamiyati.

**Andijon davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi
202-guruh talabasi Xasanboyeva Gulshanoy Boburjon qizi.**

Ilmiy rahbar: Tojiboyev Murodali

Annotatsiya: Mazkur maqolada sigirquyruqdoshlar oilasiga umumiy tavsif, sistematik o'rni va kategoriyalari haqida malumotlar yoritilgan. Ushbu oilaning anatomik, morfologik tuzilishi va botanik tavsiflari va tariflari keltirilgan. Tabiatda tarqalishi va ekologik ahamiyati haqida umumiy malumotlar yoritilgan. Sigirquyruqdoshlar oilasi (Plantaginaceae) dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, asosan mo'tadil mintaqalarda, tropik va subtropik hududlarda uchraydi.

Abstract: This article provides information on the general description, systematic position and categories of the Plantaginaceae family. The anatomical, morphological structure and botanical descriptions and taxonomy of this family are presented. General information on the distribution in nature and ecological significance is provided. The Plantaginaceae family (Plantaginaceae) is widespread throughout the world, mainly found in temperate regions, tropical and subtropical regions.

Kalit so'zlar: Plantaginaceae, tropic va subtropic, plantago, biosfera, kapsula, kosmopolit, rizoma, ovate leaf, flora, digitalis, Veronica, Linaria (Qayinquloq) .

Key words: Plantaginaceae, tropic and subtropic, plantago, biosphere, capsule, cosmopolitan, rhizome, ovate leaf, flora, digitalis, Veronica, Linaria (Birch).

Kirish: Tabiatdagi o'simliklar xilma-xilligi ichida Sigirquyruqdoshlar (Plantaginaceae) oilasi o'zining keng tarqalganligi va biologik ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu oila gullaydigan ikki urug'pallali o'simliklar guruhiga kirib, dorivor, dekorativ va ekologik ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab turlarni o'z ichiga oladi. Sigirquyruqdoshlar oilasi avval cheklangan jinslar doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, zamonaviy molekulyar tadqiqotlar natijasida u Labguldoshlar (Lamiales) tartibiga kiritildi. Hozirgi vaqtda bu oilaga 90 ga yaqin jins va 1900 dan ortiq tur mansub bo'lib, ular mo'tadil, subtropik va tropik mintaqalarda keng tarqalgan. Ushbu oilaning vakillari o'simlik tibbiyoti, qishloq xo'jaligi va farmatsevtika sohalarida katta ahamiyatga ega.





Masalan, *Plantago major* (katta sigirquyruq) xalq tabobatida yallig‘lanishga qarshi vosita sifatida ishlatilsa, *Digitalis purpurea* (binafsha qo‘ng‘iroqtovoq) yurak kasalliklari uchun muhim bo‘lgan digoksin moddasi manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, ba‘zi turlar yem-xashak o‘simligi, dekorativ gullar yoki tuproq eroziyasiga qarshi vosita sifatida ham qo‘llaniladi. Ushbu maqolada sigirquyruqdoshlar oilasining morfologik va anatomic xususiyatlari, ekologik tarqalishi, asosiy vakillari va ahamiyati haqida batafsil ma‘lumot beriladi.

Sigirquyruqdoshlar oilasiga mansub o‘simliklarning tashqi tuzilishi ularning ekologik moslashuvchanligiga bog‘liq bo‘lib, quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Ildiz tizimi: Asosan tolali yoki chuqur kiruvchi tik ildiz tizimiga ega. Ayrim turlarda ildiz bo‘g‘imlaridan qo‘shimcha ildizlar rivojlanadi.
2. Poya: Tik yoki yotuvchi, ba‘zan juda kalta bo‘lishi mumkin. Ayrim turlari poyasiz bo‘lib, barglari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yer ustida rozet shaklida joylashadi (*Plantago major*). Odatda o‘tkir qirrali yoki dumaloq shaklda, ba‘zan tuk bilan qoplangan.
3. Barglar: Oddiy, butun yoki patsimon bo‘lingan shaklda bo‘ladi. Ko‘pincha rozet shaklida joylashgan. Barglarning yuzasi yaltiragan yoki tukli, tomirlanishi yoyiluvchi yoki parallel bo‘lishi mumkin.
4. Gullari: Mayda, ikki jinsli, ba‘zan yirik, oddiy yoki murakkab to‘pgul hosil qiladi. Changlanish asosan shamol yoki hasharotlar yordamida sodir bo‘ladi. Gulkosachasi to‘rtta yoki beshta bo‘lakdan iborat. Changchisi 4 ta bo‘lib, uzun ipchalar yordamida guldan chiqib turadi.
5. Mevasi: Ko‘pincha quti shaklida bo‘lib, ichida bir yoki bir nechta urug‘ bo‘ladi. Ayrim turlari rezavor yoki yong‘oqsimon mevalarga ega. Urug‘lari mayda, ko‘pincha yopishqoq qoplam bilan qoplangan bo‘lib, hayvonlar yoki shamol yordamida tarqaladi.

Asosiy qism: Sigirquyruqdoshlar oilasi ikkilamchi urug‘pallalilar (*Dicotyledonae*) sinfiga mansub bo‘lib, ilgari mustaqil oila sifatida qaralgan. Biroq zamonaviy molekulyar tadqiqotlar natijasida u Labguldoshlar (*Lamiales*) tartibiga kiritildi.

- Domen: Eukaryota – Yadroli hujayrali organizmlar

- Sho‘ba domen: Archaeplastida – Fotosintez qiluvchi organizmlar guruhi



- Bo‘lim: Magnoliophyta (Gullililar) – Gullaydigan o‘simliklar
- Sinf: Magnoliopsida (Ikkilamchi urug‘pallalilar)
- Tartib: Lamiales (Labguldoshlar)
- Oila: Plantaginaceae (Sigirquyruqdoshlar). Asosiy vakillari: Plantago (Sigirquyruq) – Plantago major, Plantago lanceolata, Digitalis (Qo‘ng‘iroqtovoq) – Digitalis purpurea, Digitalis lanata, Veronica (Qashqaldoq) – Veronica officinalis, Veronica chamaedrys, mAntirrhinum (Arslantumshuq) – Antirrhinum majus, Linaria (Qayinquloq) – Linaria vulgaris.

Oilaning evolyutsion o‘rni va o‘zgarishlari: Ilgari Plantaginaceae oilasi faqat sigirquyruq (Plantago) turkumiga yaqin turlarni o‘z ichiga olgan deb hisoblangan. Keyinchalik genetik tadqiqotlar natijasida Antirrhinaceae va Scrophulariaceae oilalarining ayrim vakillari ham Plantaginaceae tarkibiga kiritildi. Bu oila Labguldoshlar tartibi bilan filogenetik jihatdan yaqin aloqada. Sigirquyruqdoshlar oilasi botanik jihatdan juda xilma-xil bo‘lib, turli iqlim sharoitlariga moslashgan va ko‘plab dorivor hamda dekorativ turlarga ega.

Sigirquyruqdoshlar oilasining tabiatdagi tarqalishi . Sigirquyruqdoshlar oilasiga mansub o‘simliklar dunyo bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib, turli ekotizimlarda uchraydi. Ularning ekologik moslashuvchanligi ularni mo‘tadil, tropik, subtropik va qurg‘oqchil hududlarda yashashiga imkon beradi. Geografik tarqalishi. Shimoliy yarimshar – Eng ko‘p turlar Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada uchraydi, Janubiy yarimshar – Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrika hududlarida ham ayrim vakillar mavjud, Orollar – Ba’zi turlari izolyatsiyalangan orol ekotizimlariga moslashgan.

Ekologik moslashuvchanligi bo‘yicha tarqalishi. Sigirquyruqdoshlar oilasi turli ekotizimlarga moslashgan: masalan:

- ✓ Mo‘tadil iqlim hududlari: Plantago major, Plantago lanceolata kabi turlar yo‘l chetlari, o‘tloqlar va dalalarda o‘sadi. Nam va serhosil tuproqlarga moslashgan.
- ✓ Tropik va subtropik mintaqalar: Veronica va Digitalis turkumlariga mansub o‘simliklar o‘rmonlarda, tog‘ etaklarida o‘sadi. Nam va iliq sharoitga moslashgan.





- ✓ Cho'l va qurg'oqchil hududlar: *Plantago ovata* (Indocho'l sigirqyuruq turi) kabi turlar qurg'oqchil hududlarda uchraydi. Suvni tejash va mustahkam ildiz tizimiga ega.
- ✓ Alp va tog'li hududlari. *Plantago alpina* kabi turlar sovuqqa bardoshli bo'lib, tog'larning yuqori qismlarida o'sadi.
- ✓ Antropogen landshaftlar: Ko'pchilik sigirqyuruq turlari (masalan, *Plantago major*) yo'l bo'ylari, shaharlardagi ochiq joylar va ekin dalalarida uchraydi.

Xulosa: Sigirqyuruqdoshlar oilasi morfologik va ekologik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ushbu oila avval mustaqil guruh sifatida qaralgan bo'lsa-da, zamonaviy tadqiqotlar uni Labguldoshlar (*Lamiales*) tartibiga kiritdi. Ushbu oila vakillari *Plantago*, *Digitalis*, *Veronica*, *Antirrhinum* va *Linaria* kabi yirik jinslarni o'z ichiga oladi. Ularning aksariyati dorivor, yem-xashak, dekorativ va ekologik jihatdan muhim hisoblanadi. Tarqalish jihatidan sigirqyuruqdoshlar mo'tadil, tropik, subtropik va qurg'oqchil hududlarga moslashgan. Ular shamol, hayvonlar va inson faoliyati yordamida tez tarqalib, yo'l bo'ylari, ekin maydonlari, tog'-o'tloqlari va cho'l hududlarida uchraydi. Umuman olganda, sigirqyuruqdoshlar oilasi nafaqat tabiiy ekotizimlarda, balki inson hayotida ham katta ahamiyatga ega bo'lib, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikda keng qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. У.ИРАТОВ, К.ЖУМАЕВ. Тошкент - 2003 (www.ziyouz.com kutubxonasi)
2. "Botanika. Yuksak o'simliklar sistematikasi" – Muallif: Sh.J. Tojiboev.

Research Science and
Innovation House





Viruслarning tasnifi, morfologiyasi va tasnifi

Alfraganust universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
Tibbiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Ziyodullayeva Iroda Baxriddinovnaning yozgan maqolasi

Gmail: irodaziyodullayeva67@gmail.com Teli: +99897 374 25 05

Annotatsiya

Mazkur maqolada viruslarning biologik xususiyatlari, ularning morfologik tuzilishi, genetik material, replikasiya usullari hamda zamonaviy viruslar tasnifi bo'yicha asosiy yondashuvlar tahlil qilingan. Viruslar tirik organizmlar va noorganik zarrachalar o'rtasidagi oraliq holatga ega bo'lib, faqat tirik hujayralar ichida ko'payish xususiyatiga ega. Maqolada morfologik jihatdan viruslar simmetriya turlariga (helikal, ikosaedral, kompleks) ko'ra guruhlanishi va ularning kapsid tuzilmalari, nuklein kislotasi turi (DNK yoki RNK), va qobiq mavjudligiga qarab farqlanishi batafsil yoritilgan. Shuningdek, viruslarning xalqaro ilmiy klassifikatsiyasi – ICTV (International Committee on Taxonomy of Viruses) tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida oilalar, urug'lar va turlar darajasida tasniflanishi keltirilgan. Ushbu maqola virologiya sohasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar hamda biologiya yo'nalishidagi talabalar uchun ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: viruslar, morfologiya, tasnif, ICTV, kapsid, DNK, RNK, helikal simmetriya, icosaedral tuzilma, virusologiya.

Abstract

This article analyzes the biological characteristics of viruses, their morphological structures, genetic material, methods of replication, and modern approaches to virus classification. Viruses are entities that occupy an intermediate position between living organisms and non-living particles, capable of replication only within living host cells. The article provides a detailed description of the morphological classification of viruses based on types of symmetry (helical, icosahedral, complex), the structure of the capsid, the type of nucleic acid (DNA or RNA), and the presence or absence of an envelope. Furthermore, it presents the international taxonomy system of viruses established by the ICTV (International Committee on Taxonomy of Viruses), organizing them into





families, genera, and species. This paper serves as a scientific resource for virology specialists and students in the field of biology.

Keywords: viruses, morphology, classification, ICTV, capsid, DNA, RNA, helical symmetry, icosahedral structure, virology.

Аннотация

В данной статье рассматриваются биологические особенности вирусов, их морфологическое строение, генетический материал, механизмы репликации, а также современные подходы к классификации вирусов. Вирусы занимают промежуточное положение между живыми организмами и неживыми частицами и способны размножаться только внутри живых клеток. В статье подробно описана морфологическая классификация вирусов по типам симметрии (спиральная, икосаэдрическая, комплексная), структуре капсида, типу нуклеиновой кислоты (ДНК или РНК), а также наличию или отсутствию оболочки. Также освещена международная система классификации вирусов, разработанная ICTV (Международным комитетом по таксономии вирусов), которая делит вирусы на семейства, роды и виды. Работа предназначена для специалистов в области вирусологии и студентов биологических направлений.

Ключевые слова: вирусы, морфология, классификация, ICTV, капсид, ДНК, РНК, спиральная симметрия, икосаэдрическая структура, вирусология.

Kirish

Viruslar biologiyaning eng muhim va ayni paytda eng murakkab o'rganiladigan obyektlaridan biri hisoblanadi. Ular o'zining hayotiy faoliyatini faqat tirik hujayra ichida amalga oshiradigan, hujayrasiz, molekulyar darajadagi infeksiyon zarrachalardir. Viruslar bakteriyalar, hayvonlar, o'simliklar, zamburug'lar va hatto boshqa viruslarga ham hujum qila oladi, bu esa ularning ekologik va tibbiy ahamiyatini keskin oshiradi. Ilk bor viruslar XIX asr oxirlarida aniqlangan bo'lib, ularning mavjudligi filtdan o'tmaydigan infeksiyon agent sifatida tasvirlangan. Bugungi kunda viruslar genetik jihatdan turlicha bo'lib, DNK yoki RNK asosida tuzilgan genomga ega, bir yoki ikki ipli bo'lishi, hamda segmentlangan yoki uzluksiz shaklda bo'lishi mumkin. Viruslarning morfologik tuzilishi ularning tashqi ko'rinishi, kapsid simmetriyasi va lipidli qobiq mavjudligiga qarab ajratiladi. Mazkur morfologik farqlar viruslarning biologik xususiyatlari, immun javobni chaqirish darajasi va tashqi muhitga nisbatan barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy virusologiyada xalqaro tasniflash



tizimlari, xususan, ICTV tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida viruslar aniq ilmiy struktura bo'yicha guruhlanadi. Ushbu maqola viruslarning tasnifi, morfologik xususiyatlari va ilmiy tasniflash prinsiplariga bag'ishlangan bo'lib, virologiya sohasi bo'yicha chuqur ilmiy bilimga ega bo'lish istagidagi talabalar va tadqiqotchilar uchun muhim manba hisoblanadi.

Asosiy qism

Viruslarning umumiy tavsifi.

Viruslar — bu oddiy tuzilishga ega, hujayrasiz infeksiyon zarrachalar bo'lib, faqat tirik hujayra ichida ko'payish xususiyatiga ega. Ular metabolik jarayonlarni mustaqil ravishda amalga oshirolmaydi va replikatsiya uchun mezbon organizmning fermentlaridan foydalanadi. Viruslar barcha hayotiy guruhlariga: hayvonlarga (zooviruslar), o'simliklarga (fitoviruslar), bakteriyalarga (bakteriofaglar) va hatto zamburug'larga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Morfologiyasi

Viruslarning morfologiyasi ularning tashqi tuzilishiga, simmetriyasiga va komponentlariga asoslanadi. Virus zarrachasi (virion) odatda quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

Nuklein kislota – virus genomining asosini tashkil qiladi, bu DNK yoki RNK bo'lishi mumkin. Viruslar bitta ipli yoki ikki ipli, segmentlangan yoki segmentlanmagan genomga ega bo'ladi.

Kapsid – oqsildan tashkil topgan himoya qobiq bo'lib, nuklein kislotani o'rab turadi. Kapsidni tashkil etuvchi struktura birliklari kapsomerlar deb ataladi.

Superkapsid (envelop) – ba'zi viruslarda mavjud bo'lib, lipidlar, oqsillar va glikoproteinlardan tashkil topgan tashqi qobiqdir. U virusning hujayraga kirish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Morfologik jihatdan viruslar quyidagi asosiy simmetriya turlariga bo'linadi:

Helikal (spiral) simmetriya: Genetik material kapsomerlar bilan spiral shaklida o'ralgan (masalan, tamaki mozaika virusi).

Ikosaedral simmetriya: Kapsid 20 ta uchburchak yuzadan iborat bo'lib, so'zsiz sferik shaklni hosil qiladi (masalan, adenoviruslar).

Kompleks tuzilma: Har xil morfologik elementlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab tuzilishli viruslar (masalan, bakteriofaglar).

Genetik materialiga ko'ra tasnifi

Viruslar genetik materialining turi va shakliga qarab ikki asosiy guruhga bo'linadi:



DNK viruslari – bu guruhga adenoviruslar, herpesviruslar, poxviruslar kiradi.

RNK viruslari – bu guruhga togaviruslar, pikornaviruslar, ortomiksoviruslar kiradi.

Har bir guruhda bitta yoki ikkita ipli, pozitiv yoki negativ ipli RNK/DNK bo‘lishi mumkin. Viruslarning xalqaro tasnifi (ICTV). Viruslarni tizimli ravishda tasniflash uchun ICTV (International Committee on Taxonomy of Viruses) tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiya tizimi qo‘llaniladi. Bu tasnif asosida viruslar quyidagi kategoriyalarga bo‘linadi:

Roya (realm)

Bo‘lim (phylum)

Sinf (class)

Tartib (order)

Oila (family)

Urug‘ (genus)

Tur (species)

Tasniflashda quyidagi mezonlar asos qilib olinadi:

Nuklein kislotaning turi

Virion simmetriyasi

Lipid qobiq mavjudligi

Replikatsiya usuli. Xost (mezbon) organizm diapazoni. Masalan, SARS-CoV-2 virusi ICTV tasnifiga ko‘ra: Realm: Riboviria; Order: Nidovirales; Family: Coronaviridae; Genus: Betacoronavirus; Species: Severe acute respiratory syndrome-related coronavirus.

Empirik tahlil

Viruslarni chuqur ilmiy o‘rganish jarayonida zamonaviy molekulyar biologiya, elektron mikroskopiya, genetik muhandislik va bioinformatika metodlaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu bo‘limda viruslarning morfologiyasi, genom strukturalari va replikatsiya mexanizmlarini empirik jihatdan aniqlashda qo‘llanilgan ba’zi tadqiqotlar natijalari tahlil qilinadi. Elektron mikroskopik kuzatuvlar. Elektron mikroskop yordamida virus zarrachalarining morfologiyasi batafsil tahlil qilingan. Masalan, adenoviruslar icosahedral simmetriyaga ega bo‘lib, diametri o‘rtacha 90 nm ni tashkil qiladi va DNK genomiga ega. Gripp viruslari esa spiral simmetriyaga ega, qobiq bilan qoplangan, RNK asosli viruslar bo‘lib, o‘rtacha 80–120 nm o‘lchamda bo‘ladi. Genom tahlillari. Viruslarning genetik materiali hozirgi kunda keng qamrovli sekvenirlash



texnologiyalari (masalan, Next-Generation Sequencing — NGS) orqali aniqlanmoqda. Masalan, SARS-CoV-2 virusining RNK genomi ilk bor 2020-yilda to‘liq sekvensatsiya qilinib, taxminan 29,903 nukleotid uzunligiga ega ekani, 14 ta ochiq o‘qish ramkasi (ORF) mavjudligi aniqlangan. Ushbu ma‘lumot virusning replikatsiya, oqsil sintezi va patogenlik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Replikatsiya usullarining tajriba asosida o‘rganilishi. Turli tajribalar orqali DNK va RNK viruslarining replikatsiya jarayoni farqli ekanligi aniqlangan. Masalan, DNK viruslari mezbon hujayraning yadrosida ko‘payadi, RNK viruslari esa sitoplazmada. Herpes simplex virus (HSV) ustida o‘tkazilgan tajribalarda virus yadrogacha yetib borib, o‘z genomini yadroga yuborishi va mezbon hujayra DNK polimerazasidan foydalanib ko‘payishi tasdiqlangan. Aksincha, Poliovirus kabi RNK viruslar hujayra sitoplazmasida o‘z RNK-sintetaza fermentlarini mustaqil tarzda sintez qilib, RNKni ko‘paytiradi. Virofaglar va yangi virus shakllari. Yangi empirik tahlillar orqali ilgari noma‘lum bo‘lgan murakkab tuzilmali viruslar — virofaglar (boshqa viruslarga infeksiya qiluvchi viruslar) aniqlangan. Masalan, Sputnik virofagi *Acanthamoeba polyphaga* mimivirus virusiga infeksiya qilishi orqali virus-virus interaksiyalarining yangi shakllari aniqlanmoqda. Bu esa virusologiyaning empirik asoslarini kengaytirmoqda. Virusga qarshi dori sinovlari. Viruslarga qarshi preparatlarning samaradorligi eksperimental tizimlarda o‘rganilib, viruslarning turli replikatsiya bosqichlariga ta’sir ko‘rsatuvchi molekulalar (masalan, Remdesivir, Favipiravir) ustida tahlillar olib borilgan. Ularning in vitro sharoitda SARS-CoV-2 virusining RNK polimerazasini inhibitsiya qilishi laboratoriya sharoitida tasdiqlangan. Xulosa sifatida, viruslar ustida olib borilayotgan empirik tadqiqotlar ularning struktura, genetik va biologik xususiyatlarini chuqur tushunish imkonini bermoqda. Bunday tahlillar nafaqat ilmiy asosda viruslarni tasniflashga yordam beradi, balki yangi antiviral strategiyalar ishlab chiqishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Viruslar zamonaviy biologiya va tibbiyot fanining eng dolzarb va chuqur o‘rganilayotgan obyektlaridan biri bo‘lib, ularning morfologik tuzilishi, genetik xususiyatlari va hayotiy siklini to‘liq anglash infeksiyon kasalliklarni aniqlash, oldini olish va davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, viruslar turli simmetriya shakllari, kapsid tuzilmalari, genetik material turlari va replikatsiya uslublari bilan ajralib turadi. Xalqaro virusologik tasniflash tizimi — ICTV tomonidan ishlab chiqilgan standartlar asosida viruslarning



sinf, oila, urug' va tur darajasida ajratilishi ularni chuqur o'rganishga, ilmiy izlanishlarni tizimli olib borishga va yangi virus turlarini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, elektron mikroskopiya, genetik sekvenirlash va bioinformatika kabi zamonaviy empirik uslublar viruslarning tuzilmasini aniqlashda keng imkoniyat yaratmoqda. Mazkur maqolada viruslarning tasnifi va morfologiyasi bilan bog'liq nazariy va amaliy bilimlar bir butun holda yoritilgan bo'lib, virologiya sohasida ilmiy faoliyat olib borayotgan mutaxassislar hamda biologiya yo'nalishidagi talabalarga ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Viruslar haqidagi ilmiy bilimlarni chuqurlashtirish esa global sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan virusli pandemiyalar va epidemiyalar bilan samarali kurashishda muhim ilmiy asos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Flint, S. J., Enquist, L. W., Racaniello, V. R., & Skalka, A. M. (2015). Principles of Virology (4th ed.). ASM Press.
2. Knipe, D. M., & Howley, P. M. (Eds.). (2013). Fields Virology (6th ed.). Lippincott Williams & Wilkins.
3. International Committee on Taxonomy of Viruses (ICTV). (2023). Virus Taxonomy: 2023 Release. Retrieved from <https://ictv.global>
4. Madigan, M. T., Bender, K. S., Buckley, D. H., Sattley, W. M., & Stahl, D. A. (2021). Brock Biology of Microorganisms (16th ed.). Pearson.
5. Nester, E. W., Anderson, D. G., Roberts, C. E., Pearsall, N. N., & Nester, M. T. (2020). Microbiology: A Human Perspective (10th ed.). McGraw-Hill Education.
6. Aiewsakun, P., & Simmonds, P. (2018). The evolutionary relationships of RNA viruses. *Nature Reviews Microbiology*, 16(4), 235–248. <https://doi.org/10.1038/nrmicro.2017.130>
7. Koonin, E. V., Dolja, V. V., & Krupovic, M. (2015). Origins and evolution of viruses of eukaryotes: The ultimate modularity. *Virology*, 479-480, 2–25. <https://doi.org/10.1016/j.virol.2015.02.039>
8. Baranov, P. V., Henderson, C. M., & Anderson, J. (2020). Viral genomics and bioinformatics. *Annual Review of Virology*, 7, 395–419.
9. Zuckerman, A. J., Banatvala, J. E., Pattison, J. R., Griffiths, P., & Schoub, B. D. (2009). Principles and Practice of Clinical Virology (6th ed.). Wiley-Blackwell.
10. Tortora, G. J., Funke, B. R., & Case, C. L. (2018). Microbiology: An Introduction (12th ed.). Pearson.



**Ekologik xavfsizlikka oid huquqiy munosabatlarni tartibga solishda
davlat-huquqiy mexanizmlarining roli va ahamiyati**

Mallayev Normamat Ramazonovich

dotsent, yuridik fanlari nomzodi

Murodova Elmira Muxiddin qizi

Termiz davlat universiteti Advokatlik faoliyati yo‘nalishi 1-bosqich tinglovchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ekologik xavfsizlik sohasida davlat tomonidan shakllanadigan huquqiy munosabatlar, ekologik xavflar va ularni boshqarishning huquqiy mexanizmlari tahlil etiladi. Maqolada davlat-huquqiy institutlarning ,xavfsizlikni ta'minlashdagi roli va ularning samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan huquqiy ta'sir vositalari o'rganiladi. Bundan tashqari, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro tajribadan olingan misollar asosida milliy tizimning kuchli va zaif jihatlari, shuningdek, muammolar va ularni hal qilish uchun takliflar keltiriladi. Xalqaro huquqiy tizimga nisbatan o'zgarishlar va takomillashtirish uchun istiqbollar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik xavfsizlik davlat-huquqiy mexanizmlar huquqiy munosabatlar ekologik qonunchilik ekologik nazorat xalqaro tajriba ekologik xavflar ekologik ekspertiza ekologik javobgarlik

Аннотация

В статье анализируется регулирование правовых отношений в сфере экологической безопасности через государственно-правовые механизмы. Особое внимание уделяется роли государственных и правовых институтов в обеспечении экологической стабильности, а также эффективному использованию правовых средств воздействия для достижения социальной результативности. Рассматриваются сильные и слабые стороны национальной системы, а также международный опыт в сфере экологии. В статье предлагаются решения и предложения по улучшению правового регулирования экологической безопасности.





Ключевые слова: Экологическая безопасность государственно-правовые механизмы правовые отношения экологическое законодательство экологический контроль международный опыт экологические риски экологическая экспертиза экологическая ответственность

Abstract

This article analyzes the regulation of legal relations in the field of environmental safety through state-legal mechanisms. The role of state and legal institutions in ensuring environmental stability is emphasized, along with the effective use of legal tools for achieving social outcomes. The article examines the strengths and weaknesses of the national system and compares it with international environmental law practices. Proposals and recommendations for improving legal regulation in the field of environmental safety are also presented.

Keywords: Environmental safety state-legal mechanisms legal relations environmental law environmental control international experience environmental risks environmental expertise environmental responsibility

Kirish

Insoniyatning texnologik yutuqlari bilan bir qatorda, atrof-muhitga tahdid soluvchi omillar ham ortib bormoqda. Bu holat ekologik xavfsizlikni milliy darajada ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda, va bu masala faqat texnologik yoki ekologik emas, balki ijtimoiy va huquqiy muammo sifatida ko'rib chiqilmoqda. Huquqiy munosabatlarning samaradorligini ta'minlash va davlatning mazkur jaraydagi roli ekologik xavfsizlikni barqaror qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli ekologik xavfsizlikni ta'minlash nafaqat ekologik yoki texnologik masala, balki muhim ijtimoiy-huquqiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ekologik xavfsizlikka oid huquqiy munosabatlarning samarali tartibga solinishi, ayniqsa, davlat tomonidan qo'llaniladigan mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Ekologik xavfsizlik bugungi kunda nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va huquqiy masala sifatida ham global miqyosda dolzarb muammolardan biridir. Atrof-muhitga bo'lgan tahdidlar, sanoat inqilobi, urbanizatsiya va global isish kabi omillarni inobatga olgan holda, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat mexanizmlari samarali ishlashini ta'minlash zarur. O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashda asosiy rol ni davlat-huquqiy mexanizmlar o'ynaydi. Shu bilan birga, ushbu





mexanizmlarning samarali ishlashi ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish, ularning oldini olish va atrof-muhitni himoya qilishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

1. Davlatning ekologik xavfsizlikdagi institutsional roli

O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni nazorat qilish va ta'minlash bo'yicha davlat organlari faoliyat Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlatning roli faqatgina qonun va tartiblarni ishlab chiqishda emas, balki ularga rioya qilishni ta'minlash, monitoring tizimlarini joriy etish va ekologik zararlarni kamaytirish uchun zaruriy choralarni ko'rishda ham katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashda asosiy vazifani bajaruvchi davlat organlari, shu jumladan, **Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi, Davlat ekologik inspeksiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi** va boshqa idoralar ekologik muammolarga qarshi kurashishda faol ishtirok etadi. Ularning asosiy vazifalari ekologik xavf-xatarlarni aniqlash, tahlil qilish va ularga qarshi samarali choralar ishlab chiqishdir.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi ekologik xavfsizlikka oid davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda asosiy tashkilotdir. U ekologik xavfsizlikni ta'minlashda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini nazorat qilishga mas'uldir. O'zbekistonning ekologik qonunchiligi asosida shu kabilar: "Ekologik xavfsizlik to'g'risida"gi qonun, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar mavjud bo'lib, bu hujjatlar ekologik xavflar va ta'sirlarni kamaytirishga qaratilgan.

Davlat ekologik inspeksiyasi esa ekologik nazoratni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu organ tomonidan chiqarilgan monitoring, ekologik audit va huquqiy xulosalar asosida ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishga ruxsat berish yoki taqiq qo'yish qarorlarini qabul qilish mumkin.

Shuningdek, **Favqulodda vaziyatlar vazirligi** tomonidan ekologik favqulodda holatlarda operativ choralar ko'riladi va tabiiy ofatlarning ekologik oqibatlarini minimallashtirishga qaratilgan maxsus rejalashtirish ishlari olib boriladi.

Ushbu organlar ekologik muammolarni aniqlash, xavflarni baholash, profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish funksiyalariga ega bo'lib, ular qonunbuzarliklarga qarshi qattiq choralar ko'radilar. Bu jarayonlar xalqaro tajribalarni madad sifatida qo'llash orqali davlatning ijtimoiy mas'uliyatini yanada oshirish imkonini yaratadi.



Davlat-huquqiy mexanizmlarining turlari va samaradorligi Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlatning normativ-huquqiy mexanizmlarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur mexanizmlar quyidagi turlarga bo'linadi:

Normativ-huquqiy mexanizmlar

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda eng asosiy vosita sifatida davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan asosiy hujjatlar quyidagilardir:

“Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun: Bu qonun atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan asosiy normativ-huquqiy hujjat bo'lib, u ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy prinsiplari va vositalarini belgilaydi.

“Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonun: Ushbu qonun har bir investitsiya loyihasining ekologik xavfsizligini baholashni ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

Ruxsat va kvotalar tizimi

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ekologik ta'sirni kamaytirish uchun chiqindilarni, chiqindilarni qayta ishlashni, resurslardan foydalanishni nazorat qilish maqsadida ruxsatnomalar va kvotalar tizimi joriy etilgan. Ushbu tizim orqali atrof-muhitga zarar yetkazishga yo'l qo'yilmaslikka harakat qilinadi.

Monitoring va audit

Davlat ekologik inspeksiyasi tomonidan ekologik monitoring va audit tizimlarini rivojlantirish ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Bu orqali ekologik xavflar va ifloslanish darajasi kuzatiladi va bu ma'lumotlar asosida zarur choralar ko'riladi.

Javobgarlik mexanizmlari

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda qonunbuzarliklar uchun jinoiy, fuqarolik va ma'muriy javobgarlik mexanizmlari mavjud. Ekologik huquq buzilishlari uchun ekologik javobgarlikni belgilash orqali ifloslanish darajasini pasaytirishga, atrof-muhitni saqlashga yordam beriladi. Ekologik zarar yetkazgan shaxslar uchun yirik jarimalar belgilangan va shu bilan birga jinoiy javobgarlikni ta'sis etish amaliyoti mavjud.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlatning asosiy institutsional funksiyalari quyidagilardan iborat:

- normativ-huquqiy baza yaratish va uni takomillashtirish;



- ruxsat berish va litsenziyalash tizimini yuritish;
- davlat ekologik ekspertizasini tashkil etish;
- ekologik audit va monitoringni olib borish;
- ekologik javobgarlikni joriy qilish va nazorat qilish.

2. Ekologik xavfsizlikni huquqiy yo'l bilan ta'minlash mexanizmlari

Ekologik xavfsizlikni tartibga solishda quyidagi huquqiy mexanizmlar qo'llaniladi:

- Normativ mexanizmlar: "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, "Ekologik audit to'g'risida"gi Qonun, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun kabi hujjatlar asosida faoliyat yuritiladi.

- Ekologik ekspertiza: har qanday loyihaviy faoliyat ekologik xavfsizlikka ta'siri bo'yicha baholanadi va ekspertizadan o'tkazilishi shart.

- Ruxsat va kvotalar: chiqindilar chiqarish, suv resurslaridan foydalanish, atmosferaga gazlar chiqarish bo'yicha maxsus kvotalar belgilanadi.

- Monitoring va audit: Ekologik inspeksiya tomonidan yillik asosda monitoringlar olib boriladi, natijalar ochiqlik va shaffoflik tamoyili asosida e'lon qilinadi.

- Javobgarlik: Jinoyat kodeksining 196-197-moddalarida atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Ekologik xavflarni aniqlash va oldini olish

Ekologik xavflarni aniqlash, profilaktika va javobgarlik

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda xavf-xatarlarni aniqlash va ularning oldini olish uchun zamonaviy monitoring tizimlaridan foydalanish zarur. **Eko-monitoring tizimi** orqali ifloslantiruvchi moddalar va sanoat chiqindilari onlayn tarzda nazorat qilinadi. Bu orqali ekologik xavf-xatarlarni tahlil qilish va oldini olish choralarini ko'rish mumkin.

Profilaktika choralariga e'tibor qaratish, nafaqat ekologik xavflarni kamaytirishga, balki ekologik muammolarning oldini olishga imkon yaratadi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda avvalgi yillarda yuzaga kelgan ekologik halokatlardan va ularning sabablarini tahlil qilish zarur. Xalqaro tajribalar asosida ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ilg'or texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilishda innovatsion usullarni qo'llash zarur

Ekologik xavflarning oldini olish maqsadida:

- har yili hududiy "ekologik xavf xaritalari" tuziladi;



- xavfli hududlar ro'yxati shakllantiriladi;
- favqulodda holatlarda harakatlanish algoritmlari ishlab chiqiladi.
Ma'muriy, fuqaroviy va jinoiy javobgarlik mexanizmlari orqali huquq buzilishlariga nisbatan keskin choralar ko'riladi. Jumladan, 2023 yilda ekologik qonunbuzarliklar uchun qo'llanilgan jarimalar miqdori 40 mlrd so'mdan oshgan.

Ekologik xavflarni oldini olish uchun hududiy darajada "ekologik xavf xaritalari"ni yaratish, xavfli hududlarning ro'yxatini tuzish va favqulodda holatlarda harakat qilish algoritmlarini ishlab chiqish kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Muammolar va takliflar

5.1. Muammolar

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat-huquqiy mexanizmlarining samaradorligi ba'zi muammolar bilan yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish ekologik xavfsizlikni yaxshilash va ekologik zararlardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy mexanizmlarning yetarlicha rivojlanmaganligi

O'zbekiston ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun qabul qilgan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar bir necha bor yangilangan bo'lsa-da, ular hali ham xalqaro standartlarga to'liq javob bermaydi. Bunda qonunlarning ijro etilishida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, ayniqsa amaliyotda yangi ekologik xavf-xatarlarni oldini olishning sustligi asosiy muammo bo'ladi. Shuningdek, ekologik xavfsizlikka oid normativ-huquqiy hujjatlar orasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarni to'liq yoritadigan huquqiy me'yorlarning yetishmasligi muammolarga sabab bo'lmoqda.

Ekologik monitoring tizimining samaradorligi pastligi

Davlat ekologik inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladigan monitoring tizimi ba'zan to'liq va samarali ishlamayapti. Monitoring tizimining ahamiyati, albatta, kattadir, chunki u ekologik xavf-xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va ularga qarshi choralar ko'rishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Lekin hozirda ba'zi hududlarda ekologik monitoringning samaradorligi past, va barcha ifloslanishlarni aniqlashda qiyinchiliklar mavjud.

Resurslar va mutaxassislarning yetishmasligi

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslar va mutaxassislar soni cheklangan. Qonunchilikka muvofiq, ekologik xavfsizlikka doir talablar va me'yorlarga rioya qilish uchun zarur mutaxassislar yetarli emas. Yangi



texnologiyalarni va ilg'or tajribalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan bilim va resurslar mavjud emas. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi jiddiy to'siqlarni yaratadi.

Xalqaro hamkorlikning sustligi

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro hamkorlikning samaradorligi ba'zan yetarli darajada emas. O'zbekiston xalqaro ekologik konvensiyalarga, shartnomalarga qo'shilgan bo'lsa-da, ba'zi holatlarda ushbu shartnomalarning milliy huquq tizimiga tatbiq etilishi va amal qilish mexanizmlari zaif. Bu ham ekologik xavfsizlikni ta'minlashda cheklovlarni keltirib chiqaradi.

Ekologik ta'lim va xabardorlikning pastligi

Ekologik xavfsizlikning muhim jihatlaridan biri – aholining ekologik ta'limini va xabardorligini oshirish. Hozirgi kunda ekologik ta'lim tizimi hali ham to'liq rivojlanmagan. Aholi va korxonalar orasida ekologik xavflar va ularga qarshi choralar bo'yicha xabardorlik past. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

5.2. Takliflar

Ushbu muammolarni hal qilish uchun bir qator takliflar va yechimlarni kiritish mumkin. Har bir muammoni hal qilish uchun takliflar quyidagicha bo'ladi:

Qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish zarur. O'zbekistonning ekologik qonunchiligi xalqaro me'yorlar va standartlarga to'liq mos bo'lishi kerak. Yangi huquqiy me'yorlar ekologik xavf-xatarlarni samarali boshqarishga imkon berishi lozim. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy qonunchilikka tatbiq etish kerak.

Monitoring tizimini modernizatsiya qilish va kengaytirish

Ekologik monitoring tizimini kuchaytirish zarur. Davlat ekologik inspeksiyasining resurslarini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, va monitoring tizimini yanada kengaytirish kerak. Monitoringni faqat yirik sanoat korxonalarida emas, balki kichik va o'rta biznes sektorida ham amalga oshirish kerak. Ekologik xavf-xatarlar va ifloslanishlarni oldini olish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va real vaqtda monitoringni o'rnatish zarur.

Mutaxassislar tayyorlash va resurslarni oshirish

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda mutaxassislar tayyorlash va resurslarni oshirish uchun davlat dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Mutaxassislar ekologik



xavfsizlikni boshqarish, ekologik ta'lim va maslahatlarni berish bo'yicha tizimli kurslar va o'quv dasturlarini o'tishlari lozim. Davlat ekologik xavfsizlikni ta'minlashda xususiy sektorni ham jalb etishi va xususiy korxonalariga ekologik texnologiyalarni ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlash ko'rsatishi kerak.

Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash

O'zbekistonning ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida xalqaro hamkorligini kengaytirish zarur. Xalqaro ekologik shartnomalar, konvensiyalar va bitimlarga to'liq rioya etilishi kerak. Buning uchun ekologik masalalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va jahonning yetakchi ekologik tashkilotlari bilan tajriba almashish zarur. Bunda davlat o'rtasida ekologik xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun umumiy dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Aholini ekologik ta'lim va xabardorlikni oshirish

Aholi orasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ta'lim dasturlarini joriy etish kerak. Maktablarda ekologik ta'limni kuchaytirish, keng jamoatchilikni ekologik xavflar haqida xabardor qilish muhim. Davlat ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy reklama va xabardorlik kampaniyalarini amalga oshirishi lozim. Bu orqali aholining ekologik masalalar bo'yicha ongini oshirish mumkin.

Mavjud tizim kamchiliklarini bartaraf etish uchun bir qator chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Ekologik ma'lumotlarning ochiqligi yetarli emas, sud amaliyotida ekologik nizolar bo'yicha qarorlarning ozligi va mahalliy masalalarga kam e'tibor qaratilishi kuzatilmogda. Buni hal qilish maqsadida "Yashil texnologiyalar" uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish, ekologik monitoringni raqamlashtirish va ochiq qilib, har bir hududda ekologik prokuratura tashkil qilish va ekologik mas'uliyatni oshiruvchi chora-tadbirlar ishlab chiqish kabi takliflar ilgari surilgan.

Xorijiy tajriba

Germaniya ekologik xavfsizlikni tartibga solishda ko'p yillik tajribaga ega, va xovandovchi qonunlar sanitar nazorat va chiqindilarni cheklash bilan bog'liq muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun ekologik xavfsizlik masalalarida kuchli tizimlarni joriy etishda foydali bo'lishi mumkin.

Germaniya tajribasi: institutsional qat'iylik va texnik me'yorlar ustuvorligi

Germaniya ekologik xavfsizlikni huquqiy tartibga solish bo'yicha yetuk tizimga ega davlatlardan biridir. 1974 yilda qabul qilingan "Bundes-Immissionsschutzgesetz"



(Federal Emissiyalarni cheklash to'g'risidagi qonun) sanoat ob'ektlarining chiqindilar, gazlar, tovush, nurlanish va boshqa ifloslantiruvchi omillarni chiqarishiga qat'iy cheklovlar qo'yadi. Har qanday ishlab chiqarish faoliyati atrof-muhitga ta'siri oldindan baholanadi, emissiya pasporti asosida yuritiladi. Federal Atrof-muhit Agentligi (Umweltbundesamt) ekologik monitoring olib boradi, ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan me'yorlarini belgilaydi, statistik hisobotlar tayyorlaydi. Germaniya Konstitutsiyasiga 1994 yilda kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, har bir fuqaro ekologik xavfsiz muhitda yashash huquqiga ega.

AQSh tajribasi: fuqarolik nazorati va qat'iy sud-huquqiy mexanizmlar

AQShda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda 1970 yilda tashkil etilgan Environmental Protection Agency (EPA) muhim rol o'ynaydi. Ushbu agentlik federal darajada monitoring olib boradi, "Clean Air Act", "Clean Water Act", "NEPA" kabi qonunlar asosida ruxsatlar beradi, tekshiruvlar o'tkazadi va qonunbuzarlarga nisbatan sudga da'vo arizalarini kiritadi. AQShda "citizen suits" instituti orqali fuqarolar bevosita sudga murojaat qilib, ekologik qonun buzilishlarini to'xtatish vakolatiga ega. EPA o'zining "Envirofacts" bazasi orqali fuqarolarga ochiq ekologik ma'lumotlar taqdim etadi. Bu esa jamoatchilik nazoratining kuchayishiga xizmat qiladi. O'zbekiston uchun bu tajribalardan foydalangan holda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda normativ-huquqiy hujjatlarni yangilash va modernizatsiya qilish zarur.

Xulosa

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash, nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki jamiyatning kelajagi va salomatligini himoya qilish uchun ham zarur. O'zbekistonning ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi davlat-huquqiy mexanizmlari hali to'liq takomillashtirilmagan bo'lsa-da, mavjud tizimda salmoqli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Biroq, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda yana bir qator muammolar mavjud. Huquqiy mexanizmlarning samaradorligi, monitoring tizimining yengilligi, resurslar va mutaxassislarning yetishmasligi, hamda xalqaro hamkorlikning zaifligi asosiy to'siqlardan hisoblanadi. Shu sababli, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda qonunchilikni takomillashtirish, monitoring tizimlarini kuchaytirish, mutaxassislarni tayyorlash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurdir.

Takliflar doirasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashda huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, ekologik monitoring tizimini modernizatsiya qilish,



mutaxassislar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, aholining ekologik ta'limini oshirish kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tajriba, xususan, Germaniya va AQShda o'rganilgan samarali ekologik xavfsizlik tizimlari O'zbekiston uchun yaxshi o'rnak bo'lishi mumkin. Milliy tizimni yanada takomillashtirish, ekologik xavfsizlik darajasini oshirishga yordam beradi. Aholining ekologik xabardorligini oshirish, ekologik texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish orqali ushbu sohadagi holatni yaxshilash mumkin.


Ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi davlat-huquqiy mexanizmlarining samaradorligi yuqori darajada bo'lishi kerak. O'zbekistonning ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi davlat mexanizmlarini rivojlantirish, monitoring tizimlarini modernizatsiya qilish va xalqaro tajribalarni o'rganish orqali ekologik xavfsizlikni yanada yaxshilash mumkin. Ekologik xavfsizlikning ta'minlanishi orqali mamlakatda barqaror rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat-huquqiy mexanizmlarining samaradorligini oshirish uchun ko'plab takliflar mavjud. Huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, ekologik monitoring tizimini rivojlantirish, mutaxassislar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlashda jiddiy yutuqlarga erishish mumkin. Shuningdek, ekologik xavfsizlikka doir ta'lim va xabardorlikni oshirish orqali aholining ekologik ongini shakllantirish ham muhimdir.

Maqolada keltirilgan muammolar va takliflar, ekologik xavfsizlikni ta'minlashning samarali yo'llarini ko'rsatadi va bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonning ekologik xavfsizlik tizimi yanada kuchayishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “Adolat”, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni, 2013.
3. “Ekologik ekspertiza to'g'risida”gi Qonuni, 2018.
4. Bundes-Immissionsschutzgesetz, Germany, 1974.
5. Environmental Protection Agency (EPA), USA official reports.
6. Clean Air Act, USA, 1970.
7. Clean Water Act, USA, 1972.
8. National Environmental Policy Act (NEPA), USA, 1969.
9. Black, H.C. Black's Law Dictionary. – St. Paul: West Publishing Co., 1990.





TRIK ORGANIZMLARDA KO'PAYISH XILLARI

Andijon davlat pedagogika instituti

Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi

Talabalari: **Fozilova Omina Zokirjon qizi, Azimova Mohinsa Nodirbek qizi,
Jamolidinova Robiya Fazliddin qizi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada tirik organizmlarning ko'payish shakllari, ularning biologik ahamiyati va evolyutsion jarayondagi o'rni yoritilgan. Ko'payishning jinsiy va jinsiy bo'lmagan turlari, ularning har birining afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. Shuningdek, har xil organizmlarda uchraydigan ko'payish usullarining turlicha bo'lishi hamda ular orqali nasl qoldirish jarayonining genetik xilma-xillikka ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqola biologiya faniga oid nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ko'payish, jinsiy ko'payish, jinsiy bo'lmagan ko'payish, mitoz, mayoz, evolyutsiya, nasl qoldirish, genetik xilma-xillik, biologik moslashuv.

Kirish

Tirik organizmlarning eng muhim biologik xususiyatlaridan biri bu - ko'payish qobiliyatidir. Ko'payish - organizmlarning o'z turini saqlab qolishi, son jihatdan ko'payishi va avloddan-avlodga genetik axborotni uzatishini ta'minlaydigan jarayondir. Bu jarayon nafaqat individning yashab qolishini, balki butun tur vakillarining mavjudligini davom ettiradi. Tabiatda ko'payishning turli xil shakllari mavjud bo'lib, ular har bir organizmning tuzilishi, yashash muhitiga moslashuvi va evolyutsion taraqqiyot darajasiga qarab farqlanadi. Umuman olganda, ko'payish jarayoni jinsiy va jinsiy bo'lmagan turlarga bo'linadi. Har bir ko'payish turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Asosiy qism

Ko'payish tirik organizmlarning yashashi uchun muhim jarayondir. Ko'payish bu yangi shaxslarning paydo bo'lishi va genetik materialning uzatilishi jarayoni. Tirik mavjudotlarning ko'payish turlari xilma-xillik va moslashishning asosini tashkil qiladi. Ushbu maqolada biz tirik organizmlarning ko'payishining umumiy turlarini ko'rib chiqamiz. Jinssiz ko'payish - bu ota-ona ishtirokisiz sodir bo'ladigan ko'payish turi. Bu



jarayonda genetik material ota-onadan olinadi va yangi turlar yaratiladi. U jinssiz ko'payish, tez ko'payish va kolonizatsiya afzalliklariga ega bo'lsa-da, genetik xilmaxillik past. Jinssiz ko'payishning ba'zi keng tarqalgan turlari: Jinsiy ko'payish ota va ona organizmlari bo'lishini talab etadi. Har bir ota-ona o'zidagi gametalarni taqdim etadi. Gametalar jinsiy hujayralar bo'lib, normal tana hujayralardan ikki marta kamroq DNKga ega. Erkaklardagi gametalar urug', ayollardagi esa tuxum hujayra deb ataladi.

Bu gametalar urug'lanish jarayonida o'zaro qo'shib, zigotani hosil qiladi va zigota keyinchalik embrionga aylanadi.

Jinsiy ko'payish jarayonining umumiy tavsifi:

Jinssiz ko'payish

Jinssiz ko'payish faqat bitta ota yoki ona organizm bo'lishini talab etadi.

Jinssiz ko'payishning juda ko'p turlari bor. To'rt asosiy turi quyidagilar:

1) Binar bo'linish: organizm DNKsi ikki hissa ko'payadi, so'ngra ikkita hujayraga bo'linadi. Bu ko'payish turi odatda bakteriyalarda uchraydi.

Prokariot hujayrada ikkiga bo'linish sodir bo'ladi.

2) Kurtaklanish: organizm tanasidagi kurtakdan yangi organizm hosil bo'ladi. Bu achiq va ba'zi hayvonlarda (quyida keltirilgan gidra singari) kuzatiladi.

3) Fragmentatsiya: organizm tanasi ikki yoki undan ortiq bo'laklarga bo'linib, bu bo'laklarning har biridan yangi organizmlar hosil bo'lishi. Aksariyat o'simliklarda va ba'zi hayvonlarda (korallar, kovakichlilar va dengiz yulduzchalari) uchraydi.

Tanasining bir qismini yo'qotgan dengiz yulduzchasi. Bu bo'lakdan keyinchalik yangi dengiz yulduzchasi hosil bo'ladi.

Tanasining bir qismini yo'qotgan dengiz yulduzchasi. Bu bo'lak keyinchalik o'sib, yangi dengiz yulduzchasini hosil qiladi.

4) Partenogenez: urug'lanmagan hujayradan yangi organizmning rivojlanishi. Umurtqasizlarda va ba'zi baliqlarda, amfibiya hamda sudralib yuruvchilarda uchraydi.

Jinsiy va jinssiz ko'payish o'rtasidagi farqlar:



Jinsiy Jinssiz

Ota va ona organizmlarni talab qiladi Faqat ona organizmi kerak

Sperma tuxum hujayrani urug'lantiradi Yagona organizm o'zining aniq nusxasini hosil qiladi

Hayvonlar, gullaydigan o'simliklar, ayrim zamburug'lar tomonidan foydalaniladi Bakteriya, ayrim o'simliklar va zamburug'lar, ba'zi hayvonlar (bo'shliqichlilar) tomonidan foydalaniladi

Hosil bo'lgan avlod ota-ona organizmlaridan farq qiladi Hosil bo'lgan avlod ona organizmi bilan bir xil bo'ladi

Genetik xilmaxillikni ta'minlaydi, ammo vaqt talab qiladi Tez va oson, lekin genetik xilmaxillik mavjud emas

Ko'p uchraydigan xatolar va noto'g'ri tushunchalar

Jinsiy ko'payish jinssiz ko'payishdan ustun emas yoki aksincha. Agar bir ko'payish turi boshqasidan ustun bo'lganda edi, hozir hamma organizmlar o'shanday ko'payardi. Lekin har xil organizmlar turli xil ko'payish usullaridan foydalanishi har bir ko'payish turining o'ziga xos evolyutsion afzalliklarga ega ekanini ko'rsatadi.

Masalan, jinsiy ko'payish xilmaxillikka sabab bo'ladi, lekin homiladorlik jarayoni uzoq vaqt davom etadi va ota-onadan kuchli g'amxo'rlik talab etiladi. Jinssiz ko'payish tez sodir bo'ladi, lekin hamma avlod bir xil genomga ega bo'lgani uchun kasallik ta'sirida qirilishi oson.

Kurtaklanish va fragmentatsiya bir xil tushuncha emas. Garchi ular o'xshash ko'rinsa-da, fragmentatsiyada organizm tanasi bo'laklarga bo'linadi va bu bo'laklardan yangi organizmlar rivojlanadi. Kurtaklanishda esa kurtak organizmdan ajralmagan holda rivojlanadi.

Ba'zi organizmlar ham jinssiz, ham jinsiy usulda ko'paya oladi. Bu holat zamburug' va o'simliklarda (ba'zi-ba'zida hayvonlarda, partenogenezlarda) uchraydi. Ko'pincha bu organizmning yashash sharoitiga yoki rivojlanishning qaysi bosqichidaligiga bog'liq.

Jinsiy ko'payish ota va ona organizmlar bo'lishini talab qilsa ham, bu ularni har doim bir-biridan alohida bo'lishi kerakligini bildirmaydi. Bu g'alati tuyulishi mumkin,



lekin ba'zi organizmlar germafrodit bo'lib, erkaklik va urg'ochilik hujayralari shu organizmning o'zida hosil bo'ladi. Bu holatda ular o'z-o'zini urug'lantirish qobiliyatiga ega. Gametalar organizmning o'zida hosil bo'lishiga qaramasdan ikkita gameta qatnashgani uchun bu jarayon jinsiy ko'payish turi deb qaraladi. Jinsiy ko'payish bu ikki xil ota-onaning genetik materialini yangi shaxsni shakllantirish uchun birlashtirgan ko'payish usuli. Bu jarayon genetik xilma-xillik va moslashuvchanlik nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Jinsiy ko'payish tirik mavjudotlarning genetik materialining aralashib ketishiga va turli xil birikmalarning paydo bo'lishiga imkon beradi, bu turning evolyutsion o'zgarishiga va atrof-muhit sharoitlariga moslashishiga imkon beradi. Jinsiy hujayra, reproduktiv hujayra yoki gameta deb ham ataladi. Jinsiy ko'payish jarayonida bu hujayralar ikki ota-onaning genetik materialini birlashtirib, yangi shaxsni hosil qiladi. Odamlarda va boshqa sutemizuvchilarda ular erkak va urg'ochi jinsiy hujayralarga bo'linadi: sperma va tuxum. Sperma bu erkak jinsiy hujayrasi. Spermatozoid hujayra ikkita asosiy qismdan, harakatchan dum (flagelum) va genetik materialni tashuvchi bosh (yadro) dan iborat. Bosh qismida spermatozoidlarning genetik ma'lumotlarini o'z ichiga olgan DNK mavjud. Mitoxondriyalar energiya ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ATFni ta'minlash uchun spermatozoidning dumi atrofida to'plangan. Sperma hujayralari moyaklarda ishlab chiqiladi va eyakulyatsiya paytida erkak jinsiy tizimi orqali ko'chiriladi va ayol jinsiy hujayrasi tuxum bilan birlashadi. Tuxum ayol jinsiy hujayrasi hisoblanadi. Tuxum hujayrasi asosiy tarkibiy qismlardan, masalan, genetik materialni o'z ichiga olgan yadro va hujayraning boshqa funktsiyalarini bajarishga imkon beruvchi sitoplazmadan iborat. Tuxum ko'plab organellalar va ozuqa moddalarini o'z ichiga olgan katta hujayradir. Boshqa reproduktiv hujayralardan farqli o'laroq, tuxum odatda harakatsizdir. Tuxum hujayrasi ayolning tuxumdonlarida yetilib, ovulyatsiya paytida chiqariladi. Urug'lanish sodir bo'lganda, u sperma bilan qo'shib, zigota hosil qiladi va embrionning rivojlanishini boshlaydi. Gametogenez biologik jarayon bo'lib, diploid yoki haploid oldingi hujayralar yetuk gaploid gametalarni hosil qilish uchun hujayra bo'linishi va farqlanishiga uchraydi. Organizmning biologik hayot aylanishiga qarab, gametogenez diploid gametotsitlarning turli gametalarga meiotik bo'linishi yoki mitoz bilan sodir bo'ladi. Masalan, o'simliklar gametofitlarda mitoz orqali gametalarni ishlab chiqaradi. Gametofitlar sporik meyoza keyin haploid sporalardan o'sadi. Meyoza va gametogenez o'rtasidagi hayot tsiklida ko'p hujayrali, haploid fazaning mavjudligi avlodlarning almashinuvi deb ham ataladi. Bu gaploid yoki diploid bo'lgan hujayralar



boshqa hujayralarni yaratish uchun bo'linadigan gametogenezning biologik jarayoni. Bu organizmning biologik hayot aylanishiga qarab diploid gametotsitlarning turli hujayralarga mitotik yoki meiotik bo'linishi orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, o'simliklardagi gametofitlar gametalarni ishlab chiqarish uchun mitozga uchraydi. Erkak va ayol har xil shakllarga ega. In vitro gametogenez (IVG) in vitro hosil qilingan gametalarni ishlab chiqish usuli, ya'ni "madaniyat idishidagi pluripotent ildiz hujayralaridan tuxum va sperma ishlab chiqarish". Ushbu usul hozirda sichqonlarda qo'llanilishi mumkin va kelajakda odamlar va inson bo'lmagan primatlarda muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Bu olimlarga sperma va tuxum hujayralarini yaratishga imkon beradi kattalar hujayralarini qayta dasturlash. Shunday qilib, ular laboratoriyada embrionlarni o'stirishlari mumkin edi. Bu kasalliklarga qarshi kurashishda istiqbolli usul bo'lsada, bir nechta axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ko'payish tirik organizmlarning o'zidan nasl qoldirib avlodlari hayotchanligini saqlab qolishda muhim hisoblanadi. Ko'payish jinsiz va jinsiy usullarda amalga oshadi, Jinssiz ko'payish quyidagi muhim afzalliklarga ega bo'lishi mumkin. Jinssiz ko'payishning ahamiyatiga qaramay, jinsiy ko'payish ham evolyutsion afzalliklarga ega, chunki u genetik xilma-xillik va moslashishni oshirish imkoniyatiga ega. Jinssiz ko'payish ba'zan noqulay deb hisoblanishi mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullaev, J.Saidov. "Genetika". Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti - 2010.
2. D.A.Musayev, Sh.Turabekov, T.Saidkarim, A.K.Rahimov, A.S.Almatov. "Genetika va seleksiya asoslari". Toshkent, "Voris nashriyot" - 2012.
3. F.S.Oripov, A.I.Boboyev. "Gistologiya, sitologiya va embriologiya". Toshkent, "Metodist nashriyoti" - 2023.
4. Burxon, F., Enverovna, B. L., & Dilshod, M. (2024). Chakanda (Hippophae Rhamnoides) Dorivor O'simligining Zararkunandalari. Science and innovation, 3(Special Issue 21), 733-737.
5. Boymurod o'g'li, M. D. (2024). About Chamomile (Lat. Matricaria) Common Information and His Useful Features. International innovation and researches, 1(1), 81-88.





BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH MUAMOLARI VA ULARNING YECHIMI

To'ychiyeva Madinabonu Abdukaxxor qizi

Andijondavlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqola bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik muammolarni tahlil qiladi. Maktabga moslashish davri, xavotirlik, qo'rquv, o'ziga ishonchsizlik kabi muammolarning sabablari va oqibatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ota-onalar, o'qituvchilar va psixologlarning bolalarga yordam berish, ularning psixologik holatini yaxshilash va maktabga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalari keltirilgan. Maqola bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi naqadar muhimligini ochib beradi va ushbu sohada olib boriladigan ilmiy-amaliy izlanishlarga turtki beradi.

Kalit so'zlar:

Bolalar, maktabga tayyorlash, psixologik muammolar, maktabga moslashish, qo'rquv, xavotir, stres, o'ziga ishonchsizlik, ajralish xavotiri, ijtimoiy moslashuv, ta'lim muassasasi, pedagogik yondashuv, oilaviy muhit.

Maktabga tayyorgarlik bu bolaning hayotidagi muhim bosqich hisoblanadi, bu davrda bola turli psixologik muammolarga duch kelishi mumkun. Quyida bu psixologik muammolarni korib chiqamiz va ularni yechimini o'rganamiz.

1.Xavotir va qorquv:

Bolalarda maktabga tayyorlash davri hayotidagi muhim bosqich bo'lib, u yangi muhitga, yangi talablarga va yangi munosabatlarga duch keladi. Bu davrda bolalarda qo'rquv va xavotir kabi salbiy his-tuyg'ularning yuzaga kelishi tabiiy holatdir. Maktab - bolalar uchun yangi va noma'lum joy. Ular maktab qanday joy ekanligini, u yerda nimalar bo'lishini va o'qituvchilarning qanday odamlar ekanligini bilishmaydi. Maktabga borish ota-onalaridan ajralish degani, bolalar ota-onalarining himoyasida bo'lishga o'rganib qolgan va ulardan uzoqda bo'lish ularni xavotirga solib qoyadi. Bolalar maktabda yaxshi o'qiy olmaslikdan, topshiriqlarni bajara olmaslikdan yoki o'qituvchilarning noroziligiga uchrashdan qo'rqishadi. Sinfdozlari bilan





do'stlashishda, ular bilan munosabat o'rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishdan va ular o'zlarini qabul qilinmaslikdan, kamsitilishdan yoki zo'rvonlikka uchrashdan xavotirlanishadi. Maktab hayotida juda ko'p o'zgarishlar bo'ladi - yangi tartib, yangi qoidalar, yangi vazifalar. Bolalar bu o'zgarishlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Ota-onalarning o'zlari ham bolalarining maktabga borishi haqida xavotirlanishadi. Ularning xavotirlari bolalarga o'tishi mumkin. Agar bola ilgari salbiy tajribaga ega bo'lgan bo'lsa (masalan, bog'chada yoki boshqa ta'lim muassasasida), bu maktabga nisbatan qo'rquv va xavotirni kuchaytirishi mumkin. Ba'zi ota-onalar bolalardan juda yuqori natijalar kutishadi va ularga bosim o'tkazishadi. Bu bolalarda stress va xavotirni keltirib chiqaradi.

Qo'rquv va xavotirning belgilari:

- Jismoniy belgilar: Qorin og'rig'i, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, uyqusizlik, ishtahaning yo'qolishi.
- Hissiy belgilar: Yig'loqilik, asabiylik, jahldorlik, tushkunlik, o'ziga ishonchsizlik.
- Xatti-harakat belgilari: Maktabga borishni istamaslik, darslarga qatnashmaslik, vazifalarni bajarmaslik, o'zini jamoadan chetga olish.

Qo'rquv va xavotirni yengish yo'llari:

1. Muloqot: Bola bilan maktab haqida gaplashing, uning qo'rquvlarini va xavotirlarini tinglang. Unga maktab qiziqarli va foydali joy ekanligini tushuntiring, maktab haqida koproq tassavur uyg'oting
2. Maktab bilan tanishish: Bolani maktabga olib boring, sinf xonalarini ko'rsating, o'qituvchilar bilan tanishtiring. Bu unga maktab muhitiga o'rganishga yordam beradi.
3. Ijobiy munosabat: Maktab haqida faqat yaxshi gapiring. Bolani maktabga ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgating.
4. Qo'llab-quvvatlash: Bolani qo'llab-quvvatlang, unga ishonch bildiring. Unga maktabda yaxshi o'qishi uchun barcha imkoniyatlar borligini ayting.
5. O'qituvchilar bilan hamkorlik: O'qituvchilar bilan doimiy aloqada bo'ling, bolaning muammolari haqida ularga xabar bering va ularning yordamini so'rang.
6. Psixolog yordami: Agar bolaning qo'rquv va xavotirlari juda kuchli bo'lsa, psixologga murojaat qiling.
7. Rejim: Bolaning kun tartibini to'g'ri tashkil qiling - u yetarlicha uxlashi, to'g'ri ovqatlanishi va dam olishi kerak.



8. Dam olish: Bolaga maktabdan tashqari dam olish va sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanish uchun vaqt ajrating.

9. Birlashish: Bolani maktabga borishdan oldin va keyin ota-onasi yoki yaqinlari bilan birga vaqt o'tkazishiga imkon bering.

10. O'yinlar: Maktab bilan bog'liq bo'lgan rolli o'yinlar o'ynang. Bu bolaning qo'rquvlarini yengishga yordam beradi.

2. Bolani maktabga tayyorlashda o'ziga ishonchsizlikning yuzaga kelishi.

Bolaning o'ziga ishonchsizligi - bu ota-onalar va o'qituvchilar e'tibor berishi kerak bo'lgan keng tarqalgan muammodir.

Bolalar o'zlarini sinfdoshlari bilan solishtirishni boshlaydilar. Agar ular o'zlarini boshqalardan orqada deb hisoblasalar, ularning o'ziga bo'lgan ishonchi pasayishi mumkin. Doimiy tanqid bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga olib keladi. Tanqid bolaning o'zini qobiliyatsiz va arzimas deb his qilishiga sabab bo'ladi. Ba'zi bolalar har doim mukammal bo'lishga intilishadi, agar ular mukammallikka erisha olmasalar, ular o'zlariga ishonchsizlik his qilishadi. Ota-onalarning bolalarga nisbatan yuqori talablari va bosimi ularning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Agar bola ilgari salbiy tajribaga ega bo'lgan bo'lsa (masalan, kamsitilgan yoki tanqid qilingan bo'lsa), bu ham uning o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga olib keladi. Ba'zi bolalar o'zlarining jismoniy xususiyatlari (masalan, vazni, bo'yi yoki tashqi ko'rinishi) tufayli o'zlariga ishonchsizlik his qilishadi.

O'ziga ishonchsizlikning belgilari:

- Tortinchoqlik: Bola yangi odamlar bilan tanishishdan tortinadi, darslarda faol ishtirok etmaydi va o'z fikrini bildirishdan qo'rqadi.

- Xavotirlik: Bola doimo xavotirda bo'ladi, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqadi va o'z qobiliyatlariga shubha qiladi.

- O'zini past baholash: Bola o'zini qobiliyatsiz, arzimas va boshqalardan yomon deb hisoblaydi.

- Muvaffaqiyatni rad etish: Bola o'z muvaffaqiyatlarini tasodif deb hisoblaydi va o'z qobiliyatlariga ishonmaydi.

- Yordamga muhtojlik: Bola har doim yordam so'raydi va o'z vazifalarini o'zi bajarishga harakat qilmaydi.

- Passivlik: Bola o'z tashabbusini ko'rsatmaydi, yangi narsalarni o'rganishga qiziqmaydi va vazifalarni bajarishdan qochadi.





• O'zini ayblash: Bola har qanday muvaffaqiyatsizlik uchun o'zini ayblaydi va o'z xatolarini kechirmaydi.

O'ziga ishonchsizlikni yengish yo'llari:

1. Qo'llab-quvvatlash: Bolani qo'llab-quvvatlang, unga ishonch bildiring va uni har doim yaxshi ko'rishingizni ayting. (Biz senga ishonamiz sen uddalaysan. Bularni hammasi seni qolingdan keladi.)

2. Muvaffaqiyatga e'tibor: Bolaning kamchiliklariga emas, balki yutuqlariga e'tibor qarating. Har qanday kichik muvaffaqiyat uchun uni maqtang. (Barakalla, ofarin Sen bu ishni qildingmi bundan ham yaxshiroqlarini qilolasan....)

3. Maqsad qo'yish: Bolaga o'z oldiga erishish mumkin bo'lgan maqsadlar qo'yishga yordam bering. Maqsadga erishish uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. (Kelajakda qanday kasb egasi bolishi haqida, ertangilik kun rejasida nimalar borligi haqida sorash....)

4. Tajriba orttirish: Bolaga yangi narsalarni o'rganishga va yangi tajribalar orttirishga imkon bering. Yangi tajribalar uning qobiliyatlarini kashf etishga yordam beradi. (Maktab hayoti haqida, maktab o'quvchilari haqida ...)

5. Xatolarni qabul qilish: Bolaga xato qilish normal holat ekanligini tushuntiring. Xatolardan saboq chiqarishga va ularni tuzatishga o'rgating.

6. Qiyoslamang: Bolani boshqa bolalar bilan solishtirmang. Har bir bola noyob hisoblanadi. Qiyoslash orqali bolani ichki menini sindirib qoyish, o'ziga bolgan ishonchini kamaytiradi va o'zini past baholay boshlashi mumkun.

3. Bolani maktabga tayyorlashda moslashuvchanlikning pastligi jiddiy muammo bo'lishi mumkin, chunki bu bolaning yangi muhitga, qoidalarga va talablarga moslasha olmasligiga olib keladi.

Moslashuvchanlikning pastligi sabablari:

Ba'zi bolalar tabiatan konservativroq va yangilikka sekinroq moslashadi. Agar bola hayoti doimiy va o'zgarishsiz bo'lsa, u yangilikka moslashishga qiynalishi mumkin. Yuqori darajadagi xavotirlik bolaning yangi vaziyatlarda o'zini noqulay his qilishiga va moslashishga to'sqinlik qilishi mumkin. Maktabga borish bolaning hayotida ko'plab o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu esa nazoratni yo'qotish hissini uyg'otishi mumkin. Noma'lumlik qo'rquvi bolani yangi narsalardan qochishga majbur qiladi

Moslashuvchanlikning pastligi belgilari:





O'zgarishlarga qarshilik: Bola yangi tartibga, qoidalarga yoki odamlarga qarshi chiqishi mumkin. Bola bir xil narsalarni qilishni, bir xil joyda o'tirishni yoki bir xil o'yinchoqlar bilan o'ynashni talab qilishi mumkin. O'zgarishlar bolada asabiylik, jahldorlik yoki yig'lashni keltirib chiqarishi mumkin. Yangi tartibga moslashish davrida bola uxlashga qiynalishi yoki tungi qo'rquvlarni boshdan kechirishi mumkin. Stress tufayli bola ovqatlanishni istamasligi mumkin. Ba'zi bolalar qorin og'rig'i, bosh og'rig'i yoki ko'ngil aynishi kabi shikoyatlar bilan murojaat qilishlari mumkin. Eng og'ir holatlarda bola maktabga borishdan butunlay bosh tortishi mumkin

Moslashuvchanlikni oshirish yechimlari:

1. O'zgarishlarni bosqichma-bosqich kiritish Birdaniga ko'p o'zgarish kiritmang. Maktabga borishdan oldin yangi tartibga, uyqu rejimiga va ovqatlanish jadvaliga moslashishga yordam bering. Maktabda nima bo'lishini oldindan tushuntiring: darslar, tanaffuslar, o'yinlar va boshqa tadbirlar haqida gapiring

2. Oldindan tayyorgarlik:• Maktabga tashrif buyuring: bolani maktab bilan tanishtiring, sinf xonalarini ko'rsating, o'qituvchilar bilan uchrashing. Maktab qurollarini birga tanlang: xalta, qalamdon, daftar va boshqa kerakli narsalarni birga xarid qiling. Bu bolada maktabga qiziqish uyg'otadi. Kitoblar o'qing: maktab haqidagi kitoblar bolaning xavotirlarini kamaytiradi va unga tayyorlanishga yordam beradi.

3. Ijobiy muhit yaratish:

- Maktab haqida ijobiy gapiring: maktab qiziqarli, o'rganish uchun ajoyib joy ekanligini ta'kidlang. Bolaning savollariga javob bering: uning xavotirlarini tinglang va ularga tushunarli javoblar bering. Muvaffaqiyatlarini nishonlang: har qanday kichik yutuqni ham maqtang va rag'batlantiring.

4. O'yinlardan foydalanish:

- Rolli o'yinlar: maktabda bo'ladigan vaziyatlarni o'ynang (dars, tanaffus, o'qituvchi bilan muloqot). Bu bolaning o'zini qanday tutishni o'rganishiga yordam beradi. Ijodiy o'yinlar: maktab rasmlarini chizing, maktab haqida hikoyalar to'qing.

5. Mustaqillikni rivojlantirish:

- Bolaga o'z-o'ziga xizmat qilishni o'rgating: kiyinish, ovqatlanish, gigiena qoidalariga rioya qilish. Uy ishlarida yordam bering: kichik vazifalarni topshiring (stolni tuzatish, o'yinchoqlarni yig'ishtirish). Tanlash imkoniyatini bering: bolaga nima kiyishni, nima ovqatlanishni yoki qaysi o'yinni o'ynashni tanlashga ruxsat bering.

6 Tartibga rioya qilish:



- Kun tartibini tuzing: uyg'onish, ovqatlanish, o'yinlar, uy vazifasi va uxlash vaqtini belgilang Tartibga qat'iy rioya qiling: bu bolaga xavfsizlik hissini beradi va o'zgarishlarga tayyor bo'lishga yordam beradi.

Maktabga tayyor bo'lmagan bolalar bilan ishlayotib pedagog ota-onalar va bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchisi majburiyatlari sirasiga kiradigan vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Bolani maktabga tayyorlash o'quv faoliyati egallashga tayyorlash tayyorlash unin maktabgacha yosh davridagi to'laqonli rivojlanishi natijasi bo'ladi. Shu maqsadli rivojlantirishning o'rni va ahamiyati haqida tushuntirish ishlari olib borish juda muhim. Psixolog ik maktabgacha yoshdagi bolalar bilan shug'ullanar ekan ularning rivojlanishi istiqbolini ularda maktab ta'limiga to'la qonli psixologik tayyorgarlikda ko'radi. Uning bosh vazifasi rivojlanishining to'laqonliligi va ko'p qirraliligi nuqtai nazaridan bola o'zini maktabgacha bolaligini mahsuldor o'tkazish uchun tobora ma'qbul pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratish. Psixolog goyo bolani kelajagiga qarab uning bir yosh davridan boshqasiga maktab yoshiga qanchalik omadli qadam qo'yishini aniqlaydigan, bolani psixik va shaxsiy rivojlanishi uyga maktabda qo'yiladigan yangi talablarga muvofiq bo'lishi uchun yana nimalar qilishi kerakligini belgilaydi. Psixolog mashg'ulotidan maqsad bilim va konikma bilan qurollantirish emas, balki rivojlantirish ekanligini unutmasligi kerak. Psixolog rivojlantiruvchi ishlarining mohiyati shundayki ular yordamida bolalarning turli tuman bilish jarayonlari va shaxsiy xususiyatlari rivojlanishiga ijobiy turki beradi va ularni takomillashtiradi. Psixolog ishining natijalari darhol namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun ko'p tarbiyachi va ota-onalarning hafsalasi pir bo'lib ketadi. Shuning uchun ota-onalar va bog'cha tarbiyachisi ongiga shunday yetkazish kerakki psixologning ishi o'qitish emas balki rivojlantirishdir. Rivojlanish esa asta-sekin yuz beradi. Shu sababli bolaning rivojlanishi jarayoni sezilarsiz darajada o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan rivojlantiruvchi ishlarining asosiy shakli o'yindir chunki o'yin ushbu davrdagi yetakchi faoliyat sifatida bolaning psixik rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ayni vaqtda bola o'yin davomida yangi bilimlarni egallab boradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari va ulardagi muammolarning o'ziga xosligi psixologining ushbu muassasada ishlash chog'ida uning o'ziga xos tomonlariga alohida e'tiborli bo'lishini talab qiladi. Psixologlar bu talablarni doimo e'tiborga olishi zarur hisoblanadi.





Xulosa

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ota-onalardan katta mas'uliyat va e'tibor talab etadigan murakkab jarayondir. Bu davrda bolalar turli xil psixologik muammolarga duch kelishlari mumkin, jumladan xavotirlik, ajralish qo'rquvi, moslashuvchanlikning pastligi, o'ziga ishonchsizlik, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik, hamda ijtimoiy ko'nikmalarning yetishmasligi. Ushbu muammolarning har biri bolaning maktabga moslashuvi, o'qishga bo'lgan ishtiyoqi va umumiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ota-onalar bolaning psixologik tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratishlari, muammolarni erta aniqlash va ularni hal qilish uchun faol harakat qilishlari zarur. Maqolada keltirilgan yechimlar, masalan maktab haqida ijobiy hikoyalar so'zlab berish, maktabga birgalikda sayohat qilish, bolaning xavotirlarini tinglash, moslashuvchanlikni rivojlantirish, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish, tartibli muhit yaratish va eng muhimi sabrli bo'lish, bolalarga yangi muhitga muvaffaqiyatli moslashishga yordam beradi. Shuni unutmaslik kerakki, har bir bola noyobdir va unga individual yondashuv talab etiladi. Ba'zi hollarda, professional psixolog yoki pedagogning yordami zarur bo'lishi mumkin. Ota-onalar, o'qituvchilar va mutaxassislarining hamkorligi bolaning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlashning kalitidir.

Xulosa qilib aytganda, bolalarni maktabga tayyorlash nafaqat ularning bilim olishlari uchun zamin yaratish, balki ularning psixologik salomatligini ta'minlash, o'ziga ishonchini oshirish va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Bu esa, o'z navbatida, ularning kelajakda muvaffaqiyatli va baxtli hayot kechirishlariga yo'l ochadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G'. "Umumiy psixologiya". - Toshkent, 2002.
2. Qodirov B.R. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". - Toshkent, 2014.
3. Tursunova M. "Bolalar psixologiyasi". - Toshkent, 2017.
4. Sharipov Sh.S. "Oila psixologiyasi". - Toshkent, 2010.
5. "Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun davlat talablari". - Toshkent, 2018.
6. M.X. Asranboyeva, D.D. Oribboyeva, D.D. Boymirzayeva. "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi.





MAKTABGACHA TA'LIMNING MAZMUN- MOHIYATI VA TA'LIM TIZIMIDA TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

Mahmudova Robiyaxon Mirzohid qizi

Andijon davlat pedagogika instuti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqicha talabasi.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim ta'limning mazmun-mohiyati, maktabgacha ta'limning tizimida tizimida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar o'rin olgan. Hamda maqolada maktabgacha yoshdagi ta'limning sifati va harakteri haqida fikrlar mavjud. Bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim, oila va jamiyatning o'rni hususida so'z yuritildi. Ushbu maqola orqali, bola tarbiyasiga maktabgacha ta'lim, oila va jamiyatning o'rni qay darajada ekanligi haqida ma'lumot olasiz.

KALIT SO'ZLAR: ta'lim, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, metod, bola texnologiya.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidir. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasida ilk bor maktabgacha ta'lim tizimi qayd etildi. Maktabgacha ta'lim bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim-bolalarning individual va yosh xususiyatlarini, qiziqishi, moyilligi, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bola shaxsining jismoniy, intellektual, ijtimoiy-axloqiy va ruhiy rivojlanishini ta'minlovchi, shuningdek maktabga tayyorlab, hayotga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yonaltirilgan yaxlit jarayondir. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlangich bo'gini sifatida Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha ta'limga qoyiladigan davlat talablari, ta'lim-tarbiya dasturlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarda, jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena, ijtimoiy kommunikativ rivojlanish, nutq, o'qish va chet tillarni organish, bilish jarayoni, dunyo haqidagi bilimlar va dunyoni anglashi, ijodiy-estetik rivojlanishini taminlaydi.





Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida har bir bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash hamda bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish masalalarini misol qilib aytamiz. Bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko'rsatish. Bolalarning, shu jumladan alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan bo'lib kelmoqda. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab- quvvatlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish ham muhim davlat ahamiyatiga molik masalalardan hisoblanadi. Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida hozirgi kunda bir qator islohatlar olib borilmoqda.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplarida har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi, har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi asos qilib olingan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, 4 darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiq, ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiq, ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi qonun bilan kafolatlangan.

Binobarin, ta'lim va tarbiya, jamiyat talablariga javob beradigan muayyan shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish maqsadida katta avlodning yosh avlodga ongli maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida hal etuvchi muhim omil hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar

ta'lim-tarbiyasiga qo'llanadigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, manaviy va intellektual jihatdan maktabda o'qishga tayyorlashni nazarda tutadi.

Bolalarga beriladigan ta'limning mazmuni har bir yosh davrida bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan: oilada va maktabgacha yoshdagi bolalarga majburiy (bilim) ta'lim berilmaydi. Ular uchun kundalik hayotining o'zi ta'imdan iborat bo'lib, bu yoshdagi





bolalar kundalik hayotlarida atrof-muhitdagi narsa va hodisalar bilan tanishadilar, xilma-xil narsalarni qo'llari bilan ushlab ko'rib sinchiklab tekshiradilar. Bu yoshdagi bolalar kuchli hissiyotli va juda qiziquvchan bo'ladilar. Ularning ana shu qiziquvchanligidan keng foydalanish lozim, ta'lim berishda ularni atrof -muhitdagi narsalar bilan bevosita tanishtirishdan ko'rsatma material yaxshi natija beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim xarakteri esa tubdan farqli o'zgarib, ta'lim jarayoni maxsus tuzilgan. Bu yoshdagi bolalarga beriladigan bilim darajasi kichik yoshdagi bolalarga beriladigan bilimlarga nisbatan juda kengaytirib boriladi. Bu bilimlarni o'zlashtirish tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali amalga oshadi. Masalan: Elementlar matematika mashg'uloti, nutq o'stirish mashg'uloti, jismoniy tarbiya mashg'uloti, rasm, loy, applikasiya konstruktivlash, kompyuter mashg'uloti va boshqa shunga o'xshash mashg'ulotlar jumlasidandir.

Maktabgacha ta'lim jarayoni mumkin qadar aniq, to'liq holda va ko'rsatmali vositalar bilan o'tkazilishi kerak. Muntazam ravishda o'tkaziladigan ana shunday mashg'ulotlar natijasida maktabgacha yoshidagi bolalarda bilimlarni o'zlashtirishga ishtiyoq, qiziqish, bilimlarga havas ortib boradi. Biroq ta'limiy mashg'ulotlarda bolalar ishini doim kuzatib turilsa, ular oldiga aniq maqsad va vazifalar belgilab berilsa, bu mashg'ulotlar ham o'yin faoliyatlari kabi g'oyat qiziqarli va jozibali o'tadi, bolalar mashg'ulotlarda zerikmay, diqqat bilan ishtirok etishadi. Undan tashqari maktabgacha yoshidagi bolalar shaxsiy xislatlarining kamol topishida tasvirlash faoliyatining roli kattadir. Ma'lumki maktabgacha yoshidagi bolalarga rasm solish, loydan turli narsalar yasash, kubuklardan uyachalar, ko'priklar qurish singari mashg'ulotlar juda yoqadi. Ular o'z tasviriy faoliyatlarida tashqi muhitni, undagi narsalarni, tabiatni, hayvonlar dunyosini, aks ettirishni juda xohlaydilar va shunga intiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar tasvirlash faoliyatining psixologik afzalligi mazkur faoliyatida ijodkorlik, yaratuvchanlik elementlarining mavjudligidan iboratdir.

Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniyar kabi ulug' allomalarimiz inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar. Tarbiya jarayonida kattalar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi hisoblanadi. Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog'liqdir.

Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga bogliq. Tarbiyajarayoni murakkabdir. Shuning uchun ham u tarbiyachidan bolaning ruhiy holati, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, mehribonlik bilan



yondashishni talab qiladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsini diqqat bilan o'rganishi, ularni tushunishi, hurmat qilishi lozim.

Tarbiyalanuvchilarning hayotiy faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq va ularning munosabatlari oqilona tashkil qilinarkan, tarbiyajarayoni shunchalik samarali amalga oshiriladi. Insonni uning atrofida qurshab turgan vositalar: oila, ota-onasi, maktab, do'stlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolalar tarbiyalaydi. Shaxsning rivojlanish va shakllanish jarayonini boshqarib borish kerak. Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumxalq ishi va uzluksiz bo'lsin, barcha yoshdagi bolalarni qamrab olsin, turli ijtimoiy, jamoat va davlat institutlari va muassasalarining shaxs o'zaro munosabatda bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim, Oila va Jamiyatning ham birdek xissasi bordir. Chunki bola oilada ilk bor ta'lim- tarbiya olsa, uni maktabgacha ta'limda yanada shakllantiradi, mustahkamlaydi va qisqa tushuntirish, nasihat yoki o'yinlar orqali tarbiya elementlarini egallaydi. Egallagan tarbiyani esa albatta jamiyat va o'zaro munosabatlarda qo'llaydi. Bu esa bola tarbiyasining asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.U. Hasanboyeva, M.X.Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'latova va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma. (To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2011. — 184 b.
2. Kushmatova Maftuna Maxamadali qizi. Mavzu: Farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Bitiruv malaka ishi. Andijon-2017

**Research Science and
Innovation House**





MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN RIVOJLANTIRUVCHI ISHLAR

Andijon davlat pedogogika instituti
Pedogogika psixologiya kafedrası assisent o'qituvchisi

Kadirova Omaxon Sobirjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2 bosqich talabasi

To'ychiyeva Madina Abduqaxxor qizi

Annotatsiya: Ushbu annotatsiya maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ishlar mavzusini qamrab oladi. Maktabgacha yosh - bu bolaning jismoniy, kognitiv, ijtimoiy-emotsional va nutqiy rivojlanishida muhim davr bo'lib, bu kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun, ushbu davrda bolalar bilan olib boriladigan rivojlantiruvchi ishlar alohida ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Sensor-motor rivojlanishi, nutq rivojlanishi, kognitiv rivojlanish diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, rolli o'yinlar, barmoq o'yinlari, mashqlar, topshiriqlar.

Ta'lim-tarbiya jarayonini asosan didaktik o'yinlar turli xil amaliy va tasviriy faoliyat shakllarida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bolalar bilan an'anaviy maktab dars shaklida zinhor-bazinxor ishlab bo'lmaydi. Bolalar bog'chada ta'lim olishlari uchun ta'lim jarayonini ularning tabiiy rivojlanishi bilan uyg'un bo'lishi kerak. Psixolog mashg'ulotidan maqsad bilim va ko'nikma bilan qurollantirish emas rivojlantirish ekanligini unutmaslik kerak. Psixolog rivojlanadiruvchi ishlarining mohiyati shundayki ular yordamida bolalarning turli tuman bilish jarayonlari va shaxsiy xususiyati rivojlanishiga ijobiy turtki beriladi ular takomillashtiriladi. Psixolog ishining natijalari darhol namoyan bo'lmaydi. Shu tufayli ko'pincha tarbiyachi va otalarning havzalari bir bo'lib ketadi. Ota-ona va bog'cha tarbiyachisi ongiga shuni yetkazish kerakki psixolog ishi o'qitish emas balki rivojlantirish ekanligini. Rivojlanish asta-sekinlik bilan yuz beradi degan jarayon hisoblanadi shu sababli bolaning rivojlanish jarayoni sezilmay o'tadi.





Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan rivojlanturuvchi ishlarning asosiy shakli o'yindir, chunki o'yin ushbu davrdagi yetakchi faoliyat sifatida bolalarning psixik rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bola oyin o'ynash davomida yangi bilimlarni egallab boradi. Maktabgacha ta'lim muassasi va ulardagi muammolarning o'ziga xosligi psixologining ushbu muassasasida ishlash chog'ida uning o'ziga xos tomonlariga alohida e'tiborli bo'lishni talab qiladi. Psixolog esa bu talablarni doimo e'tiborga olishi zarur hisoblanadi. Ko'kraksion ish zarurati yosh va individual imkoniyatlar o'z vaqtida realizatsiyalanmasa, yoshga oid yangi tuzilmalar va yorqin individual xususiyatlar ontogenezing u yoki bu bosqichida bo'lgan bolalarning barchasida shakillantirilmagagina yuzaga keladi. Maktabga tayyor bo'lmagan bolalar bilan ishlayotib, pedagog ota-onalar va bolalar bog'chasi tarbiyachisini majburiyatlari sirasiga kiradigan vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Bolani maktabga tayyorlash o'quv faoliyatini egallashga tayyorlash uning maktabgacha yosh davridagi to'la qonli rivojlanishining natijasi bo'lishi lozim. Shu va maqsadli rivojlantirishning o'rni va ahamiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish juda muhim hisoblanadi. Psixologlar maktabgacha yoshdagi bolalar bilan shug'ullanar ekan ularning rivojlanishi istiqbolini ularda maktab ta'limiga to'laqonli psixologik tayyorgarlikda ko'radi. Uning bosh vazifasi rivojlantirishning to'laqonli va ko'plaringligini qudajon nazardan bola o'zining maktabgacha bolaligini mahsuldor o'tkazish uchun tobora maqbul pedagogik psixologik sharoitni yaratish kerak. Psixolog go'yo bolaning kelajagiga qarab uning bir yosh davridan boshqasiga ya'ni maktab yoshiga qanchalik omadli qadam qo'yishini aniqlaydi bolaning psixik va shaxsiy rivojlanishi uyga maktabda qo'yiladigan yangi talablarga muvofiq bo'lishi uchun yana nimalar qilishi kerakligini belgilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan rivojlantiruvchi ishlar muammosi Ko'plab tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar juda egiluvchan va ta'sirga beriluvchan ekanligini tasdiqlaydi. Bu davrda bolalar juda ko'p narsani o'zlashtirishi mumkin ekanligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Ammo bolaning imkoniyatlari cheksiz emas, bola imkoniyatlari yosh va psixofiziologik xususiyatlar bilan chegaralangan. Avvalo shuni unutmaslik kerakki, bola bu davrda intensiv o'sayotgan bo'ladi. Bolalar bilan ishlash dasturi ishlab chiqilar ekan, albatta, biror narsani qilish uchun ular qancha nerv - psixik kuch sarf qilishini ham inobatga olish kerak. Masalan, 3-7 yoshli bolalarga erkin harakatlanish imkoniyati berilsa, u ko'p harakatlar qilishi mumkin. Biroq u aniq harakatni bajarishga majbur etilsa, u tez toliqib qoladi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar imkoniyatlaridan samarali



foydalanishning muhim sharti ular bilan ishlash chog'ida qo'llanayotgan metod va tarbiya shakllarining bolalar psixofiziologik xususiyatlariga mos bo'lishidir. MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak. Gurux xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak. Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamaslik zarur. Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o'z o'zi bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlashi kerak. Tematik rejalashtirishga ko'ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallar va o'yin uskunalar bilan ta'minlash ustida o'ylashva to'ldirishi kerak. Markazlarni bolalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan to'ldirish mumkin. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallar tayyorlanadi va jihozlanadi.

Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi: har xil qurilish to'plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o'ynash uchun didaktik o'yinlar va boshlang'ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o'quv materiallari.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi: teatrning barcha turlari uchun atributlar va o'yin materiallari, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatisatsiya o'yinlari, shlyapalar - maskalar, o'yin to'plamlari va burchaklarda o'ynash uchun o'yinchoqlar - masalan «Sartarosh», «Kasalxona» va "Do'kon" o'yinlari atributlari.





Til va nutq markazi: didaktik o‘yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallarlar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko‘ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to‘plami, "Rasmi Alifbo" kubiklari.

Ilm, fan va tabiat markazi: atrof-muhit madaniyati bo‘yicha didaktik materiallarlar, «Tabiat va odam» rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo‘yicha maketlar, tabiiy materiallarning xususiyatlarini o‘rganish uchun materiallarlar, to‘plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to‘plamlari, o‘ynash uchun o‘yin mavzular to‘plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar.

San‘at markazi: tasviriy faoliyat zarur jixozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san‘at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O‘zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlar

Xulosa qilib aytganda, bolaning rivojlanishi faqat o‘quv faoliyatida emas, balki o‘yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o‘yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e‘tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi didaktik materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta‘minlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, echimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o‘z maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etadi, agar shunday bo‘lsa, muammolar pedagogning va bolalarning va uning otalarining shaxsiy ishi bilan belgilanadi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o‘ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning histuyg‘ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanayotgan ta‘lim asosida yotadi.


Research Science and
Innovation House





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1."Ilm yo'li" variativ dasturi. Toshkent "Sano-standart" 2020 yil.
- 2.Maktabgacha pedagogika G. Qodirova, M. N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent -2019
- 3.Maktabgacha pedagogika Berdiyeva M.M.
- 4.Maktabgacha tarbiya pedagogikasi P.Yusupova Toshkent "O'qituvchi" 1993 y.
- 5.Ergasheva D. O 'ZBEK XALQ ERTAKLARINING TURLARI VA ULARNING TASNIFI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 22



**Research Science and
Innovation House**





BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK YONDASHUV.

Obidova Ruxshona Umidjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi katta guruh bolalari bilan mashg'ulotlarni tashkil etish, maktabga tayyorlashda uning psixologik, estetik, ma'naviy-madaniy qobiliyatlarini takomillashtirish, maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchilarga psixologik-pedagogik ko'mak berish xususidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: estetik, etika, madaniy, ilm egallash bosqichlari, qobiliyat, idrok, ijtimoiylashuv, vatanparvarlik, ma'suliyat.

Bolarni maktab ta'limiga o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga ham bog'liq bo'ladi. Maktab ta'limiga tayyorgarlik maktabgacha ta'lim muassasalari va oilada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga berilgan ta'lim va tarbiyaning muhim yakunidir. Bolaning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasi maktab bolaga qo'yadigan talablar majmui orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi sotsial-psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim bo'lgan yangi vazifa va burchlardan kelib chiqadi. Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi atrofdagilar bilan munosabat sistemasining o'zgarishiga aloqador muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy o'rinni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyati egallaydi. Unga odatiy bo'lgan erkin o'yin faoliyatidan farqli o'laroq endi ta'lim majburiy bo'ladi va birinchi sinf o'quvchisidan to'rta jiddiy munosabat talab etiladi. Ta'lim faoliyatining yetakchi turi sifatida bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi. Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi. Bog'cha tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari kerak, bunda ular maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak.





Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi. Ammo ba'zi oilalar va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va o'qishga tayyorgarligi darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning o'yinqaroqligi, mustaqil bo'la olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga 2 tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalar o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'rnini topa olmaydilar. Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muhtoj: berilgan vazifalarni tushuna olmaydilar va mustaqil bajara olmaydilar, qo'llarining mayda harakatlari yaxshi rivojlanmagan.

Lug'at boyligi, o'z fikrlarini ifodalashi chegaralangan, xotirasi sust, umumlash-tirishni bajara olmaydi va hokazo. Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy ahvoli sabab bo'ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yengil tug'ma jarohatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab bo'ladi. Bola o'qishni butun mamlakat oldida javobgar bo'lgan o'z burchi, kishilarning mehnat hayotidagi ishtiroki tarzida anglay boshlaydi. Bola o'quvchi bo'lgandan so'ng, maktabgacha ta'lim yoshidagiga nisbatan sifat jihatdan yangi o'rin egallaydi. Ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati maktab ta'lim tizimini doimo takomillashtirib borishidir. Maktab ta'limiga 1-sinfga keluvchi o'quvchidan qandaydir maxsus bilim va ko'nikmalarni emas, balki ilgarigi yillarga nisbatan aqliy faoliyatning murakkabroq shakllarini, axloqiy irodaviy sifatlarining yuksakroq rivojlangan darajasini o'z xatti-harakatini boshqarish qobiliyatini katta ishonchlilik qobiliyatini. talab qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifasi ta'lim - tarbiyaviy ishining butun sistemasi bilan bolalardan maktab ta'limi talablariga to'liqroq muvofiq keluvchi maktabda o'qishga tayyorgarlikni tarkib toptirishdir.

Shunga ko'ra psixologik-pedagogik adabiyotlarda tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsini rivojlanish sifatida aniqladi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlardan maktabga, o'qishga, umumiy psixologik tayyorgarlik va "maxsus tayyorgarlik" tarzida ko'rib chiqiladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik bolalar bog'chasining maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli maqsadga muvofiq ta'limtarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi. Maktabga tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, irodaviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidaki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitiga va o'quv materialini yaratadi. Umumiy tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtai nazaridan 1-sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi





muhim sifat ko'rsatkichlarni muvofiqiyatli jamlaydi. Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi, o'quvchi bo'lish ishtiyoqidan bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasi bolaning o'quv faoliyati elemintlarini egallashi, iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'luvchi asoslangan tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligining barcha majmua bolani sinf jamoasiga olib kirish, maktabda o'quv materialini ongli faol egallash, keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi. Bolaning maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorgarligiga qo'shimchadir. U bolada matematika va ona atili kabi o'quv fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda eng oddiy matematik tasavvurlarni tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda 3 savodni egallashga tayyorlash yuzasidan o'tadigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi. Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi tizimiga faol aqliy faoliyatga tayyorlangan bo'lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak. Bolaning maktabda o'qishga umumiy tayyorgarligi mazmunida bir necha o'zaro bog'langan jihatlar mavjud bo'lib, ulardan muhimlari ma'naviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir. Maktabda o'qishga axloqiy, irodaviy tayyorgarlik bolaning maktabga bolalik oxiriga kelib axloqiy xatti-harakat iroda axloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai-nazarni faol egallashga hamda o'zining o'qituvchi, sinfdoshlar bilan o'zaro munosabatlarini axloqiy asosda qurishiga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi. Maktabni, axloqiy-irodaviy tayyorgarlik mazmunini o'quvchi tutgan o'rnidan kelib chiquvchi bola shaxsi hamda xilqiga qo'yiladigan talablarga ko'ra aniqlanadi. Bu talablar maktabda o'qishning dastlabki kunlaridanoq o'quvchi oldiga o'quv majburiyatlarini mustaqil va ma'suliyatni his etgan holda bajarish tartibli va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishini talab etadi. Bu yuksak talablarni bajarishga tayyorlash oldindan maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada maktyabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan davomli, maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ish jarayonida amalga oshiriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsiy hulqatvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha tarbiya yoshi davomida rivojlanadigan o'z xulq-atvorini boshqarish qobilyati qoidani yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish asabiylashib ketishga erk



bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalg'itadiganiga qarshi o'laroq oxirigacha bajarish ko'nikmasi va shu e'tiborga loyiqdir. Bo'lajak o'quvchi xulq-atvoridagi ixtiyorilikni rivojlanish asosini maktabgacha tarbiya yoshi oxiriga kelib tarkib topadigan sabablar, o'zaro bo'ysinuvchilari tashkil qiladi. Sabablarning o'zaro bo'ysinganligi katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ushbu daqiqadagi o'z ishtiyoqlarini ma'naviy ahamiyatli maqsadlar yo'lida yengish uchun irodaviy, ongli intilishlariga aloqadordir.

Maktabgacha ta'limda axloqiy-irodaviy tayyorgarlikning qaror topishida, shuningdek, tayyorlov guruhidagi bola shaxsiy xulq-atvoridagi mustaqillik, uyushganlik va intizomlilik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir. Tayyorlov guruhidagi bolada mustaqillikni muvoffaqiyatli shakllanishining dalolati tarbiyachining eslatish va ko'magisiz xulq-atvor qoidalari bajarish, yangi sharoitlarda harakatning to'g'ri odatiy usullaridan foydalanish yordam berishga tayyorlik qobilyatidir. Mustaqillik bilan uzviy bog'langan xulq-atvordagi uyushganlik va intizomlilik bola xulq-atvoridagi maqsadga yo'llanganlikda o'z faoliyatini maktabgacha ta'lim 4 muassasalarida qabul qilingan qoidalarga muvofiq ongli tashkil eta bilishda faoliyat natijasiga erisha bilish va uni nazorat qilish, o'z xulq-atvorini boshqa bolalarniki bilan muvofiqlashtirish o'z xatti-harakatlari uchun shaxsiy ma'suliyatni his qilishda o'z ifodasini topadi. Tayyorlov guruhi bolalar xulq-atvoridagi mazkur xususiyatlarning mavjudligi maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikni shakllantirishning isboti xizmatini o'taydi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning boshqa muhim tarkibiy qismi bolaning katta yoshlilar va tengqurlari bilan o'zaro munosabatlarini qoidalarga muvofiq tashkil eta bilishdir. Tajribaning ko'rsatishicha, maktabdagi o'qish sharoitlariga moslashish oldingi yillarda bolalarda "jamoachilik" sifatleri: do'tlarga nisbatan xayrixoh, xushmuomilalik, g'amxo'rlik bildirish, o'zaro yordamga hozirlikning qanchalik muvoffaqiyatli shakllantirilganligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Bola xulq-atvorida jamoatchilik xislatlarini bunday majmuining mavjudligi uni maktabga, axloqiy, irodaviy tayyorligining ko'rsatkichi bo'la oladi va yangi jamoada tengqurlari bilan muomilada ko'tarinki ijobiy ruxni yuzaga keltiradi.

Maktabda bolaning o'qituvchi bilan o'zaro munosabati ham ishga oid yangi asosda tashkil topadi. O'qituvchining baxosi o'quvchi bilimi va uni o'quv majburiyatlarini bajarish sifatining mezoniga aylanadi. Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga o'qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo haqida





yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo'lishidir. Bilimlarning bu fondi o'qituvchi o'z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos hisoblanadi. Bolani maktabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko'rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchlar mazmuni va hajmining to'liqligi; o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustqkil qo'llana olish qobiliyatlari; muntazamlilik, ya'ni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir. Bolani maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiyqismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'lishidir

Birinchi dan bilish jarayonining o'sib boruvchi ixtiyoriyligi; materialni ma'no jihatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok etish, qo'yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilar;

Ikkinchi dan bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi;

Uchinchi dan bolada atrof dunyoga bilish munosabatlari, bilimlarni egallash va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqliy tayyorlik tarkibiga shuningdek, savodning boshlang'ich asoslari oddiy matematik tasavvurlar, ona tili yetarlicha keng bilim, ko'nikma va malakalar doirasi ham kiradi.

Shunday qilib, maktabdagi o'qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bilish faoliyati, qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof, dunyo haqidagi anglangan sistemalashtirilgan tasavvurlar hamda elementlar, tasavvurlar va elementar o'quv faoliyati umumiy darajasining birligi bolalarda maktabdagi o'quv materialini egallashga aqliy tayyorlikni vujudga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarni va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bo'lishini yodda tutishlari lozim. Shundagina, ba'zi bolalar endigina birinchi so'zlarni o'zlashtirganlarida ularning tengqurlari allaqachon ma'lum bir iboralar bilan gaplasha oladigan bo'ladilar.





FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulova, Saida Sabirovna, and Orif Tursunovich Tillahojayev. "PECULIARITIES OF TRAINING MUSIC TEACHERS FOR INNOVATIVE EDUCATIONAL ACTIVITIES." Academic research in educational sciences Special Issue 4 (2021): 14-17.
2. Tillaxo'jayev, O. "FORMATION OF INTERNATIONAL VIRTUE IN STUDENTS THROUGH STUDYING THE LIFE AND CREATION OF COMPOSER SULAYMON YUDAKOV." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.11 (2022): 122-127.
3. Askarova, S. "Great Song Genre in the Ethno Music of Uzbek Folk Music." 2021.

A large, light blue watermark graphic in the center of the page. It features a central lightbulb icon surrounded by a complex geometric pattern of interconnected lines and nodes, resembling a network or a molecular structure.

**Research Science and
Innovation House**



"Shegellalar – dizenteriya qo‘zg‘atuvchisi"

Alfraganust universiteti nodavlat oliy ta‘lim tashkiloti
Tibbiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Ziyodullayeva Iroda Baxriddinovna

Gmail: irodaziyodullayeva67@gmail.com Teli: +99897 374 25 05

Annotatsiya

Ushbu maqolada dizenteriya kasalligining asosiy etiologik omili bo‘lgan Shigella turkumiga mansub bakteriyalar — shegellalarning morfologik, biologik va epidemiologik xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada shegellalarning inson organizmiga kirish yo‘llari, ularning patogenlik mexanizmlari, shuningdek, immunologik javob va organizmda yuzaga keladigan o‘zgarishlar ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, dizenteriyaning klinik belgilari, diagnostika usullari va zamonaviy davolash choralari haqida ma‘lumot berilgan. Antibiotiklarga nisbatan rivojlanayotgan rezistentlik holatlari va uning jamoat salomatligiga tahdidi alohida e‘tiborga olingan. Maqola infeksiyon kasalliklarning oldini olish va nazorat qilishda mikrobial monitoring va sanitariya-profilaktika choralari muhimligini ta‘kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Shigella, dizenteriya, shegellalar, enterobakteriyalar, patogenlik, antibiotik rezistentligi, epidemiologiya, infeksiyon kasalliklar, sanitariya, immun javob.

Annotation:

This article examines the morphological, biological, and epidemiological characteristics of Shigella bacteria, the primary causative agents of dysentery. It discusses the entry pathways of shigellae into the human body, their mechanisms of pathogenicity, and the immune responses and physiological changes they provoke. The paper also covers the clinical manifestations of dysentery, modern diagnostic techniques, and current treatment methods. Special attention is given to the growing problem of antibiotic resistance among Shigella species and its implications for public health. The article emphasizes the importance of microbial monitoring and preventive sanitary measures in controlling infectious diseases.

Keywords: Shigella, dysentery, shigellae, enterobacteria, pathogenicity, antibiotic resistance, epidemiology, infectious diseases, sanitation, immune response.





Аннотация

В данной статье рассматриваются морфологические, биологические и эпидемиологические характеристики бактерий рода *Shigella*, являющихся основными возбудителями дизентерии. Описаны пути проникновения шигелл в организм человека, механизмы их патогенности, а также иммунный ответ и физиологические изменения, вызываемые инфекцией. Особое внимание уделено клиническим признакам дизентерии, современным методам диагностики и терапии. Отдельно анализируется проблема растущей устойчивости шигелл к антибиотикам и её последствия для общественного здравоохранения. Подчеркивается значимость микробиологического мониторинга и санитарно-профилактических мер в борьбе с инфекционными заболеваниями.

Ключевые слова: *Shigella*, дизентерия, шигеллы, энтеробактерии, патогенность, антибиотикорезистентность, эпидемиология, инфекционные заболевания, санитария, иммунный ответ.

Kirish

Dizenteriya — bu odamlar orasida keng tarqalgan infeksiyon kasallik bo‘lib, asosan *Shigella* turkumiga mansub bakteriyalar tomonidan qo‘zg‘atiladi. Ushbu kasallik, asosan ichaklarning shilliq qavatini zararlaydi, natijada suyuq, qonli diareya, ichki og‘riqlar va umumiy holsizlik kabi klinik belgilarga olib keladi. *Shigella* bakteriyalari, inson organizmiga turli yo‘llar bilan kirib, yuqori patogenlikka ega bo‘lib, tezda infeksiyani yuqtirish va yuksaltirish xususiyatiga ega. Dizenteriyaning etimologiyasi va epidemiologiyasi mikrobial infeksiyalarning o‘rganilishini talab etadi, chunki ushbu kasallikning tarqalishiga ijtimoiy, sanitariya va tibbiy sharoitlar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. *Shigella* turkumiga kiruvchi bakteriyalar, o‘z navbatida, to‘rt xil guruhga bo‘linadi: *Shigella dysenteriae*, *Shigella flexneri*, *Shigella boydii* va *Shigella sonnei*. Har bir guruhning o‘ziga xos patogenetik xususiyatlari va epidemiologik tarqalishi mavjud bo‘lib, bu ularning diagnostikasi va davolash jarayonlarini murakkablashtiradi. Dizenteriya yuqtirishning asosiy omillari orasida sanitariya holati, shaxsiy gigiena, toza ichimlik suvi bilan ta’minlanish va sog‘lom oziqlanishning yetishmasligi muhim o‘rin tutadi. Kasallikning oldini olish va davolashning samarali usullarini ishlab chiqish uchun *Shigella* bakteriyalarining biologik va molekulyar xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarur. Bugungi kunda, antibiotiklar va boshqa farmakologik preparatlar yordamida dizenteriyaning davolanishi mumkin bo‘lsa-da, bakteriyalarning antibiotiklarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati kasallikning bartaraf etilishida katta to‘siq



bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada Shigella bakteriyalarining patogenlik mexanizmlari, dizenteriyaning klinik belgilari, diagnostikasi, davolash usullari va antibiotiklar rezistentligi kabi muhim masalalar yoritiladi. Shuningdek, kasallikning oldini olish, mikrobiologik monitoring va sanitariya-profilaktika tadbirlari bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Shigella bakteriyalarining morfologik va biologik xususiyatlari. Shigella turkumiga mansub bakteriyalar – gram-manfiy, fakultativ anaerob, harakatsiz, sporalar hosil qilmaydigan tayoqchasimon mikroorganizmlardir. Ular Enterobacteriaceae oilasiga kiradi. Mikroskopik ko‘rinishda 2–4 mkm uzunlikdagi tayoqchalar shaklida bo‘lib, ularning tashqi qobig‘i lipopolisaxarid qatlamdan iborat bo‘lib, u patogenlikning muhim omilidir. Shigella bakteriyalari oddiy oziq muhitlarda (masalan, MacConkey agari, Endo muhitlari) yaxshi o‘sadi va 37°C haroratda 24 soatda koloniyalar hosil qiladi. Fermentativ faolligi past bo‘lib, laktoza va boshqa uglevodlarni fermentatsiya qilish qobiliyatlari bilan guruhlarga ajratiladi. Patogenlik va yuqtirish mexanizmi. Shigella bakteriyalari inson organizmiga asosan og‘iz orqali — ifloslangan oziq-ovqat, suv yoki kasallangan odam bilan bevosita aloqa orqali kiradi. Ular to‘g‘ri ichakka yetib borib, uning shilliq qavatiga yopishadi va ichki hujayralarga kiradi. Bakteriyalarning asosiy patogenlik omillari quyidagilardan iborat: Invazivlik (kirish qobiliyati): Shigella hujayralarga kirib, ularning ichida ko‘payadi. Shiga toksini: Ba’zi turlari (ayniqsa *S. dysenteriae*) kuchli ekzotoksin ishlab chiqaradi, bu ichak epiteliyasining nekroziga olib keladi. Apoptozni chaqiruvchi faktorlar: Immun hujayralarni yo‘q qiladi, bu esa yallig‘lanish jarayonini kuchaytiradi. Infeksiya natijasida ichak shilliq qavati shikastlanib, eroziya va yara hosil bo‘ladi, bu esa qonli va shilimshikli diareyaga olib keladi. Klinik belgilari. Shigelloz (bakterial dizenteriya) o‘tkir boshlanadi. Inkubatsion davri odatda 1–3 kun. Asosiy klinik belgilar quyidagilardan iborat. Tez-tez ich ketishi (kuniga 10–30 martagacha), ba’zida qon va shilimshiq bilan. Qorin og‘rig‘i, ayniqsa pastki chap sohada. Harorat ko‘tarilishi (38–40°C). Umumiy holsizlik, bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi. Ba’zida, og‘ir holatlarda dehidratatsiya va intoksikatsiya belgilari. Diagnostika. Shigellozni aniqlashda quyidagi usullar qo‘llaniladi. Bakteriologik tekshiruv: Najas namunalaridan Shigella izolyatsiya qilinadi va identifikatsiya qilinadi. Serologik usullar: Agglyutinatsiya testi yoki ELISA orqali Shigella antigenlarini aniqlash. Molekulyar diagnostika: PCR yordamida bakterial DNK aniqlanadi — tez va yuqori aniqlikka ega. Davolash va profilaktika. Shigellozni davolashda asosiy



yoʻnalishlar. Regidratatsiya terapiyasi: Suv-tuz muvozanatini tiklash uchun oral yoki vena orqali eritmalar yuboriladi. Antibiotik terapiyasi: Ampitsillin, trimetoprim-sulfametoksazol, siprofloksatsin kabi dori vositalari qoʻllaniladi. Ammo antibiotiklarga nisbatan rezistentlik holatlari ortib bormoqda, bu esa individual davo yondashuvini talab etadi. Probiotiklar va simptomatik davolash: Ichak mikroflorasini tiklash va simptomlarni yengillashtirish uchun qoʻllaniladi. Epidemiologiya va profilaktik choratadbirlar. Shigelloz odatda suv va oziq-ovqat orqali yuqadigan kasalliklar sirasiga kiradi. Bolalar, qariyalar va immuniteti pasaygan shaxslar orasida yuqori xavf mavjud. Kasallikning oldini olishda quyidagi choralar muhim. Shaxsiy gigienaga amal qilish. Ichimlik suvi sifatini nazorat qilish. Ovqat tayyorlash va saqlash qoidalariga rioya qilish. Kasallik aniqlangan taqdirda karantin va dezinfeksiyaga rioya qilish.

Empirik tahlil

Shigellozning epidemiologiyasi va klinik ifodalanishlarini chuqur oʻrganish uchun bir nechta amaliy kuzatuvlar va laborator tahlillar oʻtkazilgan. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (WHO) maʼlumotlariga koʻra, har yili dunyo boʻylab 165 milliondan ortiq inson shigellozga chalinadi, ulardan taxminan 1 million nafari infeksiya oqibatida hayotdan koʻz yumadi. Ushbu kasallik ayniqsa 5 yoshgacha boʻlgan bolalar orasida yuqori xavf tugʻdiradi. Oʻzbekiston Respublikasida oʻtkazilgan monitoring natijalari ham bu holatni tasdiqlaydi. Klinik kuzatuvlar asosida olingan natijalar. Toshkent viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasida 2023-yilda oʻtkazilgan kuzatuvlarga koʻra. Bemorlarning 60% ida kasallik ogʻir shaklda kechgan. 75% bemorda qon va shilimshiq bilan kechuvchi diareya, 68% bemorda esa yuqori harorat ($>38,5^{\circ}\text{C}$) kuzatilgan. Antibiotiklar bilan oʻtkazilgan standart terapiya 82% holatda samarali boʻlgan, biroq 18% holatda rezistent shakllar aniqlangan. Laboratoriya tahlillari. Shigella izolyatlari najas namunalariidan ajratib olingan va quyidagi jihatlar boʻyicha tahlil qilingan. Mikrobiologik oʻsish. MacConkey va SS (Salmonella-Shigella) muhitlarida 24–48 soat ichida koloniya oʻsishi kuzatildi. Gram boʻyash: Gram-manfiy tayoqchalar aniqlangan. Biokimyoviy testlar: Katalaza musbat, oksidaza manfiy, laktoza fermentatsiyasi har xil guruhlar boʻyicha farqlanadi. Antibiotik sezuvchanlik testi (disk diffuziya usuli). Ampitsillin va tetratsiklinlarga nisbatan yuqori darajada rezistent (40–55% holat). Siprofloksatsin va azitromitsin kabi zamonaviy antibiotiklarga esa 85% dan ortiq sezuvchanlik qayd etilgan. Aholi orasida sanitariya va gigiena boʻyicha soʻrovnoma. 2024-yilda Fargʻona viloyatining qishloq aholisi orasida oʻtkazilgan soʻrovnoma natijalariga koʻra: 47% respondentlar ichimlik suvi manbasining tozaligiga ishonch



bildirmagan. 32% respondentlar gigiena qoidalariga doimiy amal qilmasligini tan olgan. 18% hollarda kasallik oila a'zolari orasida tarqalgan, bu esa "oilaviy o'choq" nazariyasini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, shigellozning yuqori tarqalish darajasi sanitariya-gigiena holati bilan bevosita bog'liq bo'lib, kasallikning oldini olish uchun aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va bakteriyalarni erta aniqlash bo'yicha tizimli ishlar talab etiladi. Antibiotiklar sezuvchanligini aniqlash esa har bir klinik holat uchun individual davo yondashuvini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Shigelloz — butun dunyo bo'ylab, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan muhim ichak infeksiyalaridan biridir. Uning etiologik omili bo'lgan *Shigella* turkumiga mansub bakteriyalar yuqori darajadagi patogenlik xususiyatiga ega bo'lib, qisqa inkubatsiya davrida og'ir klinik simptomlarni keltirib chiqaradi. Ularning morfologik va biologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, infeksiyaning yuzaga kelish mexanizmlarini anglashda va samarali diagnostika-tuzatish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda antibiotiklarga nisbatan rezistentlikning ortib borayotgani shifokorlar va olimlar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu sababli, zamonaviy mikrobiologik monitoring tizimlarini joriy etish, muqobil terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, aholining sanitariya-gigiyena madaniyatini oshirish infeksiyalarning oldini olishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, shigelloz profilaktikasida vaksinalar ustida olib borilayotgan tadqiqotlar kelajakda kasallikka qarshi kurashda samarali vosita bo'lishi mumkin. Shunday qilib, *Shigella* bakteriyalarining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish va jamoat salomatligi uchun xavf omillarini tahlil qilish orqali shigellozga qarshi kurashish strategiyalarini kuchaytirish mumkin. Bu esa, infeksiyaning tarqalishini kamaytirib, umumiy sog'liqni saqlash holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Research Science and
Innovation House





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Todar, K. (2020). Shigella and Shigellosis. Todar's Online Textbook of Bacteriology.
2. World Health Organization (WHO). (2023). Shigellosis: Fact Sheet. Geneva: WHO.
3. Ryan, K.J., & Ray, C.G. (2019). Sherris Medical Microbiology (7th ed.). McGraw-Hill Education.
4. Cheesbrough, M. (2014). District Laboratory Practice in Tropical Countries. Cambridge University Press.
5. CDC – Centers for Disease Control and Prevention. (2022). Shigella – General Information.
6. Uzbek Research Institute of Epidemiology, Microbiology and Infectious Diseases. (2021). Mikrobiologiya asoslari va amaliyoti.

A large, faint, light blue watermark logo is centered on the page. It features a lightbulb inside a circular frame, which is surrounded by a complex geometric pattern of interconnected lines and nodes, resembling a molecular or network structure.

**Research Science and
Innovation House**





Maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi ta'minlash.

Andijon davlat pedagogika instuti
Pedagogika psixologiya kafedrasida assistent
o'qtuvchisi **Kadirova Omadxon Sobirjonovna**
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Muhammadaminova Muslimaxon Abdumo'min qizi.

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini ta'minlashning ahamiyati yoritilgan. Bunda bolalarni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi va ma'naviyatni shakllantirishda muhim tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: Maktabgacha ta'lim yoshi, tarbiyalanuvchi, tarbiyalash, ta'lim va tarbiya uyg'unligi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va jahon hamjamiyati tomonidan rivojlangan davlat sifatida o'rin olish vazifasi qo'yildi. Albatta yurtimizda jahon talablariga mos keladigan, har tomonlama rivojlangan, o'z kasbini puxta egallagan, vatanparvar fidoyi insonlarni tarbiyalab yetishtirishda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini o'qitishni yanada yuksak bosqichga ko'tarish, uning tarbiya bilan uyg'unligini ta'minlash katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalqi tarixan Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash sohasida o'ziga xos dorulfunun yaratgan. Bu borada xalq pedagogikasi boy tajribaga ega. Bugungi kundagi Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etishda uning o'rni beqiyosdir. Ta'lim va tarbiya mazmunining uyg'unligi tamoyili bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo'lib, bunda egallangan bilim va ko'nikmalarni hayotga qo'llay olishga o'rgatiladi, hayotda ta'lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan uyg'unlikda rivojlanishi ta'minlanadi. Yaxlit ta'lim - tarbiya jarayonida ikkala o'zaro bog'liq juftlik, ya'ni bilim berish va tarbiyaviy ko'nikmalarni shakllantirish hamda shakllangan ta'limiy - tarbiyaviy bilimlar va ko'nikmalar bo'yicha faoliyat ko'rsatishga o'rgatish, obektiv borliqdagi qonuniyatlarni o'rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda



namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta‘lim oluvchilarga bilim berishda egallangan bilimni amalda ishlatishga o‘rgatish bilan birga ta‘lim tarbiyalovchi ham bo‘lishi kerak.

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta‘sir etish imkonini beradi. Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki faoliyatni - o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiyajarayonida o‘quvchining ongi shakllana boradi, his va tuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlari hosil bo‘ladi. Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsiga tashqi omillarning (xoh ijobiy, xoh salbiy) ta‘siri bolaning ularga munosabatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Bugungi globallashuv va texnika asrida yangi avlodning ma‘naviy tarbiyasini boyitish, shu bilan bir qatorda moddiy e‘htiyojlarini qondirish dolzar masala bo‘lib turibdi. Mana shu davrda inson ma‘naviyatini rivojlantirish hamda moddiy e‘htoyojlarini qondirishda katta maqsadli vazifalarni amalga oshirish lozim. Chunki bola uchun yaratilgan shartsharoitlar, bilimlar, to‘g‘ri olib borilgan tarbiya shu bilan birga ta‘limning uyg‘unligi tanimlash kelajakdagi orzularimizni ro‘yobga chiqarishga poydevor vazifasini o‘taydi. Bejizga ajdodlarimiz bola tarbiyasini ona vujudidan boshlashimiz lozim deyishmagan. Chunki ma‘naviy jihatidan yetuk farzandlar bizning kelajagimiz demakdir. Shu sababli ham maktabgacha ta‘lim yoshidagi tarbiyalanuvchilariga alohida e‘tibor ko‘rsatilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentabrdagi 637- sonli Qaroriga binoan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 7-moddasida Maktabgacha ta‘lim, ta‘lim sohasining bosh bo‘g‘ini sifatida tasdiqlanganligi buning yaqqol isbotidir.

Ta‘lim va tarbiyaning uyg‘unligini to‘g‘ri olib borishda o‘quv materialini to‘g‘ri tanlash. Bunda ta‘lim mazmuniga oid quyidagi jihatlarga e‘tibor beriladi. O‘quv materialini tanlashda mashg‘ulotning maqsadi, ta‘lim oluvchilarning oldingi mashg‘ulotlarda olgan bilim va malakalariga, fan asoslariga oid bilimlarga, ta‘lim oluvchilarning jismoniy rivojlanganligiga va shu kabilarga. O‘quv materialini mazmuni ta‘lim oluvchilarning oldingi tajribalari va fan asoslari bo‘yicha olgan bilimlariga hamda mashg‘ulotning maqsadiga muvofiq holda tanlanadi.

Ta‘lim mazmunining ko‘rgazmalilik tamoyiliga ko‘ra ta‘lim vositalaridan foydalanishning didaktik tamoyilidir. Shu sababli o‘rganilayotgan tushunchalarning mazmunini ochib berishga oid manbalar (pedagogik hodisa va jarayonlar) ajratib olinib o‘rganiladi va o‘rgatiladi. Ajratib olingan manbalarining ko‘rgazmaliligini kuchaytirish



uchun turli qo'llash usullari (rangli, raqamli, harfli va shu kabilar) qo'llaniladi. Manbalarni o'qitish jarayonida ular bilan ishlash uslublaridan asosiylari kuzatish va tajriba o'tkazish hisoblanadi. O'rganilayotgan hodisa va voqealarni jonli idrok etish asosida o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Bu o'quv materialini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalardan to'g'ri foydalanish ta'lim oluvchilarning pedagogika, psixologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi, o'qitish uslubi va texnikaga oid fanlarni puxta o'zlashtirib olishga ularda malaka hosil bo'lishiga yordam beradi. Agar ko'rgazmali qurol biron fikrni bildirish uchun yordamchi vosita bo'lsa, nutq asosiy qurol hisoblanadi. Ko'rgazmali qurol kuzatishni rivojlantirish uchun qo'llanilsa, nutq qisqa bo'lib kuzatishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. Biz bu jarayonda albatta ta'limning ko'rgazmalilik tamoyillaridan foydalanamiz.

Ta'limning ko'rgazmalilik tamoyilining yana bir vazifasi ta'lim jarayonidagi sifatni oshirishga, ta'lim oluvchilarning bilim olishlarini osonlashtirishga (oydinlashtirishga) qaratilgan faoliyat bo'lib, unda ta'lim oluvchilardagi o'rganilayotgan jarayonlarni (narsa va hodisalarni) bevosita hissiy – amaliy jihatdan idrok qilish asosida bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish jarayoniga asosdir.

Ta'limda onglilik va faollik tamoyilida ko'ra ta'lim oluvchilar bilimini hayotda qo'llay bilishlari uchun ta'lim mazmuni va unga mos ta'lim berish jarayonini faol fikrlash faoliyatiga aylantirishga to'g'ri keladi, ya'ni o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, bunda ta'lim oluvchilar bilimlarini dars mashg'ulotlarida ongli va faol qatnashib egallab olsinlar. Shunda ta'lim oluvchilarda ong o'sib, ijtimoiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik tarkib topadi. Ta'limning onglilik tamoyili ta'lim oluvchilarda tushuncha va qoidalarni yodlash va esda saqlash bilan ularni egallash emas, balki bu bilimlarni hayotiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan mazmunini tushunishlaridadir. Bu tamoyil tafakkurini shakllantiruvchi qoida bo'lganligi uchun ham ta'lim oluvchilarni muammoni mustaqil hal qilishga o'rgatadi. Shu bilan bir qatorda ta'lim berishga ilmiy yondoshganda ta'lim mazmunini ilmiy asosda tashkil etish tamoyilidan foydalaniladi unga ko'ra ta'lim oluvchilarni o'qitish ishlarini faollashtiradigan, ongini o'stiradigan, ilmiy dunyoqarashini kengaytiradigan, ularni mustaqil ta'lim olishga yo'naltiradigan usullarga o'rgatadi.

Ushbu jarayonda shuni takidlab o'tish lozimki, ta'lim va ta'rbiya uyug'inligini ta'minlashda faqat ilmi jihatdan yondoshib bo'limaydi. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unlashtirishda oilaning o'rni beqiyos albatta. O'zbek xalqi tarbiya borasidagi boy



tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma'lumotlaridan foydalanadi. Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlash lozim. Tarbiya aqlli, odobli, mehnatsevar, bilimli, sog'lom, e'tiqodli, dilipok, har tomonlama ma'naviy rivojlangan, vatanparvar, insonparvar, barkamol shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Tarbiya mahalliy, ijtimoiy - iqtisodiy shart - sharoitlar, milliy an'analar va mintaqalararo xususiyatlarni hisobga olgan holda olib boriladi. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi. Xarakteri, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniyar kabi ulug' allomalarimiz inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar. Tarbiya jarayonida kattalar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi hisoblanadi. Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog'liqdir.

Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga bogliq. Tarbiyajarayoni murakkabdir. Shuning uchun ham u tarbiyachidan bolaning ruhiy holati, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, mehribonlik bilan yondashishni talab qiladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsini diqqat bilan o'rganishi, ularni tushunishi, hurmat qilishi lozim.

Tarbiyalanuvchilarning hayotiy faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq va ularning munosabatlari oqilona tashkil qilinar ekan, tarbiyajarayoni shunchalik samarali amalga oshiriladi. Insonni uning atrofini qurshab turgan vositalar: oila, ota-onasi, maktab, do'stlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar tarbiyalaydi. Shaxsning rivojlanish va shakllanish jarayonini boshqarib borish kerak. Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumxalq ishi va uzluksiz bo'lsin, barcha yoshdagi bolalarni qamrab olsin, turli ijtimoiy, jamoat va davlat institutlari va muassasalarining shaxs o'zaro munosabatda bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
2. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2018 yil 21 sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.// "Xalq so'zi" gazetasi 2018 yil 8 dekabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat", 2008, 43-bet.
5. Quronov.M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz... .T. "Ma'naviyat", 2014, 22-bet.



Research Science and
Innovation House



BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH TUSHUNCHASI.

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika psixologiya kafedrasida assistent
o'qituvchisi **Kadirova Omadxon Sobirjonovna**
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.
Asidinova Shahnoza Shuxratbek qizi

ANNOSTATSIYA: Ushbu maqola “Bolalarni maktabga tayyorlash tushunchasi” masalasini kompleks yondashuv asosida tahlil qiladi. Maqolada bolaning maktabga tayyorlanish jarayoni faqat aqliy tayyorgarlik bilan cheklanmasligi, balki uning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta e'tibor qaratilishi lozimligi haqida gap boradi. Erta yosh davridagi tarbiya, ya'ni g'odaklik davridagi 3 yoshgacha bo'lgan davrning ahamiyati Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” asari asosida ta'kidlanadi. Shuningdek, maqola maktabgacha ta'limda ota-onalar va tarbiyachilarning, xususan, malakali pedagoglarning roli, guruh tarkibi va amaliyotga o'xshash tayyorgarlik jarayonining ahamiyatini ko'rsatadi. Hududiy rivojlanish va qishloq, tuman hududlarida sifatli ta'limni ta'minlash borasida Prezidentning qabul qilingan qarori muhim o'rin egallaydi. Umuman olganda, maqola maktabga tayyorlash tizimini yaxshilash va har bir bolaning individual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni tavsiflaydi.

Kalit so'zlar. Jismoniy tayyorgarlik, zehn, tarbiyachi o'rni, muassasa, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, amaliyot, guruhlar, psixologik tayyorgarlik, ota ona ro'li, uchdan keyin kech.

Bolalarni maktabga tayyorlash tushunchasi doirasida eng asosiy qadam – bu bolaning g'odaklikdan boshlab tarbiyasini yo'lga qo'yishdir. Hozirgi kunda pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolani rivojlantirish uchun 3 yoshgacha bo'lgan davr eng muvofiq hisoblanadi. Masaru Ibuka o'zining “Uchdan keyin kech” asarida aynan shu yosh davrning ahamiyatini ta'kidlab, 3 yoshli bolaning nafaqat o'z ona tilida balki boshqa tillarda ham muloqotga kirishish qobiliyati kuzatilganini aytadi.





Ibuka fikricha, bola tarbiyalashning yagona andozasi yo‘q; har bir bolaga individual yondashuv talab etiladi. Har bir bola o‘ziga xos qobiliyatlarga ega bo‘ladi, lekin ularning to‘laqonli shakllanishida ilmi onaning roli beqiyos. “Ilmi ayoldan ilmi farzand dunyoga keladi”, degan qadriyatni Ibuka va boshqa pedagoglar, xususan Glen Doman ta’kidlaydi. Bu yerda nafaqat onaning balki, otaning ham bola tarbiyasidagi muhim o‘rnini eslatish lozim. Bola tarbiyasi — bu ota-onaning birgalikdagi mas’uliyati bo‘lib, har ikkala tomonning bilim, sabr-toqat va yondashuvi uning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta’sir qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, maktabga tayyorlash jarayonida homila davridan boshlab, g‘odaklik davri va 3 yosh atrofida faol e’tibor berish zarurligi ochiq-oydin tasdiqlanadi. Shu bilan birga, har bir bolani mustaqil shakllantirish, uning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarbiya jarayoni olib borilishi shart.

Ushbu yondashuv nafaqat bolaning til o‘rganish qobiliyatini, balki uning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy ko‘nikmalari va psixologik barqarorligini ta’minlaydi. Shu sababli, bolani maktabga tayyorlashda ota-onalar va tarbiyachilarning tajribali yondashuvi, shaxsiy ehtiyojlarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Erta yoshdagi tarbiya va Masaru Ibuka fikrlari asosida shaxsiy yondashuv

Bolalarni maktabga tayyorlash tushunchasi doirasida eng asosiy qadam – bu bolaning g‘odaklikdan boshlab tarbiyasini yo‘lga qo‘yishdir. Hozirgi kunda pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolani rivojlantirish uchun 3 yoshgacha bo‘lgan davr eng maqbul hisoblanadi. Masaru Ibuka o‘zining “Uchdan keyin kech” asarida aynan shu yosh davrning ahamiyatini ta’kidlab, 3 yoshli bolaning nafaqat o‘z ona tilida balki boshqa tillarda ham muloqotga kirishish qobiliyati kuzatilganini aytadi.

Ibuka fikricha, bola tarbiyalashning yagona andozasi yo‘q; har bir bolaga individual yondashuv talab etiladi. Har bir bola o‘ziga xos qobiliyatlarga ega bo‘ladi, lekin ularning to‘laqonli shakllanishida ilmi onaning roli beqiyos. “Ilmi ayoldan ilmi farzand dunyoga keladi”, degan qadriyatni Ibuka va boshqa pedagoglar, xususan Glen Doman ta’kidlaydi. Bu yerda nafaqat onaning balki, otaning ham bola tarbiyasidagi muhim o‘rnini eslatish lozim. Bola tarbiyasi — bu ota-onaning birgalikdagi mas’uliyati bo‘lib, har ikkala tomonning bilim, sabr-toqat va yondashuvi uning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta’sir qiladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, maktabga tayyorlash jarayonida homila davridan boshlab, g‘odaklik davri va 3 yosh atrofida faol e’tibor berish zarurligi ochiq-oydin tasdiqlanadi. Shu bilan birga, har bir bolani mustaqil shakllantirish, uning individual



qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiya jarayoni olib borilishi shart. Bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlash masalasi pedagogik sohada eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Maktabga tayyorlov jarayoni nafaqat bolalarning bilim darajasiga, balki ularning psixologik, emotsional va ijtimoiy holatlariga ham bevosita ta'sir qiladi. Bolaning maktabga qadam qo'yishidan avvalgi tayyorgarlik bosqichi, uning kelajakdagi ta'lim jarayoniga qanday munosabatda bo'lishini belgilab beradi.

Maktabga tayyorlash tushunchasi:

Maktabga tayyorlash — bu bolaning maktab hayotiga, ya'ni dars mashg'ulotlariga, o'qituvchi va sinfdoshlar bilan muloqotga, o'quv intizomiga moslashuvini ta'minlaydigan tayyorgarlik bosqichidir.

Tayyorgarlik turlari:

1. Aqliy tayyorgarlik – bolaning fikrlashi, eslab qolish, e'tibor va tafakkur darajasi.
2. Psixologik tayyorgarlik – bola mustaqil ishlay olish, topshiriqlarni oxirigacha bajarish, sabrli bo'lish.
3. Ijtimoiy tayyorgarlik – guruhda ishlash, o'qituvchini tinglash, sinfdoshlar bilan muomala qilish.
4. Jismoniy tayyorgarlik – bolaning sog'ligi, holati, yozish va chizish uchun motorik qobiliyatlari.
5. Tarbiyachilarning roli va maktabga tayyorlovdagi tizim takomillashuvi

Maktabga tayyorlash jarayonida nafaqat ota-onalar balki tarbiyachilar ham juda muhim o'rin egallaydi. Tarbiyachilarning faoliyati bolaning nafaqat bilim olishi balki ijtimoiy, psixologik va til ko'nikmalarini shakllantirishda ham asosiy omil hisoblanadi. Quyidagi jihatlar ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun zarur hisoblanadi:

- Malakali kadrlarning yetishmovchiligi va global muammolar:

Hozirgi kunda malakali, yetuk ilmga ega tarbiyachilarning yetishmasligi jahon miqyosidagi muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu kamchilik nafaqat pedagogik tizimga balki butun ta'lim tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

- Guruhlarda bolalar sonining optimal darajasi:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir guruhdagi tarbiyalanuvchilar sonining ko'p bo'lishi bolalarning individual rivojlanishini va bilim olish jarayonini sekinlashtiradi.





Shu bois, individual o'quv tizimini joriy etish, hamda bolalar soni kamaytirilgan guruhlar tashkil etilishiga alohida e'tibor berish zarur.

- Amaliyotga o'xshash tayyorgarlik jarayoni:

Maktabga tayyorlov jarayonida bolalarni amaliyotga jalb qilish, ya'ni bakalavr tizimidagi talabalar amaliyot jarayonida maktablarga tashrif buyurishi kabi, tarbiyalanuvchilarning ham maktab muhitiga tanishishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul orqali bolalar maktabda qanday jarayonlar ke'layotganini birinchi qo'ldan ko'rib, ularga moslashish osonlashadi.

- Tarbiyachilarning bilimlarini oshirish va kadrlar tayyorlash:

Yurtimizda tarbiyachilarning malakasini oshirish va yetarli kadrlar tayyorlash bo'yicha islohotlar jadal amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni qamrab olish ishlari kundan kunga takomillashmoqda, ayniqsa qishloq va tuman hududlaridagi tashkilotlarda ham bolalar ta'limini oshirish bo'yicha qadamlar mustahkamlanmoqda.

Ushbu yondashuv nafaqat bolalarning bilim olish jarayonini yaxshilaydi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, mustaqil o'quv tizimi va kichik guruh shakllari tarbiyachilar uchun ham samarali ish muhitini yaratadi, buning natijasida ularning professional rivojlanishi va bolalarga bo'lgan e'tibori oshadi.

Bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlash masalasi pedagogik sohada eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Maktabga tayyorlov jarayoni nafaqat bolalarning bilim olishi, balki ularning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir qiladi. Maktabga tayyorlashda bolaning g'odaklik davridan boshlab tarbiyasi va 3 yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri katta ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilarning yondashuvi asosiy rol o'ynaydi.

2. Nazariy asoslar

Maktabga tayyorlash tushunchasi bolaning maktab hayotiga moslashishini ta'minlash jarayonini anglatadi. Bu jarayon quyidagi jihatlarga ega:

Aqliy tayyorgarlik: Bolaning fikrlash, eslab qolish va e'tibor qobiliyatlarini shakllantirish.

Psixologik tayyorgarlik: Mustaqil ishlash, topshiriqlarni bajara olish, sabr-toqat va muloqot qobiliyatini rivojlantirish.





Ijtimoiy tayyorgarlik: Sinfdoshlar va o'qituvchilar bilan samarali aloqada bo'lish, guruhda ishlashni o'rganish.

Jismoniy tayyorgarlik: Bolaning motorik qobiliyatlari, yozish va chizish ko'nikmalari rivojlanishi.

3. Erta yoshdagi tarbiya va Masaru Ibuka fikrlari asosida shaxsiy yondashuv

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida eng muhim davr – bu g'odaklikdan boshlab 3 yoshgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Masaru Ibuka o'zining “Uchdan keyin kech” asarida aynan shu davrning ahamiyatini ta'kidlab, 3 yoshli bolaning nafaqat ona tilida, balki boshqa tillarda ham muloqot qila olishini kuzatgan pedagogik tajriba va ilmiy yondoshuvni keltiradi. Ibuka fikricha, bola tarbiyalashning yagona andozasi yo'q; har bir bolaga uning individual qobiliyatlariga mos yondashish talab etiladi. Shuningdek, bola tarbiyasida ilmi onaning o'rni juda katta – “Ilmi ayoldan ilmi farzand dunyoga keladi” degan qadriyatni u ilgari suradi. Bu qarash orqali bolaning til rivoji va shaxsiy qobiliyatlarini mustahkamlash, shu bilan birgalikda ota-onalar va tarbiyachilarning birgalikdagi yondashuvi ahamiyat kasb etadi.

4. Tarbiyachilarning roli va maktabga tayyorlov tizimini takomillashtirish

Maktabga tayyorlash jarayonida nafaqat ota-onalar balki tarbiyachilar ham katta o'rin egallaydi. Tarbiyachilarning faoliyati bolaning bilim olishi, ijtimoiy ko'nikmalari va psixologik rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi chora-tadbirlar muhimdir:

Malakali kadrlar yetishmovchiligi: Hozirgi kunda yurtimizda yetuk, ilmga ega tarbiyachilarning yetishmasligi global ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biridir.

Optimal guruh tarkibi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir guruhdagi tarbiyalanuvchilar sonining kamaytirilishi, individual o'quv tizimini joriy etish bolaning rivojlanishi va bilim olish jarayonini samarali tashkil etadi.

Amaliyotga o'xshash tayyorgarlik jarayoni: Bolalarni, bakalavr talabalarining maktab muhitiga tanishish jarayoniga o'xshash tarzda, amaliy faoliyat bilan tanishtirish muhim. Bu orqali ular maktabga moslashishda ancha osonlikka erishadilar.

Tarbiyachilarning malakasini oshirish: Yurtimizda tarbiyachilarning bilim darajasi va malakasini oshirishga oid islohotlar jadal amalga oshirilmoqda, shu bilan bir qatorda qishloq va tuman hududlaridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining holati ham yaxshilanmoqda.

5. Hududiy rivojlanish va Prezident qarori asosida qo'shimcha yondashuv





Bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlash masalasi pedagogik sohada eng dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Maktabga tayyorlov jarayoni nafaqat bolalarning bilim olishi, balki ularning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir qiladi. Maktabga tayyorlashda bolaning g‘odaklik davridan boshlab tarbiyasi va 3 yoshgacha bo‘lgan rivojlanish davri katta ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilarning yondashuvi asosiy rol o‘ynaydi.

2. Nazariy asoslar

Maktabga tayyorlash tushunchasi bolaning maktab hayotiga moslashishini ta’minlash jarayonini anglatadi. Bu jarayon quyidagi jihatlarga ega:

- Aqliy tayyorgarlik: Bolaning fikrlash, eslab qolish va e’tibor qobiliyatlarini shakllantirish.
- Psixologik tayyorgarlik: Mustaqil ishlash, topshiriqlarni bajara olish, sabr-toqat va muloqot qobiliyatini rivojlantirish.
- Ijtimoiy tayyorgarlik: Sinfdoshlar va o‘qituvchilar bilan samarali aloqada bo‘lish, guruhda ishlashni o‘rganish.
- Jismoniy tayyorgarlik: Bolaning motorik qobiliyatlari, yozish va chizish ko‘nikmalari rivojlanishi.

3. Erta yoshdagi tarbiya va Masaru Ibuka fikrlari asosida shaxsiy yondashuv

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida eng muhim davr – bu g‘odaklikdan boshlab 3 yoshgacha bo‘lgan davr hisoblanadi. Masaru Ibuka o‘zining “Uchdan keyin kech” asarida aynan shu davrning ahamiyatini ta’kidlab, 3 yoshli bolaning nafaqat ona tilida, balki boshqa tillarda ham muloqot qila olishini kuzatgan pedagogik tajriba va ilmiy yondoshuvni keltiradi. Ibuka fikricha, bola tarbiyalashning yagona andozasi yo‘q; har bir bolaga uning individual qobiliyatlariga mos yondashish talab etiladi. Shuningdek, bola tarbiyasida ilmi onaning o‘rni juda katta – “Ilmi ayoldan ilmi farzand dunyoga keladi” degan qadriyatni u ilgari suradi. Bu qarash orqali bolaning til rivoji va shaxsiy qobiliyatlarini mustahkamlash, shu bilan birgalikda ota-onalar va tarbiyachilarning birgalikdagi yondashuvi ahamiyat kasb etadi.

4. Tarbiyachilarning roli va maktabga tayyorlov tizimini takomillashtirish

Maktabga tayyorlash jarayonida nafaqat ota-onalar balki tarbiyachilar ham katta o‘rin egallaydi. Tarbiyachilarning faoliyati bolaning bilim olishi, ijtimoiy ko‘nikmalari va psixologik rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi chora-tadbirlar muhimdir:



- Malakali kadrlar yetishmovchiligi: Hozirgi kunda yurtimizda yetuk, ilmga ega tarbiyachilarning yetishmasligi global ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biridir.

- Optimal guruh tarkibi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir guruhdagi tarbiyalanuvchilar sonining kamaytirilishi, individual o'quv tizimini joriy etish bolaning rivojlanishi va bilim olish jarayonini samarali tashkil etadi.

- Amaliyotga o'xshash tayyorgarlik jarayoni: Bolalarni, bakalavr talabalarining maktab muhitiga tanishish jarayoniga o'xshash tarzda, amaliy faoliyat bilan tanishtirish muhim. Bu orqali ular maktabga moslashishda ancha osonlikka erishadilar.

- Tarbiyachilarning malakasini oshirish: Yurtimizda tarbiyachilarning bilim darajasi va malakasini oshirishga oid islohotlar jadal amalga oshirilmoqda, shu bilan bir qatorda qishloq va tuman hududlaridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining holati ham yaxshilanmoqda.

5. Hududiy rivojlanish va Prezident qarori asosida qo'shimcha yondashuv

Tuman va qishloq hududlarida maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu hududlarda tarbiyachilar soni va malakasini oshirish, bolalarni qamrab olish va ta'lim sifatini yaxshilash yuzasidan Prezidentning qabul qilgan qarori katta rol o'ynaydi. Qaror doirasida:

- Tuman va qishloq hududlaridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'shimcha e'tibor berilishi,

- Tarbiyachilarning malakasini oshirish va yangi yetuk kadrlarni tayyorlash chora-tadbirlari qo'llanilishi,

- Hududiy farqlarni kamaytirish va barcha bolalarga teng sifatli ta'lim taqdim etilishi rejalashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bolalarni maktabga tayyorlash jarayoni — bu bilim, psixologik va ijtimoiy rivojlanishga qaratilgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Erta yoshdagi tarbiya, Masaru Ibuka asaridagi ilgari surilgan g'oyalar, malakali tarbiyachilar yondashuvi, optimal guruh tarkibi va hududiy farovonlikni ta'minlash maqsadida qabul qilingan Prezident qarori tizimimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu tizim asosida har bir bola individual ehtiyojlarga mos tarzda tarbiyalansa, kelajakda maktabda hamda jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga ishonch hosil qilish mumkin.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Masaru Ibuka. Uchdan keyin kech asari.
2. Prezident Qarori. “Maktabgacha ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” – Prezident Qarori № PP-1189, 2020 yil 12 noyabr. Hududiy farqlarni kamaytirish va barcha bolalarga teng sifatli ta’lim taqdim etilishi rejalashtirilmoqda.



**Research Science and
Innovation House**





O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MUOMALA MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI

Andijon davlat pedagogika insitituti Pedagogika psixologiya kafedrası assisenti
o'qituvchisi **Kadirova Omadxon Sobirjonovna**

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi **Raxmonaliyeva Robiyaxon Islomjon qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqola O'qituvchining muloqotga yondashuvi, muomala uslublari, psixologik sezgirligi hamda o'quvchilar bilan sog'lom aloqa o'atishdagi roli yoriyib beriladi. O'qituvchi dars faoliyatida muomala madaniyati haqida bir qancha taklif va fikrlar, dolzarb masalalar tahlil qilinadi. Bugungi glaballashuv davrida insonlar o'rtasidagi muloqot shakillari, madaniyati va uslublari tobora murakablashib bormoqda. Bu holat o'z navbatida pedagogik faoliyatda ham chuqur aks etadi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki har bir o'qituvchining psixologik holatini xis etuvchi, ular bilan samarali va ijobiy muomala olib boruvchi yetakchi shaxs bo'lishi lozim.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, o'qituvchi, muomala, madaniyat, psixologiya, ijtimoiy-hissiy, kitob, bilim sinf.

Har qanday ta'lim tizimining asosiy tayanchi bu o'qituvchidir. O'qituvchining bilim va tajribasi, kasbga bo'lgan munosabati, eng muhimi o'qituvchilar bilan qanday muomalada bo'loshi ta'lim jarayoning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa zamonaviy jamiyatda muomala madaniyati va psixologik yondashuvlar o'qituvchi faoliyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham muomala madaniyati va psixologiyasi o'qituvchi kasbining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. O'qituvchining muomala madaniyati chiroyli gapirish, muloyimlik balki har bir o'qituvchining shaxsiga hurmat bilan yondashish, ularni tushunishga intilish va o'zaro ishonchli muhit yaratishdir. Dars jarayonida o'qituvchining ohangidan tortib, tana harakatlari yuz ifdasi, hatto jim turishidagi ichki holati ham bolalarga kuchli ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun o'qituvchi o'zining psixologik holatiga e'tiborli bo'loshi kerak. O'qituvchi qanday kayfiyatda bo'lsa, u holat butun sinfga tarqaladi. Agar u sabrli, e'tiborli samimiy bo'lsa o'qituvchilar ham o'zini erkin xavfsiz his qiladi. Aksincha asaliy,





befarq yoki sovuq muomalada bo'lsa bolalar ha o'zlarini tortib oladi natijada darslarga qiziqishi pasayadi. Muomala madaniyati shunchaki "madaniyatli gapirish" emas, balki har bir harakatda, so'zda tarbiya va samimiyat bo'lishi kerak. Yaxshi muommala o'quvchini tinglay bilish uning fikriga hurmat bilan qarash hatto

noto'g'i gapirsa ham, uni yerga urmasdan, muloyimlik bilan yo'l ko'rsatishdir. Pedagogik yondashuv esa har bir bolaning o'ziga xosligini tushunishdir. Har bir o'quvchining xarakteri oilaviy sharoiti, darsga bo'lgan munosabati turlicha. Kimdur faol va ochiq bo'lsa, boshqasi tortinchoq yoki e'tborga muhtoj b'ladi. O'qituvchi ana shu farqlarni inobatga olib, har biriga alohida yondashishi kerak. Bu esa pedagogik sezgirlik, ya'ni bolaning ichki holatini sezish va unga mos yondashish orqali amalga oshadi.

O'qituvchi faoliyatida muomala qanday bo'ladi degan savol tug'ladi.

Muomala quyidagicha bo'lishi lozim:

1. Sabrli va e'tiborli: O'qituvchi har bir o'quvchini sabr bilan tinglashi, savollariga javob berishi, fikriga hurmat bilan qarashi kerak. Hatto noto'g'ri fikr bildirgan taqdirda ham uni yerga urmasdan, to'g'ri yo'l ko'rsatish muhim.

2. Ijobiy va rag'batlantiruvchi: Har qanday kichik yutuqni ham e'tibordan chetda qoldirmay, maqtash, rag'bat berish o'quvchining o'ziga ishonchini oshiradi va faolroq bo'lishiga yordam beradi.

3. Teng huquqli munosabat: O'qituvchi o'quvchilarni past ko'rmasligi, ularni ham fikri bor shaxs sifatida qabul qilishi kerak. Bu ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

4. Tashqi ko'rinish va ovoz ohangi: Tinch, muloyim ovoz, toza va tartibli kiyinish ham muomala madaniyatining bir qismi. Bular bolalarda hurmat va ishonch uyg'otadi.

5. Konfliktlardan qochish: O'qituvchi har qanday nizoli vaziyatni sabr va mulohaza bilan hal qilishi, baland ovoz yoki jazodan voz kechib, vaziyatni psixologik yondashuv bilan yumshatishi kerak.

O'qituvchi faoliyatida psixologiya qanday bo'ladi degan savol ham bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida psixologiya juda muhim o'rin tutadi. Quyidagi jihatlar orqali buni tushunish mumkin:

1. O'quvchini tushunish: Har bir o'quvchining xarakteri, qiziqishi, bilim darajasi va psixologik holati turlicha bo'ladi. O'qituvchi psixologiyani bilsa, ularning ehtiyojlarini aniqroq anglab, individual yondashuv qo'llay oladi.





2. Motivatsiya berish: Psixologik bilimlar orqali o'qituvchi o'quvchilarni o'qishga qiziqтира oladi, ularning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

3. Baholash va rag'batlantirish: Har bir o'quvchi tanqid va maqtoovni turlicha qabul qiladi. Psixologiya o'qituvchiga qaysi o'quvchiga qanday yondashish kerakligini tushunishga yordam beradi.

4. Sinfdagi muhitni boshqarish: Psixologik bilimlar yordamida o'qituvchi sinfdagi ijobiy muhitni yaratadi, nizolarni bartaraf qiladi, hamkorlik ruhini mustahkamlaydi.

5. Stress va charchoqlikni boshqarish: O'qituvchi o'zi ham psixologik bosim ostida ishlaydi. Psixologiya o'z hissiyotlarini boshqarish va ruhiy barqarorlikni saqlashda yordam beradi.

Xulosa:

O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi muhim o'rin egallaydi. Har bir so'z, harakat va munosabat o'quvchiga nafaqat bilim, balki tarbiya ham beradi. Yaxshi muomala madaniyatiga ega o'qituvchi o'quvchilarning ishonchini qozonadi, ularning ruhiy holatini tushunib, kerakli yondashuvni tanlay oladi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'zining nutqi, xatti-harakati va psixologik yondashuvini doimiy ravishda takomillashtirib borishi zarur.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Yo'ldoshev M. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: Fan, 2019.
3. Rasulova D.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Ilm ziyo, 2021.
4. G'ofurov K. Psixologiya. – T.: O'zbekiston, 2020.
5. Hasanboyeva O. Muomala madaniyati va etikasi. – T.: O'qituvchi, 2018.
6. Abduqodirov A. Pedagogik psixologiya asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2022.

Research Science and
Innovation House





BOLALARNI MAKTABDA TA' LIM OLIHIGA TAYYORGARLIGINI TASHXISLASH USULLARI

Raxmonaliyeva Robiyaxon Islomjon qizi

Andijon avlat pedaggika instituti

Makatabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalarning ta'lim olishga tayyorgorligini tashxislashga qaratilgn bo'lib bu tekshiruv juda muxim hisoblanadi. Bolani o'qitish uchun har tomonlama bilish kerak. Maqolada L.S.Vigotiskiy,S.L.Rubinshteyn, P.P.Blonskiy kabi olimlarning pisixologik va pedagogik qarashlari asosida fikr yuritiladi.Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarda qanday tashxislar o'tkazilishi ,ko'p ta'lim muossasalarining ota-onalar bolalarni maktabga tayyorlash borasida faoliyatni olib borilishi yoritilgan.Tadqiqot natijalari bolalarni aqliy rivojlanishini tubdan o'rganish, suxbatlar va kuzatuvlar orqali bolalarni aqliy va pisixalagik rivojlanishni yaxshiroq bilish va bolalarda hosil bolayotgan tushunchalarni tahlil qilishga qaratilgan taklifalarva muamolarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: tashxislash,aqloiy rivijlanish,"Grafik diktant", yo'riqnoma, suxbat, kuzatish, ko'nikma, tayyorgarlik yondashish, omil, discomfort

Kirish

Ushbu maqolada bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorligini tashxislash. Bu tekshiruv juda muxim bo'lib u oila uchun bolaning qaysi jihatlariga tuzatish kiritishda olti yoshning muvaffaqiyatlari ba kamchiliklariga qanday yondashishda, shu maqsadda u tarbiyachilarga, qolaversa, 1-sinf o'qituvchilari uchun ham kerak. Bolani o'qitish uchun uni har tomonlama bilishi kerak. Afsuski, bugungi kunda tashxis tizimining takomilashmaganligi turli xil o'zini oqlaman shakillarni ko'pligi ta'lim muossasalarining hamda ota-onalar bolalarni maktabga tayyorlash borasida faoliyatni qiyinlashtirmoqda.Masalan ayrim maktablarda bolalarni maktabga tayyorgarligini belgilovchi asosiy ko'rsatkich sifatida tez o'qish ko'nikmasi ilgari surmoqda. Vaholanki bu ko'nikma maktabgacha ta'lim davlat dasturiga kiritilmagan. Agar bola tez o'qishga o'rgangan bo'lsa yomon emas,biroq bu maktabga borishdagi shartli talab sifatida qabul qilinmasligi kerak.Tashxis o'tkazish,bolani rivojlanganligi va maktabda ta'lim olishga tayyorgarligi darajasini aniqlash maqsadida turli usullarningbir necha





variantlari berilmoqda. Bolani berilgan savollarga javob berayotganda shoshirmaslik, uning qiziqishini soʻdirmaslik uchun suxbat va tavsiya etilayotgan oʻyinlardan 2-3tasini oʻtkazgan maʼqul. Barcha turdagi maktabgacha taʼlim tashkilotlari, maktablar uchun majburiy boʻlgan hamda ota-onalarning ham bolani maktabga tayyorligini aniqlash va bola rivojlanishidagi ayrim jihatlarni chuqurroq yechishlarga imkon beruvchi asosiy tashxislash usullarining asosiylariga quyidagilar kiradi

Bolaning sogʻligi va jismoniy rivojlanganligi holati tashxisi.

Shaxsiy – psixologik va aqliy rivojlanganlik tashxisi;

Tashxislovchi kirish suxbati.

Venger metodi boʻyicha tashxislash (grafik diktant).

Bolaning sogʻligi va jismoniy rivojlanganligi holatini tashxislash. Maktabga qabul qilishdan oldin barcha bolalar oʻz yashash joylaridan poliklinikasi tarkibida tor mutaxassislik boʻyicha shifokorlardan iborat boʻlgan tubbiy kommissiya tekshiruvidan oʻtishi shart. Maskur tekshiruvning erta bahorda oʻtkazilishi bolalarda aqlan yetishmivchiliklarni yoz davomida dispanseriyada toʻldirib olish imkonini beradi. Harakatning asosiy turlari, qoʻl muskullari sport oʻyinlarining oddiy koʻnikmalari, harakat sifati rivojlanganligini musobaqa, estafeta tarizida oʻtkaziladigan sport va harakatli oʻyinlar davomida tekshirish mumkin.

Bolalarni maktabda taʼlim olishga tayyorligini baholash (tashxislash) ularning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanish darajasini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Quyida eng koʻp qoʻllaniladigan tashxislash usullari keltirilgan:

1. Psixologik tashxis usullari

Maqsad: Bolada fikrlash, xotira, eʼtibor, hissiy barqarorlik va oʻzini tuta olish darajasini aniqlash.

Usullar va misollar:

"Rasm asosida hikoya tuzish": bolaga oddiy rasm (masalan, bola bogʻda oʻynayapti) koʻrsatiladi. U undan hikoya tuzadi.

Baholanadi: voqeani tasavvur qilish, mantiqiy izchillik, soʻz boyligi.

"10 ta soʻzni eslab qolish" testi:

Misol: olma, koʻzoynak, mushuk, stul... kabi soʻzlar 2 marta aytiladi. Bola ularni eslab qayta sanaydi.

Baholanadi: eslab qolish tezligi, qayta aytish darajasi.

"Qiyoslash" (qarama-qarshi juftlik):





Misol: katta – kichik, uzoq – yaqin, oq – ...? (qora).

Baholanadi: qarama-qarshilikni tushunish, mantiqiy fikrlash.

Luscher testi (rang tanlash):

Bolaga rangli kartochkalar beriladi. U yoqtirgan tartibda tanlaydi.

Baholanadi: hissiy holat, psixik barqarorlik.

2. Pedagogik tashxis usullari

Maqsad: Bolada maktab dasturiga kiradigan boshlang'ich bilimlar mavjudligini aniqlash (harf, raqam, shakl, rasm orqali).

Usullar va misollar:

Savol-javoblar:

Misol: "Nechta rang bilasan?", "Bu qaysi harf?", "3 bilan 2 ni qo'shsang nechchi bo'ladi?"

Baholanadi: bilim darajasi, nutqiy faoliyat.

Rasm chizdirish (masalan, odam):

Bola odam rasmi chizadi.

Baholanadi: tananing detallarini to'liq tasvirlay olishi, qo'l motorikasi.

Matematika topshirig'i:

"Menga 5 dona qalam kerak, 2 ta bor. Yana nechta kerak?"

Baholanadi: oddiy arifmetik tushunchalar.

O'qishga tayyorgarlik:

Harflarni tanish, ularni bog'lash topshiriqlari beriladi.

Masalan: "B" harfi qaysi so'zda bor? Bola so'z topishi kerak.

3. Jismoniy tayyorgarlik tashxisi

Maqsad: Bolada yozuvga tayyorlik, umumiy sog'lomlik va harakat koordinatsiyasini baholash.

Usullar va misollar:

Mayda motorika tekshiruvi:

Qaychi bilan qirqish, chiziqni to'g'ri chizish, bo'yash.

Baholanadi: qo'lning harakat mosligi, yozishga tayyorlik.

Jismoniy holat:

Sog'lomlik ko'rsatkichlari: eshitish, ko'rish, yurish holati.

Shifokorlar tomonidan tekshiriladi.

4. Ijtimoiy tayyorgarlikni aniqlash





Maqsad: Bolaning jamoadagi o'zini tutish, qoida va tartibga bo'ysunish, o'qituvchini eshitish qobiliyatini aniqlash.

Usullar va misollar:

Erkin o'yin tahlili: Bolalar jamoasiga qo'shiladi. Uning boshqalar bilan qanday muomala qilishi kuzatiladi.

Baholanadi: ijtimoiy moslashuv, do'stlashish.

“Qoidali o'yinlar”:

Masalan, “Sokin yur, qimirlamasan yutasan” kabi o'yinlar orqali bolaga qoidaga rioya qilish kerakligi o'rgatiladi.

Baholanadi: itoatkorlik, sabr, tartibga rioya qilish.

O'qituvchi bilan aloqa:

Bola topshiriqni tinglay oladimi, bajarayaptimi, noto'g'rini to'g'rilayaptimi – shular ko'riladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islomov I.A. – Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent, O'qituvchi, 2008.
2. Yo'ldosheva N., Karimova M. – Maktabgacha ta'lim metodikasi. Toshkent, 2016.
3. Turg'unboyeva Z. – Pedagogik diagnostika. Toshkent, 2014.
4. Qodirova R., Karimova D. – Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish metodikasi. Toshkent, 2019.
5. Piaget, J. – The Psychology of the Child. (Piaget nazariyasi orqali bolaning kognitiv tayyorgarligi).
6. Vygotsky, L.S. – Mind in Society. (ZPD — yaqin rivojlanish zonasi tushunchasi asosida baholash).
7. Bronfenbrenner, U. – The Ecology of Human Development. (Bola atrofidagi muhit va maktabga tayyorgarlik).
8. Snow, C. E. & Van Hemel, S. B. (Eds.) – Early Childhood Assessment: Why, What, and How. National Research Council, 2008.

Research Science and
Innovation House





Yadro va xromosomalarni tuzilishi. Xromosoma mutatsiyalari

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti 1
bosqich 103 - guruh talabalari

To‘lanboyeva Marjona
Ummataliyeva Farangiz,
Maxammadova Omina

Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya o‘qituvchisi Yo‘ldashev A

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda eukariot hujayralarining asosiy boshqaruv markazi hisoblangan yadro va undagi irsiy axborotni tashuvchi xromosomalar tuzilishi, ularning tarkibiy qismlari va biologik ahamiyati haqida batafsil tahlil qilingan. Yadroning tuzilishi, funksional qismlari — yadro pardasi, yadro plazmasi, yadrocha va xromatin haqida keng ma’lumotlar berilgan. Yadroda saqlanadigan xromosomalar har bir tirik organizm uchun nasldan-naslga axborot tashuvchi asosiy tuzilma bo‘lib, ularning sentromera, telomera, xromatida va ikkilamchi qisqish kabi qismlarining tuzilishi va vazifalari izohlangan.

Ishda xromosoma mutatsiyalari va ularning biologik oqibatlarini ham atroflicha yoritilgan. Xususan, tuzilma va son mutatsiyalari — deletsiyalar, duplikatsiyalar, inversiyalar, translokatsiyalar hamda aneuploidiya va poliploidiya kabi holatlarning organizm rivojlanishi va sog‘ligiga ta’siri ilmiy asoslangan holda tahlil etilgan. Mutatsiyalarning genetik kasalliklar kelib chiqishidagi o‘rni, irsiy belgilar o‘zgarishiga olib kelishi va biologik xilma-xillikni ta’minlashdagi roli ham bayon etilgan.

Mazkur mavzu biologiya fanining hujayra tuzilishi, genetika va irsiyat qonuniyatlarini o‘rganishda hamda zamonaviy biotibbiyot, genetika va seleksiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Yadro, yadro pardasi, yadro plazmasi, yadrocha, xromatin, xromosoma, sentromera, telomera, xromatida, mutatsiya, deletsiyalar, duplikatsiya, inversiya, translokatsiya, aneuploidiya, poliploidiya, genetika, irsiyat, genetik kasalliklar, biologik xilma-xillik.

Hujayra – barcha tirik organizmlarning eng kichik tuzilma va funksional birligi bo‘lib, uning tuzilmasida muhim o‘rin tutuvchi qismlardan biri bu – yadrodir. Yadro hujayraning hayotiy jarayonlarini boshqaradi hamda irsiy axborotni saqlash va nasldan-






naslga uzatishda asosiy rol o'ynaydi. Yadro ichida joylashgan xromosomalar esa DNK molekulalaridan tashkil topgan bo'lib, ular genetik informatsiyaning tashuvchisi hisoblanadi.


Xromosomalar soni va tuzilishida yuz beradigan o'zgarishlar – ya'ni xromosoma mutatsiyalari – organizmda turli genetik buzilishlarga olib kelishi mumkin. Bunday mutatsiyalar ko'pincha irsiy kasalliklar, tug'ma nuqsonlar va ba'zan rivojlanishdagi og'ishlarga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada yadro va xromosomalarning tuzilishi hamda xromosoma mutatsiyalarining asosiy turlari va ularning oqibatlarini haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Yadro va uning tuzilishi. Hujayra yadrosi – eukariot hujayralarning asosiy organellasi bo'lib, ikki qavatli yadrosimon membrana bilan o'ralgan. U karioplazma, xromatin, yadronacha va yadro teshiklaridan tashkil topgan. Yadroda hujayra bo'linishini boshqaruvchi va irsiy axborotni saqlovchi DNK molekulalari joylashgan bo'lib, ular xromatin shaklida bo'ladi. Hujayra bo'linishidan oldin xromatin zichlashib, xromosomalarni hosil qiladi.




Yadroning elektron mikroskopik tuzilishi (sxema). 1-yadro qobigi; 2-yadro teshiklari. 3-karioplazma; 4 -xromatin; 5- yadrocha; 6- interxromatin donachalar; 7 - perixromatin donachalar; 8 - spiral tanacha.

Xromosomalar va ularning tuzilishi. Xromosoma – bu hujayraning irsiy materialini o'z ichiga olgan tuzilma bo'lib, DNK va oqsillardan tashkil topgan. Har bir xromosoma ikki bo'lakdan – xromatidalardan iborat bo'lib, ular sentromera orqali bir-biriga birikkan bo'ladi. Xromosomaning har bir qismi ma'lum bir genetik axborotni saqlaydi. Odamda 46 ta (23 juft) xromosoma mavjud bo'lib, ularning 22 jufti autosoma, 1 jufti esa jinsiy xromosomalaridir (XX yoki XY).



Xromosomaning tuzilishi. A- xromosoma xillari: 1- akrotsentrik; 2- submetatsentrik; 3- metatsentrik. B- xromosomaninituzilish sxemasi: a- tashqi ko'rinishi; b- ichki tuzilishi: 1- birlamchi belbog'; 2- sentromera; 3- ikkilamchi belbog'; 4- yo'ldosh; 5- xromonema. S- Xromosomaning ultramikroskopik tuzilish sxemasi: 1- euxromatin; 2- geteroxromatin; 3- birlamchi belbog'; 4- sentromera; 5- xromatida; 6- xromonema; 7- ikkilamchi belbog'; 8- yadrocha.

Xromosoma mutatsiyalari va ularning turlari. Xromosoma mutatsiyalari – bu xromosomaning tuzilishi yoki sonida yuz beradigan o'zgarishlardir. Bu mutatsiyalar irsiy kasalliklar, rivojlanishdagi buzilishlar va ba'zan bepushtlikka olib kelishi mumkin.



1. Struktura mutatsiyalari (xromosoma tuzilmasidagi o'zgarishlar):






Delesiya – xromosomaning bir qismining yo‘qolishi. Natijada ayrim genlar yo‘qoladi.

Duplikatsiya – ma’lum bir segmentning ikki yoki undan ortiq nusxada takrorlanishi.

Inversiya – xromosomaning bir qismi uzilib, teskari burilib yana joylashishi.

Translokatsiya – xromosoma segmentining boshqa xromosomaga yoki o‘zida boshqa joyga ko‘chishi.



Klaynfelter sindromi

2. Son jihatdan mutatsiyalar (xromosoma sonidagi o‘zgarishlar):

Aneuploidiyalar – ayrim xromosomalarning ortiqcha yoki kam bo‘lishi. Masalan, Daun sindromi 21-xromosomaning uchta nusxada (trisomiya) bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Research Science and
Innovation House





Duan sindromi

Poliploidiya – to‘liq xromosoma to‘plamining ko‘payib ketishi (triploid, tetraploid va h.k.). Odamlarda odatda bunday holatlar yashovchan bo‘lmaydi.

Xromosoma mutatsiyalarining oqibatlari. Xromosoma mutatsiyalari genetik kasalliklar, tug‘ma nuqsonlar, aqliy yoki jismoniy rivojlanishdagi muammolarga olib keladi. Ba’zi hollarda bunday mutatsiyalar saraton kasalligini keltirib chiqarishi ham mumkin. Shu sababli xromosomalarning o‘rganilishi genetika, tibbiyot, biologiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, yadro va xromosomalar hujayraning eng muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lib, ular organizmning genetik axborotini saqlash, uni nasldan-naslga o‘tkazish va hujayra faoliyatini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Xromosomalarda yuz beradigan har qanday tuzilmaviy yoki son jihatidagi o‘zgarishlar organizm hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, xromosoma mutatsiyalari ko‘plab irsiy kasalliklar, rivojlanishdagi nuqsonlar va boshqa genetik buzilishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bois, xromosoma tuzilishi va mutatsiyalarini o‘rganish, ularni erta aniqlash hamda oldini olish usullarini ishlab chiqish bugungi kunda genetika va tibbiyot fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaahmedov T.M. Genetika asoslari. – Toshkent: «O‘qituvchi» nashriyoti, 2018.
2. Abdurahmonov I.Y. Biologiya: Genetika, molekulyar biologiya va seleksiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Rustamov S. va boshqalar. Umumiy biologiya. – Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 2017.
4. Lewin B. Genes XI. – Jones & Bartlett Learning, 2014.
5. Alberts B. va boshqalar. Molecular Biology of the Cell. – Garland Science, 2015.
6. Zamonaviy genetika va molekulyar biologiya fanidan elektron darsliklar va ilmiy maqolalar.



**Research Science and
Innovation House**



MUNDARIJA

№	Maqola nomi va muallif(lar) F.I.SH.	Betlar
1.	THE ROLE OF COMMUNITY HEALTH NURSES IN INTEGRATING DIGITAL HEALTH TOOLS FOR EARLY DETECTION OF NON-COMMUNICABLE DISEASES M. A. Rakhmatullaeva I. R. Urazalieva	5-8
2.	THE CONTRIBUTION OF COMMUNITY HEALTH NURSES TO REDUCING NON-COMMUNICABLE DISEASE BURDEN IN RURAL AREAS M. A. Rakhmatullaeva I. R. Urazalieva	9-13
3.	BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK IMPROVIZATSIYANI QO‘LLASHNING ZARURLIGI Sherqulova Shaxloxon Shuxrat qizi	14-21
4.	ПЕДАГОГИК ИМПРОВИЗАЦИЯНИНГ МУХИМ ХУСУСИЯТЛАРИ Mirzaqulova Nigora Azimovna	22-28
5.	SINERGETIKANI TA‘LIM-TARBIYA JARAYONIDA QO‘LLASHNING AHAMIYATI Nazarova Dilfuza Xolmirza Qizi	29-38
6.	1-2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida lug‘at ustida ishlash. Masharipova Umida Abduvohidovna Safaraliyeva Mehrangis Shamil qizi	39-43
7.	МИРОВОЙ РЫНОК УСЛУГ: СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ, ТЕНДЕНЦИИ И ОЖИДАНИЯ Барнакулова Гульрух Алишер кизи	44-47
8.	MODELS OF EVALUATION Rakhimova Guli	48-52
9.	Hozirgi davrda o‘qituvchi mahorati masalalari Xasanboyeva Gulshanoy Boburjon qizi	53-58
10.	Sigirquyruqdoshlar(Plantaginaceae) oilasi tavsifi va sistematikasi. Tarqalishi va ahamiyati. Xasanboyeva Gulshanoy Boburjon qizi.	59-62




11.	Viruslarning tasnifi, morfologiyasi va tasnifi Ziyodullayeva Iroda Baxriddinovnaning	63-68
12.	Ekologik xavfsizlikka oid huquqiy munosabatlarni tartibga solishda davlat-huquqiy mexanizmlarining roli va ahamiyati Mallayev Normamat Ramazonovich Murodova Elmira Muxiddin qizi	69-78
13.	TRIK ORGANIZMLARDA KO'PAYISH XILLARI Fozilova Omina Zokirjon qizi, Azimova Mohinsa Nodirbek qizi, Jamolidinova Robiya Fazliddin qizi	79-83
14.	BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH MUAMOLARI VA ULARNING YECHIMI To'ychiyeva Madinabonu Abdukaxxor qizi	84-90
15.	MAKTABGACHA TA'LIMNING MAZMUN-MOHİYATI VA TA'LIM TIZIMIDA TIZIMIDA TUTGAN O'RNI Mahmudova Robiyaxon Mirzohid qizi	91-94
16.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN RIVOJLANTIRUVCHI ISHLAR Kadirova Omadxon Sobirjonovna To'ychiyeva Madina Abduqaxxor qizi	95-99
17.	BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUV. Obidova Ruxshona Umidjon qizi	100-105
18.	"Shegellalar – dizenteriya qo'zg'atuvchisi" Ziyodullayeva Iroda Baxriddinovna	106-111
19.	Maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi ta'minlash. Kadirova Omadxon Sobirjonovna Muhammadaminova Muslimaxon Abdumo'min qizi.	112-116
20.	BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH TUSHUNCHASI. Kadirova Omadxon Sobirjonovna Asidinova Shahnoza Shuxratbek qizi	117-124
21.	O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MUOMALA MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI Kadirova Omadxon Sobirjonovna	125-127





	Raxmonaliyeva Robiyaxon Islomjon qizi	
22.	BOLALARNI MAKTABDA TA' LIM OLISHIGA TAYYORGARLIGINI TASHXISLASH USULLARI Raxmonaliyeva Robiyaxon Islomjon qizi	128-131
23.	Yadro va xromosomalarni tuzilishi. Xromosoma mutatsiyalari To'lanboyeva Marjona Ummataliyeva Farangiz, Maxammadova Omina Yo'ldashev A	132-137
24.	MUNDARIJA	138-140



**Research Science and
Innovation House**

